Бошқа Ғарбий Европа мамлакатларида бўлгани каби, Германиянинг тезкор-кидирув фаолият соҳасидаги қонунчилиги ҳам кодекслаштирилмаган ва турли хил юридик кучга эга бўлган кўплаб норматив ҳужжатларни ўз ичига олади. Тезкор-кидирув фаолияти соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тизимида икки гуруҳ ажратилади: 1) қонун ҳужжатлари - ҳуқуқий чеклаш чораларини ҳуқуқий тартибга солиш масалалари бўйича; 2) қонуности ҳужжатлари - бошқа масалалар бўйича. Иккинчи гуруҳга мансуб ҳужжатлар ҳукумат ҳужжатларига ва идоравий ҳужжатларга бўлинади, шунингдек тезкор-кидирув фаолиятига доир ҳужжатлар асосан ёпиқ хусусиятга эга [8].

Халқаро миқёсда тезкор ва тергов маълумотлари алмашинуви ҳам фаол ривожланмоқда. Жумладан, ҳозирда Европа Иттифоқига аъзо бўлган давлатлар бундай маълумотларни қайд қилиш учун ягона тизимни ташкил қилишган. Шу мақсадда суд-тиббий ва криминалистик маълумотлар билан бир қаторда манфаатдор шахслар ва ҳодисалар тўғрисидаги тезкор маълумотларни сақлайдиган электрон маълумотларнинг марказий банки яратилган. Европа Иттифоқига аъзо ҳар бир давлатнинг полицияси ушбу маълумотларнинг марказий банки билан компьютер алоқасига эга бўлиб, доимий равишда керакли маълумотларни олиш имкониятига эга, улардан фойдаланиш, баъзи экспертларнинг фикрига кўра, чегара назоратидан ҳам самаралироқ қўлланилмоқда.

Соҳа олимларидан Б.Качмар ҳам, Ғарбий Европа мамлакатлари ва АҚШ қонунчилиги ушбу мамлакатлар полициясининг уюшган жиноятчиликка қарши кураш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш бўйича тезкор-кидирув фаолиятига асосий ўринлардан бирини ажратганлигини қайд этган. Муаллиф мазкур мамлакатлар криминологлари ушбу мамлакатларда тезкор разведканинг махсус воситалари, шакллари ва усуллари ёрдамида рўйхатга олинган барча жиноятларнинг 85 фоиздан ортиғи очилганини таъкидлаб ўтган [9]. Шундай бўлсада, айрим статистик маълумотлар жиноятчиликка қарши курашни янада самарали такомиллаштириш заруратини кўрсатади. Жумладан, 2019 йилда Европа Иттифоқида жиноятчиликдан олинган даромадлар миқдори 139 миллиард еврини ташкил этган, бу Иттифоқ ялпи ички маҳсулотининг 1 фоизига

тенг улуш ҳисобланади. Европа Иттифоқида фаолият юритувчи жиноий тармоқларнинг қарийб 40 фоизи ноқонуний гиёҳванд моддалар савдосида иштирок этгани маълум бўлган [10].

Бизнингча, Европа Иттифоқига аъзо мамлакатлар ўртасида тезкор маълумотлардан ушбу шаклда фойдаланишнинг илғор тажрибаси нисбатан Марказий Осиё давлатларида кўпроқ тарқалган кучли таъсир қилувчи дори воситаларининг ноқонуний айланиши билан боғлиқ жиноятларга қарши самарали курашда қўлланилиши ўзининг ижобий самарасини беради, деб ҳисоблаймиз. Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунида ҳам ушбу муносабат алоҳида тартибга солиб қўйилган, яъни “Тезкор-қидирув фаолияти соҳасида, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг, шунингдек чет давлатларнинг ваколатли органлари ва турдош халқаро ташкилотлар ходимларининг жиноятчиликка қарши курашиш бўйича ҳамкорликдаги тадбирларда иштирок этиши масалалари юзасидан халқаро ҳамкорлик Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари ва халқаро шартномаларига мувофиқ амалга оширилади” [11].

Хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибалари сифатида қуйидаги муҳим жиҳатни ҳам таъкидлаб ўтиш зарур. Ривожланган мамлакатларда жиноятларни аниқлаш ва фош қилишда қўлланиладиган илғор тажрибалардан бири шундаки, тезкор ходимлар жиноятларни очиш, уларни аниқлаш, фош қилиш ҳамда жиноятларни олдини олишда ёрдам берадиган кўнгиллилар, махфий ходимларнинг молиялаштирилиши юқори даражада ташкил қилинган. Энг муҳими, бундай молиялаштиришнинг манбаи уюшган жиноий гуруҳлар ва бошқа жиноятчилардан мусодара қилинган маблағлар, мол-мулклар ҳисобланади.

Масалан, Америка Қўшма Штатларида қўшимча молиявий ресурслар Адлия вазирлигининг Наркотикларга қарши кураш бошқармасига юқори маошли махфий ходимларни ушлаб туриш ва картеллар ва триадаларга чуқур кириб бориш имконини беради. Австрия, Буюк Британия, Франция, Италия, Испания ва бошқа давлатлар ҳам полиция кузатув хизматларини молиялаштиришнинг ушбу йўлидан боришмоқда [12].

Тадқиқотимизда ўрганилган кучли таъсир қилувчи дори воситаларини ноқонуний айланишини тезкор-қидирув йўллари билан аниқлаш ва фош этиш бўйича хорижий давлатларнинг тажрибаларидан **қуйидаги хулосаларга келинди:**

жиноятчиликка қарши кураш, айниқса латентлиги юқори бўлган жиноятлар, хусусан кучли таъсир қилувчи дори воситаларини ноқонуний айланишини аниқлаш ва фош қилишда тезкор-қидирув тадбирлари ҳал қилувчи аҳамиятга эга,

айниқса ушбу тадбирларни ўтказишда кўнгиллиларни ёллаш, улардан фойдаланиш самарали ҳисобланади;

ривожланган давлатларда жиноятчиликка қарши самарали қўлланиб келинаётган кўнгиллиларни жалб қилиш, уларнинг хизмати учун юқори даражада молиявий таъминот ажратиш, ушбу мақсадда уюшган жиноий гуруҳ ва бошқа жиноятчилардан олинган, мусодара қилинган мол-мулкларни жалб қилиш ўзининг ижобий натижасини беради;

илғор хорижий тажриба шуни кўрсатадики, бугунги кунда тезкор-қидирув маълумотларини қайд этишнинг автоматлаштирилган тизимини яратиш, бу зарур объектларни аниқлашни ва фош этишни таъминловчи бирламчи воситалардан ҳисобланади;

ривожланган давлатлар тажрибасида ҳам кучли таъсир қилувчи дори воситаларини ноқонуний айланишини аниқлаш ва фош қилишда назорат тартибида сотиб олиш ҳамда етказиб бериш каби тезкор-қидирув тадбирлари қўлланилади ва ушбу самарали тадбир учун асосан кўнгиллилар жалб қилинади;

жиноятларни очиш ҳамда фош қилишда ёрдам кўрсатадиган кўнгиллиларни тоифаларга ажратиш, шунингдек бундай тоифадаги шахсларнинг касби, тажрибаси, қобиляти каби хислатларини инобатга олган ҳолда гуруҳлаштириш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Янги Ўзбекистон газетаси 25 декабр 2020 йил Ш.Мирзиёев: Ёшлар келажаги билан боғлиқ ҳар қандай вазифа бирламчи аҳамиятга эга 25 декабр 2020 йил. <https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>

2. Александр М., Вадим Д. Некоторые аспекты зарубежного опыта работы правоохранительных органов с конфидентами / LEGEA ȘI VIAȚA. IULIE 2019. Стр. 54. / <https://univd.edu.ua/science-issue/issue/4034>.

3. Мартинович К.А., Мельников С.Ю. Передовой зарубежный опыт создания интегрированных банков данных полицейских органов для их использования при проведении криминального анализа в рамках оперативно-розыскной деятельности / Актуальные вопросы оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел : сборник статей / Министерство внутренних дел Республики Беларусь, учреждение образования «Могилевский институт Министерства внутренних дел Республики Беларусь» ; редкол.: В. В. Борисенко (председ.) [и др.]. — Могилев : Могилев. институт МВД, 2021. Стр. 29. / https://elib.Institute.mvd.by/jspui/bitstream/MVD_NAM/5940/1/martinovich.pdf.

4. Иванов С. И. О зарубежном опыте секретных (тайных) операций полиции и целесообразности его использования в противодействии организованной преступности // Вестник Уральского юридического института МВД России. 2022. № 2. С.72.

5. Innes M. 'Professionalizing' the Role of the Police Informant: The British Experience. Policing and Society: An International Journal of Research and Policy. 2000. № 9(4). P. 357–383. D

6. Шумилов А.Ю. Курс основ оперативно-розыскной деятельности: Учебник для вузов. М.: Издательский дом Шумиловой И.И., 2006. – Стр. 290 368 с. <http://www.bnti.ru/showart.asp?aid=974&lvl=05>.

7. Мартинович К.А., Мельников С.Ю. Передовой зарубежный опыт создания интегрированных банков данных полицейских органов для их использования при проведении криминального анализа в рамках оперативно-розыскной деятельности /Актуальные вопросы оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел : Могилев. институт МВД, 2021. Стр. 30. / https://elib.institutemvd.by/jspui/bitstream/MVD_NAM/5940/1/martinovich.pdf.

8. Шумилов А.Ю. Курс основ оперативно-розыскной деятельности: Учебник для вузов. М.: Издательский дом Шумиловой И.И., 2006. – Стр. 290 368 с. <http://www.bnti.ru/showart.asp?aid=974&lvl=05>

9. Качмар Б. Проблемы совершенствования оперативно-розыскной деятельности по противодействию организованной преступности в современных условиях / ЗАКОН И ЖИЗНЬ 4. 2014. Стр. 49. <https://dspace.univd.edu.ua/server/api/core/bitstreams/d14bd5ff-7c49-4274-bc6d0e13b53c27fa/content>

10. Ю.Н. Жданов, В.С. Овчинский Стратегия Евросоюза по борьбе с организованной преступностью на 2021–2025 годы и ее значение для совершенствования оперативно-розыскной деятельности в цифровой среде / Оперативно-розыскная деятельность в цифровом мире : сборник научных трудов / под ред. В.С. Овчинского. — Москва : ИНФРА-М, 2021. Стр.428.

11 Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.

12. Сайфутдинов Т.И. Основы оперативно-розыскной деятельности: Учебник. Ч. 1. Бишкек: Изд-во КРСУ, 2015. Стр. 246. 278 Стр. <http://lib.krsu.edu.kg/uploads/files/public/6743.pdf>

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI XODIMLARINING MEHNAT UNMDORLIGINI BAHOLASH VA MODDIY RAG'BATLANTIRISH TAMOYILLARI

Kuchkanova Xurshida Ibragimovna

Toshkent shahar Chilonzor tuman 291-son DMTT direktori

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va ta'lim tarbiyaqaga asoslanganligidir. Maqsad maktabgacha ta'lim tizimida mehnat unmdorligini oshirish va turli darajadagi rahbarlar bevosita o'z vazifalarini bajarayotgan ijrochilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qilish asosida tashkilotda mehnat samaradorligini oshirish uchun tizimli to'plamini yaratish. Xodimlarga yetarli shart-sharoitlar yaratish hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: Работники дошкольных образовательных организаций имеют экономическую эффективность трудовой деятельности и воспитания. Целью является создание системной установки повышения производительности труда в системе дошкольного образования и повышения эффективности труда в организации на основе разрешения конфликтов между руководителями разных уровней, непосредственно исполняющими свои обязанности. Важно создать достаточные условия для сотрудников, а также материальное и моральное стимулирование.

Abstract: Employees of pre-school educational organizations are economic efficiency of labor activity and education is based on upbringing. The goal is to create a systematic set for increasing labor productivity in the preschool education system and increasing labor efficiency in the organization based on the resolution of conflicts between leaders of different levels who are directly performing their duties. It is important to create sufficient conditions for employees, as well as material and moral incentives.

Kalit so'zlar: Xodimlar, samaradorlik, samaradorlik, motivatsiya, muvaffaqiyat, tashkilot, mehnat, haq to'lash, baholash.

Ключевые слова: Сотрудники, эффективность, производительность, мотивация, успех, организация, труд, вознаграждение, оценка.

Keywords: Employees, efficiency, productivity, motivation, success, organization, work, reward, evaluation.

Maktabgacha ta'lim tizimida xodimlarning mehnat unumdorligi bolalarning sifatli tarbiyasi va ta'limi uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagoglarning samarali

faoliyati faqat ularning kasbiy ko'nikmalari bilan emas, balki ularni rag'batlantirish va ishga bo'lgan motivatsiya darajasi bilan ham belgilanadi. Mehnat unumdorligini baholash va rag'batlantirish tizimining samarali tashkil etilishi maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga va xodimlarning o'z ishiga nisbatan mas'uliyatini kuchaytirishga yordam beradi.

Mehnat unumdorligi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari mehnat faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichidir. Mehnat samaradorligi tushunchasi esa unumdorlik tushunchasidan kengroq bo'lib, u iqtisodiy jihatlar (aslida mehnat unumdorligi) dan tashqari yana psixofiziologik va ijtimoiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Quyidagi talablarga rioya qilinmasa, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari ham muqarrar ravishda pasayadi:

- ❖ noqulay sanitariya
- ❖ gigiena va inson sog'lig'i uchun zararli mehnat shart-sharoitlari;
- ❖ kasallanish tufayli ish vaqtining befoyda sarf bo'lishi;
- ❖ inson mehnatining eng faol davrining qisqarishi;
- ❖ qo'shimcha ta'tillar berilishi va boshqalar.

Mehnat unumdorligini baholashning ahamiyati va tamoyillari

1. Mehnat unumdorligini baholashning maqsadi

- Xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini aniqlash.
- Yaxshi natijalarga erishayotgan pedagoglarni rag'batlantirish.
- Kasbiy faoliyatdagi kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

2. Baholash tamoyillari

Baholash tizimi quyidagi tamoyillar asosida qurilishi kerak:

- **Obyektivlik:** Har bir xodimning ish natijalari adolatli va ishonchli mezonlar asosida baholanishi lozim.
- **Shaffoflik:** Baholash jarayoni barcha uchun tushunarli va ochiq bo'lishi kerak.
- **Tizimlilik:** Baholash muntazam ravishda o'tkazilishi va natijalar asosida tahlil amalga oshirilishi kerak.
- **Individuellik:** Xodimlarning individual xususiyatlari va sharoitlarini hisobga olish muhimdir.

Rag'batlantirish choralarining ma'nosi: Har bir MTT xodimlari uchun uning mehnati uchun eng muhim mukofot bu munosib va o'z vaqtida to'lanadigan maoshdir.

Biroq, ishdagi muvaffaqiyat uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega emas. Ulardan to'g'ri foydalanish mehnat intizomini ta'minlash va uni kerakli darajada saqlash imkonini beradi. Ushbu usullar kuchli rag'batlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, tashkilot xodimlarini yanada ishlab chiqarish muvaffaqiyatlari sari undaydi va jamoaning qolgan qismi uchun ijobiy o'rnak bo'ladi. Mehnat uchun mukofot ko'pincha namunali xulq-atvor (mehnat xizmatlari) holatlarida qo'llaniladi. Mavzu alohida xodimlar va jamoalar bo'lishi mumkin.



Mukofot choralari: ta'rifi va mohiyati- mukofot ijobiy baholashning bir shaklidir ish beruvchi, mehnat jamoasi yoki davlat tomonidan xodimning xatti-harakati yoki mehnat natijalari. Rag'batlantirish choralari ularni kim va nima uchun olganiga qarab tasniflanadi. Aslida, mehnat yutuqlari uchun

mukofotlar mukofotlar, imtiyozlar, imtiyozlar yoki minnatdorchilik va hurmatning ommaviy namoyishi bo'lishi mumkin. Bunday chora-tadbirlarni qo'llash natijasida xodim yoki jamoaning nufuzi oshadi. Bu har bir insonga xos bo'lgan e'tirofga bo'lgan ehtiyojni anglashdir. Taqdirlangan xodim rahbariyatga minnatdorchilik bildiradi, shuningdek, jamoa va tashkilot uchun o'z qadrini tushunadi. Mehnat uchun mukofot odamlarni o'z burchlarini vijdonan bajarishga undaydi, ularni kasbda yangi cho'qqilarni zabt etish, kompaniyaga yanada foydali bo'lish ishtiyoqida yuklaydi. Motivatsiyalangan xodimlar Maktabgacha ta'lim tizimi uchun juda muhim. O'zlarining kuchli, yorqin niyatlari tufayli ular yanada samarali ishlaydi, faol va to'liq kuch bag'ishlagan holda yuzaga keladigan qiyinchilik va muammolarni engib, o'z maqsadlariga tezroq erishadi.

Rag'batlantirish shakllari

Maktabgacha ta'lim tizimida rag'batlantirish tizimi moddiy va nomoddiy shakllarni o'z ichiga oladi:

Moddiy rag'batlantirish

- Mukofot pullari va qo'shimcha haq.
- Oylik maoshni oshirish.
- Moliyaviy mukofotlar va sovg'alar.

Nomoddiy rag‘batlantirish

- Faxriy yorliqlar va e’tirof.
- Professional rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish (kurslar, treninglar, seminarlar).
- Dam olish yoki sayohat uchun imkoniyatlar yaratish.
- Jamoatchilik oldida yutuqlarni e’tirof etish.

Mukofot tizimi qanday qo‘llanilishi kerak: Har qanday mukofot, bonus yoki ma'naviy rag‘batlantirish mukofotlanadigan xodimning har bir mehnat yutug‘idan keyin qo‘llanilishi kerak. Rahbar aksiyani bekor qilish yoki kechiktirishga ruxsat bermasligi kerak. Shuningdek, uni o‘lcham yoki miqyosda kamaytirmaslik kerak. Ko‘pincha xodimlar kompaniyada mavjud bo‘lgan motivatsiya tizimidan xabardor bo‘lib, yuqori mehnat intizomining saqlanishiga ishonch hosil qilishadi. Kechiktirilgan, to‘xtatilgan yoki bekor qilingan rag‘batlantirishlar ishlashga bo‘lgan ishtiyoqning yo‘qolishiga, umidsizlikka va natijada natijalar sifati va miqdorining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ko‘tarilgan samaradorlikka erishishni ta'minlaydigan haddan tashqari murakkab mukofot tizimi xuddi shunday ta'sirga ega. Ish uchun rag‘batlantirish miqdori va ularni qo‘llash tartibi nafaqat kuchli va o‘rtacha xodimlar uchun hisoblanishi kerak. Bunday sharoitda qobiliyatlari zaifroq ishchilar o‘zlarini quyi ijtimoiy qatlam vakillaridek his qilib, ishlashga bo‘lgan ishtiyoqlarini yo‘qotadilar. Yechim har xil turdagi va mukofotlarni ta'minlovchi tabaqalashtirilgan mukofot tizimini ishlab chiqish bo‘lishi mumkin. mukofotlar.

O‘zbekistonda mehnat unumdorligini baholash va rag‘batlantirish

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida xodimlarning mehnat unumdorligini baholash va rag‘batlantirishni yanada samarali qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- **Integratsion yondashuv:** Baholash va rag‘batlantirish tizimiga xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali joriy etish.
- **Ilmiy asoslangan yondashuv:** Baholash mezonlarini pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida ishlab chiqish.
- **Rag‘batlantirishni tizimlashtirish:** Moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimlarini kengaytirish va har bir xodimga mos imkoniyatlar yaratish.
- **O‘quv jarayonida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash:** Yangi texnologiyalar va metodikalarni joriy etgan xodimlarni mukofotlash.

Xulosa shuki: Maktabgacha ta’lim tizimida xodimlarning mehnat unumdorligini

baholash va rag‘batlantirish tizimini samarali tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Baholash jarayonining adolatli va shaffofligi, rag‘batlantirish tizimining xilma-xilligi xodimlarni ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Natijada, bolalar uchun sifatli ta’lim-tarbiya muhiti yaratiladi, bu esa jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdurahmonov Q.H, Holmo‘minov Sh.R. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent-2004 yil, 126-143 betlar.
2. Abdurahmonov Q.H., Bozorov N., Volgin N. va boshqalar. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Toshkent: «O‘qituvchi»-2001 yil, 280-326 betlar.
3. Alekseycheva E. Yu., Magomedov M. D., Kostin I. B. Tashkilot (korxona) iqtisodiyoti. Darslik. –M . Dashkov va Co. 2020 290 b.
4. Dodoboev Yu.T., Xudoyberdiev.A. «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi». Farg‘ona-2001 yil, 64-84 betlar.
5. Google.ru.

TOJIK, O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARINI O'QITISH METODIKASI

Guliston davlat pedagogika institute

2-kurs talabasi

Hamdamboyeva Go'zal Nurullo qizi

Muhtasarahmedova53@gmail.com

Norboyeva Mahliyo Vohobjon qizi

mnorboyeva77@gmail.com

Annotatsiya: Tadqiqot tojik, o'zbek, rus va ingliz tillarini o'qitish nazariyasi va metodikasiga bag'ishlangan. Maqolada ushbu tillarni o'qitish usullarining umumiy yondashuvlari va farqlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: O'qitish metodikasi, o'qitish nazariyasi, globallashtirish, chet tili, innovatsion usullar, pedagogik yondashuv, kommunikativ yondashuv, audio-lingual metod, Tojik tili metodikasi, madaniy komponentlar.

Abstract: The research is devoted to the theory and methodology of teaching Tajik, Uzbek, Russian and English languages. The article mentions the general approaches and differences of the methodology for teaching these languages.

Key words: teaching methodology, teaching theory, foreign languages, globalization, innovative methods, pedagogical approach, communicative approach, audio-lingual method, Tajik language methodology, cultural components.

Аннотация: Исследование посвящено теории и методике преподавания таджикского, узбекского, русского и английского языков. В статье указаны общие подходы и различия методики преподавания этих языков.


Ключевые слова: методика преподавания, теория преподавания, иностранные языки, глобализация, инновационные методы, педагогический подход, коммуникативный подход, аудиolingвальный метод, методика таджикского языка, культурные компоненты.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo miqyosida xorijiy tillarni o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, Tojikiston va O'zbekiston kabi davlatlarda tojik, o'zbek, rus va ingliz tillarini o'rgatish zaruriyati yanada oshib bormoqda. Bu tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar, shuningdek, tillarni o'qitish metodologiyasini chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi.

XXI asrning boshlaridan boshlab O'zbekistonda chet tillarini o'rganishning ijtimoiy-madaniy konteksti sezilarli darajada o'zgardi. Ularning maktablarda va universitetlarda o'rgatilishi va mustaqil o'rganish roli, shuningdek, umumiy mehnat

bozoridagi kasbiy ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Bu esa o'z navbatida chet tillarini o'rganish motivatsiyasining oshishiga olib keldi¹. Chet tillarini o'rganuvchilarga samarali va qiziqarli o'rgatish uchun interfaol metodlardan foydalanish zarur.

Metodika yunoncha “methodike” so'zidan olingan bo'lib, “biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui” ma'nosini anglatadi. Pedagogik muloqotda “metodika” atamasining uchta ma'nosi bor.



Tillarni o'qitish metodikasi (yoki til didaktikasi) - tilni o'rgatishda qo'llaniladigan usul va metodlar tizimi bo'lib, u tilni samarali o'rgatish uchun pedagogik yondashuvlar va texnikalarni o'z ichiga oladi. Bu metodika o'quvchilarning bilim darajasi, o'qitish maqsadi va o'quvchilar yoshiga qarab moslashtiriladi. Quyida asosiy yondashuvlar keltirilgan²:

1. Grammatika-o'qish metodi – ushbu metod grammatikani o'rgatish va matnlarni tarjima qilishga asoslanadi. Bu metod ko'pincha ilmiy va akademik maqsadlarda qo'llaniladi.

2. To'g'ridan-to'g'ri yondashuv – bunda talaffuz, gapirish va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beriladi. Talabalarga bevosita til muhitida tajriba orttirish imkoniyati yaratiladi.

3. Kommunikativ yondashuv – bu yondashuv tilni kommunikatsiya vositasi sifatida o'rganishga qaratilgan. Mashg'ulotlarda tilni amaliy foydalanish, muomala va real hayotdagi vaziyatlar modellashtiriladi.

1. ¹ <https://wordlyknowledge.uz>

2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi, 2012.

4. Audio-lingval metod – bunda talaffuz, eshitish va qiroat ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ko'proq audio materiallar ishlatiladi. Har xil dialoglar va drill (takroriy mashqlar) orqali talaffuz mustahkamlanadi.

5. Tabiiy yondashuv – bu metod bola tilni tabiiy yo'l bilan, ya'ni o'z ona tilini o'rganish jarayoniga o'xshash tarzda o'zlashtirishi uchun yaratilgan. Asosiy diqqat talaffuz va gapirishga qaratiladi.

6. Integrativ yoki interfaol metod – bunda til o'qitish jarayoni boshqa fanlar yoki mavzular bilan integratsiya qilinadi, bu esa o'quvchilarga tilni real hayotda qo'llash ko'nikmasini beradi.

Til o'qitish metodikasi moslashuvchan va interaktiv bo'lib, o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Tojik, o'zbek, rus va ingliz tillarini o'qitish metodikasi tilning grammatik, fonetik va madaniy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Ushbu tillarning har biri o'ziga xos didaktik yondashuvlarni talab qiladi, shuningdek, o'quvchilarning tilga oid bilim darajasi va ehtiyojlari ham metodikani belgilaydi. Quyida har bir tilni o'qitish metodikasi va ular o'rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan:

1. Tojik tilini o'qitish metodikasi

- Grammatikaga urg'u: Tojik tili fors tillari guruhiga kirgani uchun so'z tuzilishi, jumla tuzilishi va sintaksis xususiyatlariga e'tibor beriladi. O'rgatishda, asosan, so'z shakllarini hosil qilish va so'z yasalishi, hamda zamon va shaxs formasidagi fe'l sistemasi ustida ishlanadi.

1. - Talaffuz va fonetika: Tojik tilida forsiy tovushlar va intonatsiya bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, shuning uchun fonetik jihatdan alohida mashqlar talab etiladi.

- Madaniy elementlar: Tojik madaniyati va adabiyotini kiritish orqali talabalarga tilning madaniy aspektlarini o'rgatish samarali bo'ladi. Madaniy muloqot va tojikcha iboralar o'rgatish orqali kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi.

2. O'zbek tilini o'qitish metodikasi

- Grammatik yondashuv: O'zbek tili agglutinatив til bo'lib, qo'shimchalar orqali so'z yasaladi. Bu tilni o'qitishda grammatik kategoriyalar, masalan, egalik va fe'l shakllari, o'rgatishga urg'u beriladi. O'quvchilarni so'z yasalishi va turli vaziyatlarda so'zlarni qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar qo'llaniladi².

³ Chet tillarini fan sifatida o'qitish metodikasi. Tadqiqot predmeti va usullari. - Elektron matn. - URL: <https://leksii.org/18-27322.html>

- Kommunikativ usul: O'zbek tilini muloqotga asoslangan usulda o'qitish o'quvchilar uchun osonroq kechadi. Rol o'yinlari, savol-javob va matn tahlili yordamida tilning amaliy ko'nikmalari shakllantiriladi.

- Madaniyat va qadriyatlar: O'zbek tili o'quvchilarning madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy ma'lumotlarni kiritish orqali til o'rgatish samaradorligi oshiriladi.

3. Rus tilini o'qitish metodikasi

- Grammatik qoidalar va o'zgartirishlar: Rus tili flektiv til bo'lib, unda so'z shakllari o'zgaruvchi qo'shimchalar orqali yasaladi. Fe'llar, jins va son kategoriyalari, shuningdek, predloglar orqali bog'lanish usulini o'rgatish asosiy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

- Fonetik va talaffuz mashqlari: Rus tilida tovushlarni aniq chiqarish va urg'ularni to'g'ri qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun fonetik treninglar va talaffuz mashqlari ko'p ishlatiladi.

- Kommunikativ va madaniy yondashuv: Rus tilini o'qitishda rus madaniyati va an'analarini tushuntirish, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Dialoglar va haqiqiy hayotdan olingan vaziyatlar orqali o'quvchilar tilni amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

4. Ingliz tilini o'qitish metodikasi

- Strukturaviy va kommunikativ yondashuv: Ingliz tilini o'rgatishda grammatik qoidalar bilan birga amaliy muloqotga urg'u beriladi. Yodlash asosida grammatik tuzilmalarni o'rgatish bilan birga, kommunikativ yondashuv orqali real hayotdagi vaziyatlarda foydalanishga o'rgatiladi.

- Fonetik mashg'ulotlar: Ingliz tilidagi talaffuz va intonatsiya o'ziga xosdir, shuning uchun fonetikani yaxshilash uchun talaffuz mashqlari, dialoglar va audio tinglash materiallari ishlatiladi.

- Matn va leksika o'rgatish: So'z boyligini oshirish, iboralar va o'xshash so'zlarni o'rgatish orqali o'quvchilarni erkin suhbatlashishga tayyorlash uchun matnlar va hikoyalar ko'p ishlatiladi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi madaniy kontekst ham kiritiladi.

Umumiy yondashuv va farqlar:

- Grammatika o'rgatish usullari tillarning strukturaviy farqlariga ko'ra o'zgaradi, bunda o'zbek va tojik tillari grammatik jihatdan murakkab tuzilmalarga ega bo'lmasa-da, rus va ingliz tillarida qoidalarga ko'proq e'tibor beriladi.

- Fonetik va talaffuz yondashuvi ingliz va rus tillari uchun ancha muhim, chunki bu tillarda talaffuz qoidalari va urg'ular katta ahamiyatga ega.

- Madaniy komponentlar barcha tillar uchun zarur, ammo ayniqsa o'zbek, rus va ingliz tillarida, madaniy tushunchalarni chuqur tushunish orqali o'quvchilarning tilga oid qiziqishlarini oshirish mumkin.

- Kommunikativ metod barcha tillar uchun asosiy hisoblanadi, chunki u tilni amaliy va erkin qo'llash imkonini beradi.

1. Tojik va O'zbek tillarini o'qitish metodologiyasi

Tojik va o'zbek tillari turkiy va forsiy tillar oilasiga mansub bo'lganligi sababli, ularda ayrim leksik va grammatik o'xshashliklar mavjud. Ushbu tillarni o'qitishda matn va so'z boyligini kengaytirish uchun bir-biridan foydalanish imkoniyatlari

mavjud. Metodologiyada esa interfaol metodlar, ya'ni, rolli o'yinlar, munozaralar va guruhli ishlar orqali o'qitish samaradorligi yuqori bo'ladi.

2. Rus tilini o'qitish metodologiyasi

Rus tilini o'rgatishda grammatikaga alohida e'tibor qaratiladi, chunki rus tili qiyin grammatik tizimga ega. Metodologiyada esa ko'rgazmali vositalar va dialog asosidagi mashqlar katta o'rin tutadi. Bu o'quvchilarga tilning tuzilishini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi.

3. Ingliz tilini o'qitish metodologiyasi

Ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida keng tarqalgan. Bu tilni o'qitishda kommunikativ metodlar, ya'ni, til amaliyoti, eshitish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (onlayn darslar, audio va video materiallar) o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va samarali bo'ladi.

Har bir tilni o'rgatishda ushbu xususiyatlarni inobatga olgan holda metodika ishlab chiqish va qo'llash orqali o'quvchilarning tilni tez va samarali o'rganishiga yordam berish mumkin.

Natijalar va xulosalar

Yuqoridagi metodologiyalarni tillarni o'qitishda, shuningdek, maktab o'quv dasturida qo'llash ba'zi ijobiy natijalarni ko'rsatadi:

- 1) O'quvchilar chet tilini o'rganishda yaxshi natijalarga erishadilar.
- 2) Talabalarga til muhitida tajriba orttirish imkoniyatini beradi
- 3) O'rganuvchilarga tilni real hayotda qo'llash ko'nikmasini beradi

Tojik, o'zbek, rus va ingliz tillarini o'rgatish jarayonida mos metodlarni tanlash va ularni integratsiyalash tillarni o'rganishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, har bir tilda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu jarayonni yanada samarali qiladi.

Maqola har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib, ularning ta'limdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quvchilarni samarali tayyorlash va ularning til o'rganish motivatsiyasini oshirish yo'llari o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://wordlyknowledge.uz>
2. <https://uniwork.buxdu.uz>
3. Methods of teaching English language (2.2.3 Using project method in teaching a foreign language) – Elektron matn. - URL:<https://knowledge.allbet.ru/language/2cob6535bd79a5d43a88521306d370.htm>
4. Chet tillarini fan sifatida o'qitish metodikasi.Tadqiqot predmeti va usullari. - Elektron matn. -URL:<https://lektsii.org/18-27322.html>
5. Sun'iy intellect.
6. Jalolov J.J.Chet til o'qitishmetodikasi.-T.:O'qituvchi,2012.

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING HUQUQBUZARLIKLARDAN JABRLANGANLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATIDA VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKANI TASHKIL ETISH

Nazarov Ilxom Alimovich

malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy

fanlar kafedrası katta o'kituvchisi podpolkovnik

Annotatsiya: huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish jarayonida ma'muriy hududda fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish hamda aholiga va uning alohida toifalariga jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: reabilitatsiya huquqbuzarlik, viktimologiya, jabrlangan shaxs, g'ayri-ijtimoiy xulq-atvor, profilaktika, jamoatchilik nazorati, migratsiya.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining shunday turi ham borki bu huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasidir.

Aholining alohida toifalari bilan viktimologik profilaktika orqali kurashiladi. Huquqbuzarliklar sodir etilishida ko'p hollarda jabrlanuvchilarning aybdorligini aniqlash mumkin. Izohli lug'atda «viktimologiya» lotincha «victima» - jabrlangan, jabrlanuvchi va yunoncha «logos» - ta'limot ya'ni, jabrlanuvchilar haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirish jarayonida ma'muriy hududda fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o'rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish hamda aholiga va uning alohida toifalariga jabrlanish xavfini tug'dirayotgan omillar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari deya ta'rif berilgan.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklardan jabrlanganlar bilan ishlash faoliyatida viktimologik profilaktikani tashkil etish huquqbuzarliklapning oldini

olish darajasi va joriy

hamda kelgysida hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarning mazmunidan kelib chiqib turli yunalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi kundagi zamonaviy profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini

- huquqbuzarliklardan jabrlanganlarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

- aholiga, shu jumladan huquqbuzarlikdan jabrlanganlar shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanganlarni aniqlash va himoya qilish chora-tadbirlarini ko'rish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanganlarga professional huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatadigan reabilitatsiya markazlarini tashkil etish;

- huquqbuzarlikdan jabrlanganning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus keng ko'lamli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

- g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

- g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

- profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

- huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish chora-tadbirlari orqali amalga oshirib kelmoqda.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklardan jabrlanganlar bilan ishlash faoliyatida viktimologik profilaktikani tashkil etish huquqbuzarliklarning oldini olish darajasi va joriy

hamda kelgysida hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarning mazmunidan kelib chiqib turli yunalishlarda amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, profilaktika inspektori xizmat ko'rsatayotgan ma'lum hududda huquqbuzarliklarni aniqlash;

- mahalliy davlat xokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari bilan birlashib

viktimologik omillarni keltiruvchi sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan yirik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mahalla yig'inlari, maktablar, kollejlar, oliy o'quv yurtlari rahbariyati bilan huquqbuzarliklapni oldini olish boracida doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- o'rnatilgan axloq qoidalariga rioya qilish zaryriyati to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish kabilar shular jymlasidandir.

Bizning nazarimizda, profilaktika inspektori tomonidan huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etishninig o'ziga hos muhim hucusiyati huquqbuzarliklarning oldini olishda pivojlangan mamlakatlar tajpibasini o'zlashtirish bilan bipga yurtimizning milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda milliy qadriyatlapimizga ham alohida ahamiyat berilishi lozimdir.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasini tashkil etish faoliyatining navbatdagi o'ziga xos xucusiyatlaridan biri bu huquqbuzarliklardan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda chora-tadbirlari bo'lib ular quyidagilardan iborat:

-huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

-aholiga, shu jumladan huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

-huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

-huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish;

-huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora- tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini-o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

-g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

-hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;

-g'ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

-profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni

aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida jahon internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish;

–. huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy usullari to'g'risida elektron adabiyotlarni tarqatish chora-tadbirlari orqali amalga oshirib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bu chora-tadbirlar avvalambor shaxsda, jamiyatga nicbatan zid bo'lgan yo'nalishni shakllantirishga ta'sir qiluvchi nosog'lom muhitni, undagi voqea xodisa va jarayonlarni, o'zining g'ayriijtimoiy xislatlar, hulqi, odatlari va xayot tarzi bilan viktimologik omillarni keltirib chiqaruvchi "xavfli gurux" ga kiruvchi shaxslarni aniqlash, ularni xisobga olish va ular bilan tarbiyaviy-ogoxlantiruvchi xarakterdagi ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Q.A.Saitqulov "Huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasining asosiy yo'nalishlari" //2019, B-165-167.

2.O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni.

3.O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash xaqida"gi 191- sonli buyrug'i.T.2017 yil 25 avgust

4.O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni

5.O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni

THE MAN WHO MADE MODERN CHINA

Absamatov Mirodil Zokirjon o'g'li

International Islamic academy of Uzbekistan

Islamic economy and international relations faculty,

the first-year student of International relations,

Email: mirodilabsamatov1404@gmail.com

Phone: +998957011420

Annotation: This article talks about the political activities of Deng Xiaoping, the leader of China and the architect of modern China. As a result of his economic, political and social reforms, the well-being of the main Chinese people was ensured.

Keywords: The People's Republic of China, Mao Zedong, Deng Xiaoping, Cultural Revolution, Great Leap Forward, Socialism with Chinese Characteristics.

Today, China is one of the rapidly developing countries in the world. Since the founding of the People's Republic of China, China has gone through a difficult path of development. Although the PRC was founded in 1949, the foundations of modern China were laid in the 1980s under Deng Xiaoping. It was during his reign that a period of extensive reforms began in China. The implementation of the "Chinese way of economic development" combining the elements of capitalism and liberalism into the socialist economy started China in the era of reforms.

After the establishment of the People's Republic of China in 1949, it chose the socialist path of development. The sole power of the Communist Party of China under the leadership of Mao Zedong was established. From 1949 to 1976, when Mao was the leader of the party, Chinese society lived in isolation from the rest of the world. At that time, a quarter of the world's population lived in China. Mao's political and economic reforms failed to improve the quality of life of the population. His drastic reforms, such as the "Cultural Revolution" and the "Great Leap Forward", cost the lives of millions of Chinese. One of Mao's most stupid policies was the massacre he announced against sparrows in order to develop agriculture. As a result, most of the sparrows were killed and the food chain was broken. The decrease of sparrows led to the increase of insects such as locusts and the loss of most of the crops. During his rule, 79 million people became victims of revolution, repression and hunger. After Mao's death in 1976, Deng Xiaoping took power as the most powerful person in the party. If we look at Deng Xiaoping's life path, we can see that he was born in Sichuan in 1904. In 1921, he went to study in France and became interested in Lenin's theories. This later caused him to join the Communist Party of China in 1924. In 1926, he left for Moscow to study

political science. After his return, he was appointed as the commissar of the Red Army. He participates in many actions and struggles of the party under the leadership of Mao. After the establishment of the People's Republic of China on October 1, 1949, he held the position of regional party chief of Tibet and Southwest China. As a senior member of the Party Council and Deputy Prime Minister in the 1950s, Deng took an active part in many of Mao's reforms. However, his political and economic positions eventually led to his estrangement from Mao and the Party, and he was the target of purges twice during the Cultural Revolution (1966–1976). After Mao's death in September 1976, Deng succeeded Mao's chosen successor, Hua Guofen, and became China's leader at the 3rd Plenum of the 11th Central Committee in December 1978. Due to the institutional and political turmoil under Mao, Deng and his allies launched the Boluan Fanzheng Program. The program was aimed at restoring order, rehabilitating the veteran leadership of the CCP, as well as the millions of people who were persecuted during the Cultural Revolution. He launched the Reform and Opening Program, which introduced elements of market capitalism into the Chinese economy.

At the beginning of China's reform and opening up, Deng outlined four basic principles that should be maintained in the process: (1) Communist Party leadership, (2) the socialist road, (3) Marxism, and (4) the dictatorship of the proletariat. In general, the reform proceeded gradually. Deng developed all his reforms under the principle of "seeking the truth from the facts". According to the principle, the right approach should lead to economic growth. The implementation of successful economic reforms made China gradually richer. Often referred to as "Socialism with Chinese Characteristics", Deng Xiaoping's economic reforms aimed to modernize the Chinese economy by introducing market-oriented policies. Key aspects include decentralization of economic decision-making, openness to foreign investment, privatization of state-owned enterprises, and creation of special economic zones to attract foreign capital. As a result of these reforms, China entered the stage of economic development. One of the biggest economic reforms was marketization and private sector development. Peasants and farmers who suffered from Mao's reforms and were forced into communes began to own private land. Although private enterprises were under state control, the main ones were de facto private property. In 1978, at the beginning of the reform movement, there were no legally registered private enterprises, but by 1985 their number exceeded 10 million. In 1988, the Constitution of the People's Republic of China was amended to give legal status to private entrepreneurship. As a result of this reform, famine and poverty among the villagers was put an end.

In 1987, at the Plenary Session of the National People's Congress, he put forward three steps that correspond to China's economic development strategy in seven decades. The first step was to double the GDP of 1980 and provide enough food and

clothing for the people. This goal was achieved by the end of the 1980s. The second step was to quadruple the GDP of 1980 by the end of the 20th century. In 1995, this goal was achieved ahead of schedule. The third step is to raise the GDP per capita to the level of middle-developed countries by 2050. In this, the Chinese people will be sufficiently prosperous, and modernization will be largely carried out. Deng Xiaoping's social reforms aimed to improve living standards, education and health while maintaining political control. Some of these reforms included introducing a one-child policy to control population growth, expanding educational opportunities, and creating a basic health care system. However, political freedoms were limited. This led to the Tiananmen Square protests in 1989. The population demanded greater freedoms, but the demonstration was suppressed by government forces. Overall, although there was progress in some social areas, political freedoms remained limited under Deng's leadership. Deng Xiaoping's foreign policy reforms aimed to modernize China's international relations and promote economic development. One of the most important changes was the normalization of diplomatic relations with the United States in 1979, which helped open China to the world economy. Deng also pursued a policy of "peaceful coexistence" and non-interference in the internal affairs of other countries, actively seeking foreign investment and technology transfers to promote China's economic growth. In addition, Deng placed importance on maintaining sovereignty in areas such as Hong Kong and Taiwan. In 1997, he emphasized the importance of applying the "one country, two systems" approach to Hong Kong's return to Chinese rule. Officially, Deng decided to resign from the top positions in November 1989. Jiang Zemin took over the leadership of the party. However, China was still under Deng Xiaoping. He continued to be widely recognized as the country's de facto leader. In 1992, Deng was officially recognized as the "Chief Architect of China's Economic Reforms and China's Socialist Modernization." He broke the conventions of holding office for life. He was often referred to simply as Comrade Xiaoping, with no title attached. Deng died on February 19, 1997 at the age of 92 from a lung infection and Parkinson's disease. The public was largely prepared for his death, as rumors spread that his health was failing. At 10:00 a.m. on February 24, Prime Minister Li Peng asked people to observe three minutes of silence. The country's flags flew at half-mast for a week.

Deng Xiaoping's reforms were important for modern China. Economic growth was observed in China under his rule. As a result of successful reforms, the living conditions of the Chinese people have improved. The reforms have lifted 800 million people out of poverty. The well-being of the population was ensured by the introduction of a developed health care system and educational systems. The opening of China in foreign policy and the establishment of warm relations with the United

States of America stimulated the influx of many foreign investments into China. His political legacy was continued by subsequent Chinese leaders. This later brought China to the world stage as a global power.

REFERENCES

1. <https://www.cato.org/publications/chinas-post-1978-economic-development-entry-global-trading-system#socialist-market-economy>
2. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://en.m.wikipedia.org/wiki/Deng_Xiaoping&ved=2ahUKEwidubqY6OaFAxXWFxAIHVweC0QQFnoECB0QAQ&usg=AOvVaw2OZcIzkLZ7tCTavpghYvOS
3. <https://www.jri.co.jp/english/periodical/rim/1999/RIMe199904threereforms/>
4. <https://youtube.com/watch?v=IsoKONJBCto&si=DCSqPTDWarCv9M2o>

MAKTABGACHA TA'LIM TA'LIM TIZIMIDAGI RAHBAR XODIMLARINING ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL QILISH

Xoliqova Muazzamxon Arabjonovna

Andijon viloyati Izboskan tumani 2-son DMTT Direktori

Annatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rejalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqarishning yangi innovatsion usullari to'grisida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В данной статье управление и планирование организационного дошкольного образования рассматривается как одна из актуальных задач современности. В статье высказываются мнения о новых инновационных методах лидерства и управления в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: In this article, management and planning of pre-school education organizations is considered one of the urgent tasks of today. The article expresses opinions on new innovative methods of leadership and management in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: rahbar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, boshqaruv, ta'lim tizimi, metodik boshqarish, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: лидер, дошкольные образовательные организации, менеджмент, образовательная система, методическое руководство, инновационная деятельность, педагогический процесс.

Key words: leader, preschool educational organizations, management, educational system, methodical management, innovative activity, pedagogical process.

Rahbar xodimlarining zamonaviy boshqaruvi - bugungi zamonda tashkilotlar samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va xodimlar malakasini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu konsepsiya an'anaviy boshqaruv usullaridan farq qilgan holda zamonaviy texnologiyalar, yetakchilik madaniyati va xodimlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarga asoslanadi.

Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan direktorlarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir. Hozirga qadar maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy faoliyati pedagog va psixologlarning tadqiqot predmeti bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagogining o'ziga xosliklari, yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olishi kabilarda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani direktorning qo'yilgan talablarga qanchalik darajada javob bera olishi belgilaydi.

Zamonaviy boshqaruvning asosiy tamoyillari:

✚ **Stratejik fikrlash va qaror qabul qilish:** Rahbar xodimlar tashkilot maqsadlarini uzoq muddatli strategiyalar asosida belgilab, bu jarayonda ma'lumotlarni tahlil qilish va innovatsion yechimlarni qabul qilishga e'tibor qaratishadi.

✚ **Xodimlarni jalb qilish va rivojlantirish:** Zamonaviy boshqaruvda xodimlarning qobiliyatlari va motivatsiyasini oshirish, ularga malaka oshirish va liderlik imkoniyatlarini taqdim etish muhim ahamiyatga ega.

✚ **Texnologiyalardan samarali foydalanish:** Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va boshqa ilg'or texnologiyalar boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va ma'lumot asosida qaror qabul qilishga yordam beradi.

✚ **Jamoaviy ishlash:** Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, muhitda sog'lom jamoa ruhiyatini yaratish va turli fikrlarni birlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish.

✚ **Barqarorlik va moslashuvchanlik:** Rahbarlar bozor o'zgarishlariga tezkor moslashish va tashkilotning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga e'tibor qaratishadi.

Zamonaviy boshqaruvning afzalliklari:

- Tashkilot samaradorligini oshirish.
- Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish.
- Xodimlar qoniqishini oshirish va ularning malakasini doimiy ravishda rivojlantirish.
- Bozor o'zgarishlariga moslashuvchan bo'lish.

Rahbar xodimlar zamonaviy boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirgan holda tashkilot faoliyatini yanada yuqori darajaga olib chiqishi mumkin. Shu orqali ular nafaqat tashkilot ichida muvaffaqiyatga erishadi, balki jamiyatda ham ijobiy o'zgarishlarni amalga oshiradilar.

Jumladan, rahbarlarga ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi. **Boshqaruvning uch xil vositalari bo'lib,** brinchisi, tashkilot, boshqaruv ierarxiyasidir, Bu yerda asosiy vosita - bu odamga yuqoridan ta'sir qilish (faoliyatni rag'batlantirish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, shuningdek taqsimlashning asosiy funksiyalaridan foydalanish) boylik va boshqalar.). Ikkinchisi - boshqaruv madaniyati, bularga jamiyat, tashkilot, odamlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va tan olingan qadriyatlar, ijtimoiy normalar, munosabatlar, xatti-harakatlar majmuyi. Uchinchisi esa – bozor, bozor munosabatlari, bular. mahsulot va xizmatlarni

sotish va sotib olishga, sotuvchi va xaridor manfaatlari balansiga asoslangan boshqaruvdir.

Kuzatishlarimiz bugungi kunda maktabgacha ta'lim ta'lim tashkilotlarini ilmiy-metodik asosda boshqarishda:

- uzluksiz ta'lim bosqichlari orasida uzviylikning to'la ta'minlanmaganligi;
- rahbar kadrlarning kasbiy, ilmiy-metodik tayyorgarligi ta'lim mazmuni va uning metodik ta'minotidan orqada qolishi;
- aksariyat MTT direktorlari ijodiy va ijtimoiy faollik, g'oyaviy-siyosiy yetuklik talab darajasida emasligi;
- MTT direktorlari tayyorlash tizimining ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi,
- bu jarayonda zamonaviy pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga e'tibor berilmaslik kabi nuqsonlar mavjud ekanligi tasdiqdanmoqda.

Ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi bu ularning ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiymetodik tayyorgarligi, g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy yetukligidan iborat. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari bir-birini to'ldiradi, o'zaro uzviy ravishda shakllanib, rivojlanadi, rahbarning mazkur tarkibiy qismlar bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari pedagogik faoliyatda qo'llaniladi. Shu sababli MTT direktorlarining ilmiy-metodik tayyorgarligi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida asosiy o'rinni egallaydi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining tamoyillaridan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish hamda rahbarlik faoliyatini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozigi tez o'zgarayotgan bir davrda MTT boshqaruv kadrlari har tomonlama intellektual salohiyatli, o'z faoliyatiga jiddiy qaraydigan, har bir bajarayotgan vazifasiga ijodiy yondashadigan rahbar sifatida faoliyat olib borishini davrning o'zi taqozo etmoqda. Chunki, rahbarning teran tafakkuri va keng dunyoqarashi, zamon talabiga javob beradigan, pedagogika, psixologiya, boshqaruv ilmidan xabardorligi, ijodiy fazilat va xislatlarga, iymon-e'tiqodga, muomala madaniyatiga ega, ijtimoiy faol, tashkilotchi va tadbirkorligi u boshqarayotgan ta'lim tashkilotining kelgusidagi samarali faoliyatini belgilaydi. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish va uni isloh qilish vazifalarini belgilashda uning sifatini ta'minlash masalalari ustuvor o'rin tutadi. Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatini rejalashtirishning o'zi ham bir qator tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi.

Jumladan:

- ✚ strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar, oylik vazifalar) rejalarning ustivorligi va ustunligi.
- ✚ strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo'naltirilganligi.
- ✚ rejalashtirish obektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularning muhimligi bo'yicha ajratish.
- ✚ rejalarning mavjud moddiy shart-sharoitlarga mosligi.

Ular orasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim.

- ❖ sogʻliqni saqlash texnologiyalari;
- ❖ loyiha faoliyati bilan bogʻliq texnologiyalar;
- ❖ loyiha faoliyatida qoʻllaniladigan texnologiyalar;
- ❖ axborot –kommunikatsiya texnologiyalari;
- ❖ har bir shaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyalar (shaxsga yoʻnaltirilgan);
- ❖ oʻyin texnologiyalari deb ataladi.

Har bir rahbar oʻz maktabgacha taʼlim muassasasini rivojlantirishning asosiy maqsadlarini belgilab, pedagogik jamoa bilan birgalikda butun pedagogik jarayonni tashkil qiladi, yaʼni u doimiy ravishda olingan natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan taqqoslaydi. Bu vaziyat boʻyicha aniq natijalar uchun tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Natijaga asoslangan boshqaruv, dastlab jamoaga maqsadga erishish uchun barcha resurslar bilan taʼminlangan haqiqiy berilgan deb taxmin qilanadi. Bunday resurslarga odamlar, vaqt, moliya, moddiy-texnika bazasi, texnologiyalar, usullar va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshqaruvchi va boshqariluvchi oʻrtasidagi oʻzaro hurmat, samimiy munosabatlar taʼlim samaradorligini oshirishda muhim oʻrin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyundagi PQ-5144-son qarori.
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpoʻlatova, N.M.Kayumova, M.N.Aʼzamova Maktabgacha pedagogika T-“Maʼnaviyat” 2018y.
3. Tretyakov P.I. "Maktabgacha taʼlim muassasasi: natijalarga koʻra pedagogik jarayonni boshqarish", M., UTs "Perspektiva", 2010y.
4. Рахматуллаева, П. М., & Махкамova, М. А. (2022). Yoshlar taʼlim sifatini oshirishda motivatsiyaning oʻrni yoxud ulkan maqsadlar sari dastlabki qadam. Central Asian Research Journal
5. Karimova N.Q “Maktabgacha taʼlim muassalari boshqaruvining dolzarb muammolari”3-4B(2021)

RAQAMLASHTIRISH MUHITIDA TA'LIM JARAYONINI PLATFORMALAR ORQALI BOSHQARISH

Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 11-son
DMTT direktori*

Annotatsiya: Maqola ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonlariga qo'shish va o'rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan turli konsepsiyalar, nazariyalar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Zamon talablariga mos platformalar bilan ishlash va ularning imkoniyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические основы цифровизации образования, различные концепции, теории и подходы, направленные на внедрение современных технологий в образовательные процессы и повышение эффективности обучения. Дана информация о работе с современными платформами и их возможностях.

Abstract: The article includes the theoretical foundations of digitalization of education, various concepts, theories and approaches aimed at adding modern technologies to educational processes and improving learning efficiency. Information about working with modern platforms and their capabilities is given.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, platforma, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim muassasalari, bolalar bog'chasi tizimi, bolalar, pedagoglar.

Ключевые слова: цифровизация, платформа, современные технологии, образовательные учреждения, система детских садов, дети, педагоги.

Key words: digitalization, platform, modern technologies, educational institutions, kindergarten system, children, pedagogues.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim va malaka oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar rivojlantirilmoqda. Bundan tashqari xalqaro hamkorlar bilan birgalikda ta'lim sohasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, jumladan bog'chalarni qayta qurish, ta'mirlash, pedagoglarning malakasini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim tizimidagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

"Bolalik akademiyasi" o'quv platformasi 3–6 yoshli bolalar va ularning otalari hamda pedagoglar uchun mo'ljallangan

Platforma bolalar va ularing ota-onalari hamda pedagoglar uchun mo'ljallangan, bo'lib unda bolalar savodxonlik, hisoblash va ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi o'yinlarni o'ynashlari, o'z ona tillaridagi elektron kitoblarni o'qishlari mumkin. Bundan tashqari, o'quv-ko'ngilochar videolarni tomosha qilish va yoshga mos kutubxonadan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud. UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzadening so'zlariga ko'ra, "Bolalik akademiyasi" o'quv platformasi 3–6 yoshli bolalarning tarbiyachilari va ota-onalari o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishlariga imkon yaratadi.

Ma'lumot uchun, Learning Passport UNICEF va Microsoft hamkorligida



yaratilgan bo'lib, u moslashuvchan raqamli o'quv platforma hisoblanadi. Hozir platforma butun dunyo bo'ylab millionlab bolalarning o'qishini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilmoqda. UNICEF Maktabgacha ta'lim vazirligi va "Bilim Makon" axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi bilan birga Learning Passport "Bolalik Akademiyasi" raqamli platformasini ishga tushirdi. Platforma O'zbekistonda maktabgacha ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ushbu texnologik innovatsion g'oya butun mamlakat bo'ylab bolalarga maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnashi yoki qatnamasligidan qat'i nazar, yuqori sifatli o'quv resurslaridan foydalanish imkonini beradi.

AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) va YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda ta'lim sohasidagi loyihalarni qo'llab quvvatlamodalar. Raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, pedagoglar va ota onalarga uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish kutilmoqda. Bu borada ta'limni raqamlashtirishning konseptual asoslariga alohida urg'u berishimiz talab etiladi. Endi "Konseptual" so'zi konsept yoki tushuncha bilan bog'liq narsalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so'z asosan, g'oyalar, tamoyillar, qarashlar yoki nazariyalarni anglatishda qo'llaniladi.

Konseptual tahlil yoki konseptual loyihalash kabi ibo'alarda, bu so'z muayyan bir mavzuni yoki loyihani tushunish va ishlab chiqishning asosiy g'oyaviy yoki nazariy jihatlar bilan shug'ullanishni bildiradi. Konseptual yondashuv, shuningdek, muammolarni hal qilishda yoki yangi g'oyalar yaratishda asosiy tushunchalar va tamoyillarga urg'u berishni anglatishi mumkin.

Quyidagi imkoniyatlarni beradi:

➤ Raqamlashtirishning asosiy qadami analog shakldagi ma'lumotlarni (masalan, qog'ozdagi yozuvlar, foto suratlar yoki tovush yozuvlari) raqamli ko'rinishga

o'g'irishdir. Bu jarayon skanerlash, digitalizatsiya yoki raqamli yozish orqali amalga oshiriladi.

➤ Raqamli ma'lumotlar ustida turli xil ishlov berish amallari bajarilishi mumkin, masalan, tahrirlash, filtrlash, saralash, matematik hisob-kitoblar va boshqalar. Bu jarayonlar dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi.

➤ Raqamli ma'lumotlarni himoya qilish muhimdir. Bu maqsadda shifrlash, parollar, elektron imzolar va boshqa xavfsizlik texnologiyalari qo'llaniladi.

➤ Audio, video va boshqa turdagi signalarni raqamlashtirish va ular ustida turli xil ishlov berish (masalan, tahrirlash, kompressiya, shovqinlarni kamaytirish) signalni ishlov berish sohasiga kiradi.

Ta'lim muassasalarida raqamlashtirishning ahamiyati va zarurati, jamiyatda va ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarning tobora keng tarqalishi bilan bevosita bog'liqdir. Raqamlashtirish, ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va moslashuvchan qilish orqali bola va pedagog o'rtasidagi o'qitish va o'rganish jarayonini tubdan o'zgartirishi mumkin. Quyida ta'lim muassasalarida raqamlashtirishning asosiy ahamiyati va zarurati haqida batafsilroq to'xtalamiz:

MASALAN: “Bolalar bog‘chasi” axborot tizimi imkoniyatlari bilan tanishish.



Maktabgacha ta'lim vazirligining 2022 yil 18-yanvardagi “Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimini takomillashtirilgan yangi talqinini ishga tushirish hamda uzluksiz faoliyatini ta'minlash to'g'risida”gi 7- sonli buyrug'i asosida 2022-yil yanvar oyidan elektron dasturda o'zgarish kiritilib, yangi

Bolalar bog'chasi axborot tizimi ishga tushirildi.

Bolalar bog'chasi tizimiga kirish uchun brauzer orqali www.bbit.uz manzili orqali kiriladi.

“Bolalar bog'chasi” axborot tizimi API (Dasturlash interfeysi) orqali Maktabgacha ta'lim vazirligi sayti <http://mdo.uz/directory> va Yagona davlat xizmatlari portali <https://my.gov.uz> ga bog'langan. Tuman maktabgacha ta'lim bo'limlari yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlari “Bolalar bog'chasi” tizimiga kiritgan ma'lumotlar bir zumda tizim bilan bog'liq saytlarda paydo bo'ladi. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vositlari rolini multimedialar, godoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi tarbiyalanuvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniye

orqali berib borilgan online darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi.

“Bolalar bog‘chasi” dasturining amaliyotga tatbiq etilishdan maqsadi:

- ✚ Korrupsiyani yo‘q qilish.
- ✚ Qog‘ozbozlikning oldini olish.
- ✚ Markazlashgan avtomatlashtirilgan tizimga o‘tish.
- ✚ Statistik ma'lumotlarning to‘g‘riligini ta'minlash

“Bolalar bog‘chasi” dasturining vazifalari:

- ✚ Ota-onalar farzandlarini onlayn navbatga qo'yish va joylashtirish.
- ✚ MTTlarga tarbiyalanuvchilarni onlayn qabul qilish.
- ✚ MTTlar faoliyatini nazorat qilish.

Ta'lim muassasalarida raqamlashtirishning ahamiyati va zarurati, shu bilan birga, rahbarlarning raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini oshirish, infrastrukturani modernizatsiya qilish va talabalar uchun raqamli ta'lim resurslarini ta'minlash kabi qator tashkiliy va texnik masalalarni hal qilishni talab qiladi. Umumiy qilib aytganda, ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari, ta'lim sohasida texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonlarini boyitish va o'rganish tajribalarini yaxshilash yo'llarini taqdim etadi. Bu nazariyalar, ta'lim muassasalari va tarbiyalanuvchilarning o'rganish jarayonlarini qanday qilib zamonaviy, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilish borasida yo'naltiruvchi asoslar beradi.

Xulosalar.

✚ Internet orqali ta'lim resurslariga kirish imkoniyati ta'limni geografik cheklovlardan ozod qiladi. Masofaviy ta'lim dasturlari orqali tinglovchilarr istalgan joyda o'z bilimlarini oshirishlari mumkin.

✚ Raqamlashtirish ta'lim muassasalariga o'quv materiallarini nashr etish va tarqatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, bu esa ta'limni yanada qulay va arzon qiladi.

✚ Raqamlashtirish tinlovchilarning individualligini hisobga olgan holda ta'lim berish imkonini beradi. Masalan, elektron ta'lim platformalari tinglovchilarning o'zlashtirish tezligi va qiziqishlariga qarab, moslashtirilgan ta'lim materiallari taqdim etishi mumkin.

✚ Tarbiyalanuvchilarni online ro'yxatga qo'yish ota-onalarga qulaylik yaratish.

✚ Tarbiyalanuvchilarni guruhdan guruhga olishdagi imkoniyatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. <https://daryo.uz/2021/07/13/shavkat-mirziyoyev-raqamli-texnologiyalarni-joriy-etish-choratadbirlariga-oid-taqdimot-bilan-tanishdi>.
2. Muammoli ta'limning nazariy asoslari haqida ma'lumot. (abiturtest.uz)
3. Ally, M. (2008). Foundations of educational theory for online learning. In T. Anderson & F. Elloumi (Eds.), Theory and practice of online learning. Athabasca University. http://cde.athabascau.ca/online_book/pdf/TPOL_book.pdf. Zugriffen am 28.05.2019.
4. Shukurov Vasliddin Sobirjon o'g'li. IQTISODIY SOHALARNING RIVOJLANISHIDA INTERNET TEXNOLOGIYALARINING O'RNINI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 2023. <https://sbtsuejournals.uz/index.php/EFI/article/view/98>
5. Shukurov Vasliddin Sobirjon o'g'li. Iqtisodiyot fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Engineering problems and innovations, 2023. <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/189>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING IMKONIYATLARI

Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani

11-son DMTT direktori

Annotatsiya. Maqolada raqamli axborot texnologiyalari haqida qisqacha tushunchalar, raqamli axborot texnologiya vositalari, raqamli axborot texnologiyalardan foydalanish usullari va imkoniyatlari kabi muhim amallar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о важных видах деятельности, таких как краткие понятия о цифровых информационных технологиях, инструментах цифровых информационных технологий, методах и возможностях использования цифровых информационных технологий.

Abstract. The article provides information on important activities such as brief concepts of digital information technology, digital information technology tools, methods and possibilities for using digital information technology.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar, ta'lim, LCD prorektor, interaktiv elektron doska, faks modem, multimedia vositalari, mashg'ulotlar, kompyuter.

Ключевые слова. Цифровые технологии, образование, ЖК проректор, интерактивная электронная доска, факс-модем, мультимедийные средства, обучение, компьютер.

Keywords. Digital technologies, education, LCD vice-rector, interactive electronic board, fax modem, multimedia tools, training, computer.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning

maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida: ¹Raqamli iqtisodiyotga o'tish eng ustuvor maqsadimiz bo'lishi barobarida bevosita ilm-ma'rifatni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, bugungi tezkor zamonda raqamli iqtisodiyot ilg'or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida keng joriy etilmoqda. Hatto, ayrim mamlakatlar sun'iy intellektdan faol foydalanishga o'tganiga guvoh bo'lyapmiz.



Raqamli texnologiya bu –ta'lim yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi

avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot yetishtirish va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalardan foydalanish uchun:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini texnologik infratuzilma bilan ta'minlash.
- bolalar uchun maxsus trening va seminarlarni tashkil qilish.
- Bolalar uchun texnologiyadan foydalanish vaqtini nazorat qilishni yo'lga qo'yish.

Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish orqali bolalarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli, samarali va mazmunli bo'ladi.

Raqamli axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, video ko'z, videokamera, LCD prorektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

MTTlarda raqamli axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, bolalarni mashg'ulotlarga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- berilayotgan materialni chuqur va mukammal o'zlashtirish imkoniyati va uni ta'lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi va zarur bo'lganda amaliyotga qo'llash darajasi ortadi;
- axborotni turli shaklda (matn, video, ovoz, grafika, animatsiya ,...) berilishi ta'lim oluvchilarni diqqatini tortadi va ularni fanga qiziqishini uyg'otadi;
- kompyuter "nazoratchi" funksiyasini bajarib ta'lim oluvchining didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatlarga bergan javoblarini, ya'ni o'zlashtirganlik darajasini aniqlab natijalarini monitorda ko'rsatadi;
- dars jarayonida ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqaruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi va bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni keskin ortadi, buning natijasida egallanishi lozim bo'lgan bilimlar hajmining oshishiga olib keladi;
- o'quv mashg'ulotining tarkibiy tuzilishini modifikatsiyalash, ya'ni pedagog tomonidan bajarilayotgan ko'pgina tashkiliy ishlarni kompyuter texnikasi yordamida amalga oshirilib vaqt tanqisligi muammosi kamayadi;
- Ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanib, mustaqil ta'lim olish imkoniyati sohalari kengayadi va o'qituvchi bilan erkin hamda teng muloqotga kirisha oladigan hamkorga aylanadi.

Umumiy maqsadli amaliy dasturiy ta'minot — soha mutaxassisi bo'lgan foydalanuvchi axborot texnologiyasini qo'llaganda uning ishiga yordam beruvchi ko'plab dasturlarni o'z ichiga oladi. Bular:

- kompyuterlarda ma'lumotlar bazasini tashkil etish va saqlashni ta'minlovchi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT);
- matnli hujjatlarni avtomatik ravishda loyihalashtiruvchi, ularni tegishli holatda rasmiylashtiruvchi va chop etuvchi matn muharrirlari;

- grafik muharrirlar;
- hisoblashlar uchun qulay muhitni ta'minlovchi elektron jadvallar;
- taqdimot qilish vositalari, ya'ni tasvirlar hosil qilish, ularni ekranda namoyish etish, slydlar, animatsiya, filmlar tayyorlashga mo'ljallangan maxsus dasturlar.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar**➤ Moliyaviy cheklovlar**

Ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy texnologiyalarni sotib olish imkoniyatiga ega emas.

➤ Kadrlar tayyorlash

O'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni samarali qo'llashga tayyorligi past bo'lishi mumkin.

➤ Texnologiyaga qaramlik xavfi

Bolalarda ekran bilan bog'liq faollikni me'yorda saqlash va ularni jismoniy faoliyat bilan muvozanatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati.

1. Mamarajabov M., Tursunov S. Kompyuter grafikasi va Web dizayn. darslik. – T.: «Cho'lpon», 2013.
2. Yuldashev U., Mamarajabov M., Tursunov S. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma – T.: "Voriz", 2013.
3. Aripov M., Fayziyeva M., Dottoyev S. Web-texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.; "Faylasuflar jamiyati", 2013
4. D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017-y.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN NUTQ KAMCHILIKLARIDA OLIB BORILADIGAN KORREKSION-LOGOPEDIK ISH

Usmonxodjayeva Nargiza

Kimyo xalqoro universiteti

Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq kamchiliklarini tuzatish uchun olib boriladigan korreksion-logopedik ishning ahamiyati va usullarini o'rganadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarda nutq rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi, chunki bu davrda nutqiy ko'nikmalar shakllanadi va mustahkamlanadi. Maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarida eng ko'p uchraydigan fonetik, leksik, grammatik va sintaktik nutq kamchiliklari, shuningdek, ijtimoiy muloqotdagi muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutq kamchiliklari, korreksion-logopedik ish, fonetik kamchiliklar, grammatik xatolar, semantik o'yinlar, muloqot ko'nikmalari, nutq rivojlanishi, logopedik mashqlar, ijtimoiy muloqot, pedagogik yondashuvlar, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalari, ota-onalar bilan hamkorlik.

Аннотация: Данная статья исследует важность и методы коррекционно-логопедической работы по устранению речевых нарушений у учеников начальных классов. Начальный этап обучения является важным периодом для развития речи у детей, так как в этот период формируются и укрепляются речевые навыки. В статье рассматриваются наиболее распространенные фонетические, лексические, грамматические и синтаксические речевые нарушения у учащихся начальных классов, а также проблемы, связанные с социальным общением.

Ключевые слова: речевые нарушения, коррекционно-логопедическая работа, фонетические нарушения, грамматические ошибки, семантические игры, коммуникативные навыки, развитие речи, логопедические упражнения, социальное общение, педагогические подходы, речевые навыки учеников.

Abstract: This article explores the importance and methods of corrective-logopedic work aimed at addressing speech deficiencies in primary school students. The primary education stage is a critical period for speech development, as it is during this time that language skills are formed and consolidated. The article examines the most common phonetic, lexical, grammatical, and syntactic speech impairments in primary school children, as well as issues related to social communication.

Keywords: speech impairments, corrective-logopedic work, phonetic errors, grammatical mistakes, semantic games, communication skills, speech development, logopedic exercises, social communication, pedagogical approaches, students' speech skills.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqi, ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu davrda bolalar nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallashadi. Nutqning to'g'ri shakllanishi, o'quvchilarning fikrlarini to'g'ri ifodalash, o'qish va yozish jarayonlarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Biroq, boshlang'ich sinfda ko'plab o'quvchilar nutqdagi kamchiliklarga duch keladilar, bu esa ta'lim jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Nutqdagi kamchiliklar o'z vaqtida aniqlanib, to'g'ri korreksion-logopedik ish olib borilsa, bu bolaning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq kamchiliklari turlicha bo'lishi mumkin.

Ularning asosiy turlarini quyidagicha ajratish mumkin:

1. Fonetik kamchiliklar: Bu turdagi kamchiliklarda bola so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. Masalan, "r" harfini aytishda qiyinchiliklar, tovushlarni aniq talaffuz qila olmaslik (masalan, "s" tovushini "sh" qilib aytish) kabi muammolar mavjud.

2. So'zlashuv kamchiliklari: Bu turdagi kamchiliklarda bola so'zlarni va gaplarni noto'g'ri quradi. Bu o'quvchilarda grammatik xatolar, so'zlarning o'rnini yoki shaklini noto'g'ri ishlatish kuzatiladi. Misol uchun, "Men kitobni o'qishga ketdim" o'rniga "Men kitob o'qishga ketdim" kabi xatolar.

3. Semantik kamchiliklar: Bu holatlarda bola so'zlarni noto'g'ri tushunadi yoki ularga noto'g'ri ma'no beradi. O'quvchilar yangi so'zlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

4. Sintaktik kamchiliklar: Bola jumlar tuzishda va gaplarni to'g'ri shakllantirishda xatolarga yo'l qo'yadi. Misol uchun, bolalar o'z fikrlarini noto'g'ri ifodalaydi yoki ularni chalkashtiradilar.

5. Pragmatik kamchiliklar: Bola muloqotda noaniq yoki noto'g'ri so'zlashishi mumkin, bu esa ijtimoiy muloqotda muammolarni keltirib chiqaradi.

Nutq kamchiliklarini to'g'rilash uchun logopedik korreksiya zarurdir.

Korreksion-logopedik ishning asosiy maqsadi - bolalardagi nutq kamchiliklarini bartaraf etish va ularning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdir. Bu jarayonda logopedlar turli usullar va texnikalardan foydalangan holda, bolalarning nutqiy va muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga harakat qiladilar. Korreksion-logopedik ishning vazifalari quyidagicha aniqlanishi mumkin:

1. Nutqiy kamchiliklarni aniqlash va tahlil qilish:

- Bolada fonetik, grammatik, leksik yoki sintaktik nutq kamchiliklarining mavjudligini aniqlash.
- Nutqdagi xatolarni chuqur tahlil qilish va ularning sabablarini o'rganish.

2. Fonetik rivojlanishni tiklash:

- Bola nutqida talaffuzdagi xatolarni tuzatish, masalan, tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish.
- Fonetik mashqlar orqali bolaning tovushlarni aniq aytish ko'nikmalarini rivojlantirish.

3. Grammatik va sintaktik xatolarni bartaraf etish:

- Bola grammatik qoidalarni o'rganishi va ularni to'g'ri ishlatishni o'zlashtirishi uchun maxsus mashqlar va o'yinlar o'tkazish.
- So'zlarni va jummalarni to'g'ri tuzishni o'rgatish.

4. Leksik va semantik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash:

- Bolalarga yangi so'zlarni o'rgatish va so'z boyligini oshirish.
- So'zlarning ma'nolarini to'g'ri tushunish va ular bilan to'g'ri ishlatishni o'rgatish.

5. Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish:

- Bolalarga ijtimoiy muloqotda foydalaniladigan so'zlar va ifodalarni o'rgatish.
- Muloqotda do'stona va to'g'ri munosabatlar o'rnatish, suhbatlarni to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish.

6. Nutqiy faollikni rag'batlantirish:

- Bola nutqida faollik va o'zini ifodalashni rivojlantirish.
- O'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun hikoya qilish, o'yinlar va suhbatlar o'tkazish.

7. Aqliy va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash:

- Nutqning rivojlanishida aqliy va hissiy holatlarning rolini hisobga olish, bolalarni erkin va ishonchli nutq qilishga o'rgatish.
- Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va nutqni qulay va tabiiy holatda ifodalashni ta'minlash.

8. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish:

- Ota-onalar bilan muntazam ravishda hamkorlik qilish, ularni bolalarining nutqiy rivojlanishiga oid masalalarda xabardor qilish.
- Ota-onalarni logopedik mashqlar va muloqotda faol ishtirok etishga rag'batlantirish.

9. Pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash:

- O'quvchilarning nutq kamchiliklariga psixologik yondashuvlar orqali yengil nafas olishlarini ta'minlash.

- Nutqni rivojlantirish jarayonida bolaning psixologik holatini inobatga olish.

10. Individual va guruhli mashqlarni tashkil etish:

- Har bir bolaning individual nutq rivojlanishiga qarab maxsus mashqlar tashkil etish.
- Guruhli o'yinlar va mashqlar orqali o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Korreksion-logopedik ishning vazifalari bolalar nutqining har jihatdan rivojlanishini ta'minlash va ularni o'zaro muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etishga o'rgatishga qaratilgan.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan nutq kamchiliklarini to'g'rilashda korreksion-logopedik ish muhim o'rin tutadi. Bu ish bolalarning nutqiy rivojlanishini va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Nutq kamchiliklarini aniqlash va ularni samarali tuzatish uchun mutaxassislar tomonidan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarurdir. O'quvchilarga doimiy ravishda muloqot qilish, o'yinlar va mashqlar orqali nutqni rivojlantirish ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimova S. Logopediya va nutq rivoji: boshlang'ich ta'limda nutq kamchiliklarini bartaraf etish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Tursunova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni rivojlantirish: korreksion-logopedik yondashuvlar. Tashkent: Pedagogika nashriyoti.
3. Toshpulatova A. Logopedik yordam va nutq kamchiliklarini bartaraf etish: boshlang'ich sinf o'quvchilarida tajriba. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Abdukarimova X. Boshlang'ich ta'limda nutqiy rivojlanish: o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.

ALALIYA BOLALAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH*Kimyo xalqoro universiteti**Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi****Muxammadsalimova Gulasalbonu Najmiddin qizi***

Annotatsiya: Mazkur maqola alaliya bilan ogʻrigan bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish masalasini yoritadi. Alaliya – bu nutq rivojlanishidagi kechikish yoki nuqson boʻlib, bolalarda tilni tushunish va ifodalashda qiyinchiliklarga olib keladi. Maqolada alaliya turlari (ekspressiv va receptiv alaliya) va ularning bolalar bilish faoliyatiga taʼsiri koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: alaliya, bolalar, bilish faoliyati, nutq rivojlanishi, ekspressiv alaliya, receptiv alaliya, logopedik mashqlar, pedagogik yondashuvlar, muloqot koʻnikmalari, interaktiv metodlar, oʻqitish, nutqiy koʻnikmalar, atrof-muhitni anglash, kognitiv rivojlanish.

Аннотация: Данная статья освещает вопрос развития познавательной деятельности детей с алалией. Алалия — это задержка или нарушение развития речи, приводящее к трудностям в понимании и выражении языка. В статье рассматриваются виды алалии (экспрессивная и рецептивная алалия) и их влияние на познавательную деятельность детей.

Ключевые слова: алалия, дети, познавательная деятельность, развитие речи, экспрессивная алалия, рецептивная алалия, логопедические упражнения, педагогические подходы, коммуникативные навыки, интерактивные методы, обучение, речевые навыки, восприятие окружающего мира, когнитивное развитие.

Abstract: This article addresses the issue of developing cognitive activity in children with alalia. Alalia is a delay or disorder in speech development, leading to difficulties in understanding and expressing language. The article explores the types of alalia (expressive and receptive alalia) and their impact on children's cognitive development.

Keywords: alalia, children, cognitive activity, speech development, expressive alalia, receptive alalia, speech therapy exercises, pedagogical approaches, communication skills, interactive methods, teaching, speech skills, perception of the environment, cognitive development.

Alaliya – bu bolalarning nutq rivojlanishidagi anomaliya boʻlib, u nutqning rivojlanishida kechikish yoki nuqsonning paydo boʻlishi sifatida ifodalanadi. Alaliya bilan ogʻrigan bolalar odatda nutqni tushunishda yoki ifodalashda qiyinchiliklarga

duch keladilar. Bu holatning turli shakllari mavjud bo'lib, ular bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim to'siqlarni yaratadi. Nutq va bilish faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'lanish alaliya bilan og'rigan bolalarda yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu maqolada alaliya turlari, uning bilish faoliyatiga ta'siri va alaliya bo'lgan bolalar bilan samarali pedagogik ishlash yo'llari ko'rib chiqiladi.

Alaliya ikki asosiy turga bo'linadi: ekspressiv alaliya va receptiv alaliya.

Har ikki tur alaliya bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo ular turli jihatdan farqlanadi.

1. Ekspressiv alaliya — bu turda bola o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladi. U so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi, jummalarni noto'g'ri tuzadi yoki so'zlashda aniq bo'lmagan javoblar beradi. Bunday bolalar fikrlarini uzluksiz ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladi, shu sababli muloqot jarayonida ular ko'pincha ajralib qoladilar. Ekspressiv alaliya bolalarining nutqiy qobiliyatlari rivojlanishida kechikish kuzatiladi.

2. Receptiv alaliya — bu holatda bola boshqa odamlarning nutqini to'g'ri tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bola so'zlarni, jummalarni va mantiqiy bog'liqliklarni tushunishda qiyinchiliklarga yuz tutadi. Bunday bolalar o'z fikrlarini to'g'ri ifodalashda noqulaylik sezmasalar ham, ular boshqalar bilan samarali muloqotda bo'lishda muammolarga duch keladilar. Bu turdagi alaliya bolalar o'z atrofidagi dunyoni to'g'ri idrok eta olmaydi, natijada bilish faoliyati kechikadi.

Bilish faoliyati, insonning atrof-muhitni anglash, tushunish, o'rganish va unga javob qaytarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Nutq va bilish faoliyatlari bir-biri bilan chuqur bog'langan bo'lib, nutq o'zini ifodalash, tushunish va idrok etish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Alaliya bilan og'rigan bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishi bir nechta sabablarga ko'ra to'siqlarga duch keladi:

- *Nutqning rivojlanishida kechikish:* Alaliya bolalarda nutq va tilni o'rganish jarayoni kechikadi. Nutqni tushunish va ifodalashda qiyinchiliklar bo'lgani sababli, bu bolalar o'z fikrlarini aniq va to'g'ri bayon eta olmaydilar. Shu sababli, ular o'rganish jarayonida ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar.

- *Muloqotdagi muammolar:* Nutqni tushunish va ifodalashdagi qiyinchiliklar, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalariga ta'sir qiladi. Bu bolalar o'z fikrlarini boshqalarga tushunarli tarzda etkaza olmaydi, natijada ular ijtimoiy aloqalar va o'zaro munosabatlar o'rnatishda muammolarga duch keladilar.

- *Idrok etishdagi muammolar:* Alaliya bilan og'rigan bolalar atrof-muhitni to'g'ri anglashda ham qiyinchiliklarga duch keladilar. Tushunishdagi kamchiliklar bolalar tomonidan olgan yangi bilimlarni saqlash va ishlatishda to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Alaliya bilan og'rigan bolalarda bilish faoliyatini rivojlantirish usullari

Alaliya bilan ogʻrigan bolalar bilan ishlashda maxsus pedagogik yondashuvlar talab qilinadi. Nutq rivojlanishi uchun samarali metod va usullarni qoʻllash, ularning bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida alaliya bolalar bilan ishlashda qoʻllaniladigan baʼzi samarali metodlar koʻrsatilgan:

1. *Logopedik mashqlar*: Logopedlar bolalar bilan tilni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar oʻtkazadilar. Fonetik mashqlar yordamida bolalar tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganadilar, grammatik va sintaktik mashqlar yordamida esa toʻgʻri jumlar tuzishni oʻrganadilar. Bu mashqlar bolalarning nutq va til koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali yordam beradi.

2. *Interaktiv oʻyinlar*: Oʻyinlar bolalar uchun juda samarali oʻqitish vositasi hisoblanadi.

Interaktiv oʻyinlar, bolalarga muloqot qilishni, soʻzlash va tushunishni oʻrgatishda yordam beradi. Oʻyinlar yordamida bolalar nutqiy faoliyatda faollashadilar, shuningdek, ijtimoiy koʻnikmalarini ham rivojlantiradilar.

3. *Jumla qurish va hikoya qilish mashqlari*: Bola soʻzlarni toʻgʻri ishlatish va mantiqiy jumlar qurish orqali nutqni rivojlantiradi. Hikoya qilish mashqlari bolalarni nutqni uzluksiz ravishda ifodalashga oʻrgatadi.

4. *Vizual va eshitish materiallardan foydalanish*: Alaliya bolalar bilan ishlashda vizual va eshitish materiallarini qoʻllash samarali usuldir. Suratlar, plakatlar, video materiallar va musiqa yordamida bolalarning soʻzlash va tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish mumkin.

5. *Individual yondashuv*: Har bir bola oʻzining alohida rivojlanish xususiyatlariga ega. Shuning uchun, alaliya bilan ogʻrigan bolalar bilan individual yondashuvni amalga oshirish muhimdir. Bu, ularning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olib, eng samarali rivojlanish yoʻllarini topishga yordam beradi.

6. *Ota-onalar bilan hamkorlik*: Ota-onalar bilan doimiy aloqada boʻlish, bolalarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Ota-onalar, bolalarga uyda qoʻshimcha mashqlar bajarish, oʻyinlar oʻynash va muloqotda boʻlish orqali ularning bilish faoliyatini rivojlantirishda ishtirok etishlari mumkin.

Xulosa

Alaliya bolalar bilan ishlashda nutq rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash uchun pedagogik va logopedik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Alaliya bolalarda bilish faoliyatining rivojlanishiga toʻsquinlik qiluvchi omillarni yengish uchun, samarali metodlar va usullarni qoʻllash zarur. Bu jarayonda logopedlar, oʻqituvchilar va ota-onalar oʻrtasida samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish, bolalarning rivojlanishini taʼminlashda katta ahamiyatga ega. Nutq va bilish faoliyatini rivojlantirish orqali alaliya bilan ogʻrigan bolalar ijtimoiy muhitda faol ishtirok eta oladilar va oʻzlarining kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarini yaxshilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatullaeva N. X. Alaliya bilan ogʻrigan bolalar uchun logopedik yondashuvlar. Toshkent: Oʻzbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Muzafarkhanova N. B. Logopediya va alaliya: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
3. Shonazarova R. B. Bolalar nutqini rivojlantirish va uning bilish faoliyatiga taʼsiri. Tashkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti.
4. Zeynalova M. A. Bilish faoliyati va nutqning oʻzaro bogʻliqligi. Tashkent: Oʻzbekiston pedagogik ilmiy-tehnologik markazi.
5. Vasilenko N. V. Receptiv va ekspressiv alaliya boʻyicha logopedik yordam. Moskva: Oliy pedagogika nashriyoti.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIALOGIK NUTQ SHAKLLARINI SHAKLLANTIRISH

Kimyo xalqoro universiteti
Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy usullarini o'rganadi. Maktabgacha yosh – bu bolalar nutqining rivojlanishi uchun juda muhim davr bo'lib, aynan shu davrda ular boshqalar bilan o'zaro muloqot qilish, o'z fikrlarini aniq ifodalash va tinglash ko'nikmalarini o'rganadilar. Maqolada, dialogik nutqning mohiyati, uning bolalar uchun ahamiyati va rivojlanish jarayoni batafsil tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, bolalar nutqi, dialogik nutq, nutq rivojlanishi, til ko'nikmalari, savol-javob o'yinlari, teatr o'yinlari, ijtimoiy ko'nikmalar, til pedagogikasi, tilni o'rganish, interaktiv faoliyatlar, o'yin orqali muloqot.

Аннотация: Данная статья исследует теоретические основы и практические методы формирования диалогической речи у детей дошкольного возраста. Период дошкольного возраста является важным этапом в развитии речи, когда дети начинают осваивать умения общения с другими людьми, чётко выражать свои мысли и развивать навыки слушания. В статье подробно рассмотрены сущность диалогической речи, её значение для детей и процесс её развития.

Ключевые слова: дошкольный возраст, речь детей, диалогическая речь, развитие речи, речевые навыки, игры-вопросы и ответы, беседы, театральные игры, социальные навыки, педагогика языка, изучение языка, интерактивные занятия, общение через игры.

Abstract: This article explores the theoretical foundations and practical methods for developing dialogic speech in preschool-aged children. The preschool years are a critical period for speech development, during which children learn to communicate with others, express their thoughts clearly, and develop listening skills. The article provides a detailed explanation of the essence of dialogic speech, its significance for children, and the process of its development.

Keywords: preschool age, children's speech, dialogic speech, speech development, communication, question-and-answer games, conversations, theater games, social skills, language pedagogy, language learning, interactive activities, communication through play.

Nutqning rivojlanishi har bir bolaning intellektual va psixologik taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutq faqatgina tilni o‘rganish jarayoni emas, balki jamiyat bilan aloqada bo‘lishning, fikrini ifodalashning, his-tuyg‘ularini izhor etishning asosi sifatida shakllanadi. Bu davrda bolalar ko‘pincha o‘z fikrlarini ifodalay olish, boshqalar bilan muloqotda bo‘lish uchun o‘z nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuning uchun, maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirish alohida e‘tibor talab etadi.

Dialogik nutq - bu ikki yoki undan ortiq shaxsning o‘zaro muloqoti orqali rivojlanadigan nutq turi bo‘lib, unda bir tomonning gapirishi va boshqa tomonning javob berishi doimiy ravishda almashtib turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun dialogik nutqning shakllanishi, o‘z navbatida, ular o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalash, boshqalarning fikrlarini tinglash, savollar berish va javob olish kabi ko‘nikmalarni egallashlariga yordam beradi.

Maktabgacha yoshda bolalar muloqotga kirishishda, o‘z fikrlarini tushunarli va to‘g‘ri ifodalashda ko‘p o‘rganishlari kerak. Bu jarayon bolalarning so‘z boyligini oshirishga, eshitish va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, jamiyat bilan aloqani yaxshilashga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish ularning o‘z-o‘zini ifodalash, ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishda va ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Dialogik nutq bolalarda bir nechta muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

- Tinglash va tushunish qobiliyati: Dialogik nutqda bolalar nafaqat gapirish, balki boshqalarning fikrlarini tinglash va ularga mos ravishda javob berishadi. Bu esa ularning eshitish qobiliyatini va boshqa odamlarning fikrini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

- O‘zaro munosabatlar va muloqot: Dialogik nutq orqali bolalar boshqalar bilan samarali va to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rganadilar. Bu ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

- Fikrlarni ifodalash va tuzish: Dialogik nutq bolalarga o‘z fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi, shuningdek, o‘zgaruvchan muloqot sharoitlariga moslashish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

- So‘z boyligini oshirish: Suhbat jarayonida yangi so‘zlar va iboralar o‘rganiladi. Bolalar yangi leksik birliklarni o‘zaro muloqotda qo‘llash orqali so‘z boyligini kengaytiradilar.

Dialogik nutqni shakllantirishning asosiy metod va vositalari

1. Savol-javob o‘yinlari

Bolalar uchun savol-javob o‘yinlari juda samarali metoddir. O‘yin davomida bola savollar berib, ularga javoblar olish orqali muloqotning asosiy qoidalarini o‘rganadi. Masalan, tarbiyachi bolaga “Nima qilishni xohlaysiz?” deb savol beradi va bola o‘z

fikrini aytadi, keyin tarbiyachi uning javobini o'zgartirib, bolani yanada kengroq va to'liqroq javob berishga undaydi.

2. Tayyorlangan suhbatlar

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan tayyorlangan suhbatlar ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, bolaga tanish mavzular bo'yicha, oddiy savollar berish va uning javoblari asosida mavzuni davom ettirish orqali nutqni rivojlantirish mumkin.

3. Teatr va dramatizatsiya o'yinlari

Bolalarni turli obrazlarda muloqotga kirishishga o'rgatish, ularning dialogik nutqini rivojlantirishda juda samarali usul hisoblanadi. Teatr o'yinlari va dramatizatsiya jarayonida bolalar bir-biri bilan suhbatlashib, rollarni o'ynab, o'zaro fikr almashishadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning nutqini va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. Kitoblar va hikoyalar

Tarbiyachilar bolalarga o'qilayotgan kitoblar yoki hikoyalar asosida savollar berish orqali ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bolalar suhbatda mavzu bo'yicha fikr yuritish, savollarga javob berish va o'z fikrini boshqalarga izhor qilishda o'zlarini sinovdan o'tkazadilar.

5. O'yinlar orqali muloqot

O'yin - bu bolalar uchun o'zaro muloqotning eng tabiiy shaklidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin jarayonida muloqot qilish, fikr almashish, yangi so'zlar o'rganish va turli mavzularda suhbatlashish oson va qiziqarli bo'ladi. O'yinlar bolalarning nutq rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, oilaning roli beqiyosdir. Bolalar oilada o'z ota-onalari bilan doimiy muloqotda bo'lib, dialogik nutqni rivojlantirishda asosiy o'qituvchilaridir. Ota-onalar bolalariga savollar berib, ular bilan suhbatlashib, muhim nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Buning uchun ota-onalar bolalariga doimiy ravishda savollar berish, yangi mavzularda suhbatlar o'tkazish, muammolarni birgalikda hal qilish orqali ularning fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda turli metodlar, o'yinlar, suhbatlar va oilaviy muloqot orqali bolalarga muloqot qilishni o'rgatish zarur. Nutq rivojlanishi, bolalarning kelajakdagi jamiyatga qo'shilishida, o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni shakllantirishga e'tibor qaratish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov T. Pedagogik texnologiyalar va metodlar: maktabgacha ta'limda tilni o'rgatish. Tashkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
2. Xudoyberdiyev B. Maktabgacha ta'limda nutqiy rivojlanish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. Tursunova N. Bolalarda nutqni rivojlantirishda o'yin metodlari. Tashkent: Pedagogika nashriyoti.
4. Shodmonova M. Dialogik nutqning o'rni va ahamiyati maktabgacha ta'limda. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

DIZARTRIK BOLALAR SO'ZLASHUV NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KORREKSION-LOGOPEDIK TIZIM

Kimyo xalqoro universiteti
Logopediya yo'nalishi MSPD-1U talabasi
Mo'minova Elmiraxon Muxtorjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dizartriya diagnostikasi va davolashning zamonaviy usullari, shuningdek, bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion logopedik tizimlar tavsifi keltirilgan. Dizartriya — bu markaziy asab tizimi kasalliklari tufayli yuzaga keladigan nutq va harakat faoliyatining buzilishi. Maqolada dizatrik bolalarda so'zlashuvning rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun logopedik tizimning amaliyotdagi o'рни va samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Dizartriya, logopediya, korreksiya, nutq rivojlanishi, so'zlashuv, logopedik tizim, nutq mashqlari, harakat faoliyati

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы диагностики и лечения дизартрии, а также описание коррекционных логопедических систем для развития речи у детей. Дизартрия — это расстройство, вызванное нарушениями в центральной нервной системе, которое затрудняет речь и двигательные функции. В статье показана роль и эффективность логопедических систем в поддержке процесса развития речи у детей с дизартрией.

Ключевые слова: Дизартрия, логопедия, коррекция, развитие речи, речь, логопедическая система, речевые упражнения, двигательная активность.

Abstract: This article presents modern methods of diagnosing and treating dysarthria, along with a description of corrective logopedic systems aimed at developing speech in children. Dysarthria is a disorder resulting from damage to the central nervous system, affecting speech and motor functions. The article highlights the role and effectiveness of logopedic systems in supporting the speech development process in dysarthric children.

Keywords: Dysarthria, speech therapy, correction, speech development, logopedic system, speech exercises, motor activity.

Dizartriya — bu neyrologik kasallik bo'lib, unda bolalar so'zlashuv nutqining rivojlanishida buzilishlar yuzaga keladi. Buning natijasida, bolalarda motor nutqi (so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, ovoz chiqishi, artikulyatsiya) va tovushlarni to'g'ri joylashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Dizartriya bilan og'rikan bolalar nutqni shakllantirishda boshqa bolalarga qaraganda ko'proq yordamga muhtojdir. Shu

sababli, dizartriya bilan ogʻrigan bolalarning soʻzlashuv nutqini rivojlantirishda samarali korreksion-logopedik tizimni ishlab chiqish juda muhimdir. Ushbu maqolada dizartriya bilan ogʻrigan bolalarning nutqini rivojlantirish boʻyicha pedagogik yondashuvlar, metodlar va amaliy tizimlar tahlil qilinadi.

Dizartriya bolalar nutqining muayyan motor komponentlari buzilishlari bilan xarakterlanadi. Bu kasallik bolalarda tovushlarni talaffuz qilishda, ovoz balandligi va uzunligini boshqarishda, soʻzlarni aniq aytishda va intonatsiya xatoliklarida namoyon boʻladi. Dizartriya bolalar oʻrganadigan nutq soʻzlarini shakllantirish jarayonini kechiktiradi yoki murakkablashtiradi. Kasallikning darajasi va belgilari asosan miyaning shikastlanish joyi va darajasiga bogʻliq.

Dizartriya va nutq rivojlanishining kechikishi

Dizartrik bolalarda nutqning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi, lekin bu jarayon koʻpincha kechikadi. Buning sabablari quyidagilardan iborat:

- Ovoz chiqarishning buzilishi: Nutqning aniq va toʻgʻri talaffuzi dizartriyadan taʼsirlanadi, bu esa bolalar uchun soʻzlarni toʻgʻri va tushunarli shaklda ifodalashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.
- Motor funktsiyalarining zaifligi: Nutq organlarining motor faoliyatini boshqaruvchi mushaklarning zaifligi yoki notoʻgʻri ishlashiga qarab, bolalar nutq va harakatlarni integratsiya qilishda mushkulotlarga duch keladilar.
- Tinglash va sezgi qobiliyatining pasayishi: Dizartriya koʻpincha bolalarning tinglash va tovushni farqlash qobiliyatiga taʼsir qiladi, bu esa nutqni shakllantirish jarayonini kechiktiradi.

Logopedik yondashuvlar

Dizartriya bilan ogʻrigan bolalarda nutqni shakllantirish jarayonini tezlashtirish va takomillashtirish uchun turli logopedik usullar qoʻllaniladi. Ushbu yondashuvlar orasida:

- Nutq mashqlari: Nutq organlarini rivojlantirish va ularning harakatlarini yaxshilashga qaratilgan maxsus mashqlar. Bu mashqlar bolalarga tovushlar va soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrgatadi.
- Tinglash va eshitish mashqlari: Dizartriya bolalar uchun tovushlarni farqlash va ularni eshitishni rivojlantiruvchi mashqlar, nutq va tinglashni birlashtirishga yordam beradi.
- Vizual va motorli stimulyatsiya: Nutq organlarining ishlashini yaxshilash uchun bolalarga vizual va motorli yordam berish. Bu, ayniqsa, soʻzlarni toʻgʻri shakllantirishda yordam beradi.

Natijalar va rivojlanish

Dizartriya boʻlgan bolalar uchun nutqni rivojlantirish va soʻzlarni shakllantirish jarayonining kechikishi, lekin toʻgʻri logopedik yondashuvlar va davolash yordamida,

ko'p hollarda ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Davolash jarayonining samaradorligi bolaning yoshiga, dizartriyaning og'irligiga va logopedik yondashuvlarning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishning vazifalari

1. Tovush va harakatlarni boshqarishni rivojlantirish: Korreksion-logopedik ishning asosiy vazifalaridan biri dizartriya bilan og'rigan bolalarning tovush va harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini yaxshilashdir. Bu, bolalarga tovushlarni aniq talaffuz qilish, nutqni to'g'ri shakllantirish, so'zlarni to'g'ri joylashtirishga yordam beradi.

2. Artikulyatsiyani rivojlantirish: Dizartriya bilan og'rigan bolalarning artikulyatsiyasi (so'zlarni aniq aytish) to'liq yoki qisman buziladi. Bu masalada logoped tomonidan amalga oshiriladigan mashqlar yordamida til, lab, tish va boshqa organlarning harakatlarini rivojlantirish va yaxshilash muhimdir.

3. So'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish: Nutqning yadro komponentlaridan biri bo'lgan so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish dizartriya bilan og'rigan bolalarda alohida e'tibor talab qiladi. O'z fikrlarini aniq ifodalash, so'zlarni to'g'ri joylashtirish va muloqotga kirish uchun turli mashqlar, o'yinlar va interaktiv yondashuvlar qo'llaniladi.

4. Intonatsiyani yaxshilash: Dizartriya bilan og'rigan bolalarda intonatsiya (tovush balandligi, urg'u va pauzalar) buzilgan bo'ladi. Logopedik mashqlar orqali bolalarda intonatsion jihatlarni to'g'ri shakllantirishga yordam beriladi.

Korreksion-logopedik tizimning metodlari va yondashuvlari

Logopedik mashqlar va interaktiv o'yinlar: Dizartriya bilan og'rigan bolalar uchun maxsus logopedik mashqlar ishlab chiqiladi. Bu mashqlar orqali bolalar tovushlarni aniq aytish, artikulyatsiya apparatini rivojlantirish, muloqotga kirish, va nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beriladi. Interaktiv o'yinlar va rolli o'yinlar orqali bolalar bilan bevosita muloqotda bo'lish va nutqni to'g'ri ishlatish amaliyoti qo'llaniladi.

Artikulyatsion mashqlar: Dizartriya bilan og'rigan bolalar uchun qiyinchilik tug'diruvchi artikulyatsion mashqlar maxsus metodikalar asosida tayyorlanadi. Bu mashqlar lablar, til va jarrohlik organlarining harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tovushni boshqarish bo'yicha mashqlar: Tovushlarni boshqarish va ularni to'g'ri talaffuz qilishni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar orqali bolalarda tovushni nazorat qilish va boshqarish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Rivojlantiruvchi o'yinlar va amaliyotlar: Dizartriya bilan og'rigan bolalarga mo'ljallangan o'yinlar yordamida nutqni rivojlantirish jarayonini qiziqarli va samarali qilish mumkin. Masalan, maxsus semantik o'yinlar, xotira va fikrlashni rivojlantiruvchi o'yinlar, va hikoya qilishga asoslangan o'yinlar qo'llaniladi.

Individual va guruhli yondashuvlar: Dizatriya bilan ogʻrigan bolalarga individual yondashuv yordamida xususiy mashqlar va tuzatishlar beriladi.

Shuningdek, guruhli mashgʻulotlar orqali bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish, nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Dizatriya bilan ogʻrigan bolalar uchun samarali korreksion-logopedik tizimni ishlab chiqish, ular uchun nutq rivojlanishini yanada tezlashtirishga imkon yaratadi. Tizimga kiruvchi maxsus mashqlar, interaktiv metodlar va pedagogik yondashuvlar dizatriya bilan ogʻrigan bolalar uchun samarali yordam beradi. Nutqni rivojlantirishda oʻqituvchilar, logopedlar, va ota-onalar oʻrtasida doimiy hamkorlik va pedagogik qoʻllab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatullaeva N. X. Dizatriya bilan ogʻrigan bolalar uchun logopedik yondashuvlar. Toshkent: Oʻzbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Gafurova S. G. Dizatriya va uning tuzatish metodlari. Toshkent: Oʻzbekiston pedagogika nashriyoti.
3. Kadirova F. A. Dizatriya bilan ogʻrigan bolalar bilan logopedik ish. Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti.
4. Zeynalova M. A. Bolalar nutqini rivojlantirish va uning bilish faoliyatiga taʼsiri. Toshkent: Fan va texnologiya.

IMOM BUXORIYNING SAHIH ASARIDA KELGAN SULOSIYYOT HADISLAR

Abdullayev Olimjon

Samarqand viloyati hadis ilmi maktabi katta o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu ilmiy ish Imom Buxoriyning sahih asarida kelgan sanadi eng kam bo'lgan hadislarni o'zida jamlagan va bu hadislar asarning qaysi joyida va qaysi mavzularda kelganligini yoritib beradi.

Kalit so'z: Buxoriy, sahih, sihozi sitta, amirul mu'minin fil hadis, sulosiyyot, sahih to'plam.

Imom Buxoriyning "Sahih" asaridagi sulosiyyot hadislar soni 22 donani tashkil etadi. Takrorini olib tashlansa 16 tani tashkil etadi. Muhammad ibn Abduddoim (tav 831/1428), Ibn Hoj Hasan (tav 939/1533), Ali Qori (tav 1014/1606), Abdulbosit Rustam ibn Ali (tav 1223/1808) kabi ulamolar sulosiyyot hadislar borasida asarlar yozgan. Imom Buxoriy rivoyat qilgan sulosiyyot hadislarini ko'p qismi Makkiy ibn Ibrohimdan kelgan. Imom Buxoriyning asarida kelgan sulosiyyot hadislar Imom Buxoriyning "Sahih" asarini Dimashqda chop etilgan nusxasida kelgan tartib raqamlar bilan keltirildi.

Birinchi hadis "Nabiy alayhissalomga yolg'on to'qigan insonning gunohi" bobida kelgan, asarda 109-raqamda keltirilgan hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Ubayddan, u Salamadan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan. Sahih asaridagi ikkinchi sulosiyyot hadisi "Namoz o'quvchi va uni sutrasini orasida qancha masofa bo'lishi kerak" bobida kelgan 497-raqamdagi hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama roziyallohu anhudan qilgan rivoyati orqali kelgan.

Asarda uchinchi sulosiyy hadis "Ustunga qarab namoz o'qish" bobida kelgan, asarda 502-raqamda keltirilgan hadisdir¹.

Asardagi to'rtinchi sulosiyy hadis "Shom namozini vaqti" bobida kelgan hadis. Bu hadis asarda 561-raqamda keltiriladi. Hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salamadan qilgan rivoyati orqalik yetib kelgan. Beshinchi sulosiyyot hadisi asarda "Kishi kunduzi ro'za tutishni niyyat qilsa" bobi ostida kelgan, asardagi 1924-raqamdagi hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Abu Osimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan kelgan rivoyati orqali yetib kelgan².

¹ Shayx Alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sohihu-l-Buxoriy. – Dimashq: Muassasatu-r-risala nashirun. 2021. – B. 58.

² Ushbu asar.

Asardagi oltinchi sulosiyyot hadisi “Ashuro kunlarida ro‘za tutish” bobida kelgan. Bu hadis asarda 2007-raqam ostida keltirilgan. Hadisni Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohim rivoyat qilgan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva’dan rivoyat qilgan.

Yettinchi sulosiyyot hadisi asardagi “Boy insonga havola qilinsa u qaytarilmaydi” bobida keltirilgan hadis. Bu hadis asarda 2289-raqam ostida keltirilgan. Bu hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva’dan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan.

Sakkizinchi sulosiyyot hadisi asarda 2295-raqamda keltiriladi. Bu hadis “Kim bir mayyitni qarziga kafil bo‘lsa, u so‘zidan qayta olmaydi” bobida Abu Osimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva’dan rivoyat qilib keltirgan hadis³.

Asardagi to‘qqizinchi sulosiyyot hadisi “Xamr bor idishlar sindiriladimi, agar butlarni, yo cholg‘u asbobini, yo yog‘ochidan foydalanib bo‘lmaydigan narsani sindirsa” deb nomlangan bob ostida keltirilgan, asarda 2477-raqamda keltiriladigan hadisdir. Bu hadis Imom Buxoriyga Abu Osim Zahhok ibn Maxladdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva’dan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan. O‘ninchi sulosiyyot hadisi 2703-raqamda “Diyyada sulh qilish” bobi ostida keltirilgan hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Muhammad ibn Abdulloh Ansoriydan, u Humayddan, u Anasdan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan⁴.

O‘n birinchi sulosiyyot hadisi asarda “Urushda qochmaslikka bay‘at berish” bobidagi kelgan, asarda 2960-raqam ostida keltirilgan hadisdir. Bu hadis Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salamadan qilgan rivoyati orqali Imom Buxoriyga yetib kelgan. Asardagi o‘n ikkinchi sulosiyy hadisi “Dushmani ko‘rgan vaqtida baland ovozda insonlarga eshittirish uchun baqirgan inson” borasidagi bobda keltiriladi. Bu hadis asarda 3041-raqam ostida keladi, hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salamadan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan.

Asardagi o‘n uchinchi sulosiyyot hadisi “Rosulullohni sifatleri bobida kelgan, asardagi 3546-hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Isom ibn Xoliddan, u Hariz ibn Usmondan, u Abdulloh ibn Busrdan qilingan rivoyat orqali yetib kelgan. O‘n to‘rtinchi sulosiyy hadis Imom Buxoriyning “Sahih” asarida “Xaybar g‘azoti” bobida keltiriladi, hadis 4206-raqamda keladi. Bu hadis Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salamadan rivoyat qiladi⁵.

Asardagi o‘n beshinchi sulosiyyot hadisi “Rosululloh Usoma ibn Zaydni Juhaynadan bo‘lgan qabilaga yuborishi” bobida keltirilgan, asardagi 4272-hadis. Bu

³ Ushbu asarni 59-beti.

⁴ Ushbu asar.

⁵ Ushbu asar.

hadis Imom buxoriyga Abu Osim Zahhok ibn Maxladdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan qilingan rivoyat orqali yetib kelgan. Asardagi o'n oltinchi sulosiyyot hadisi tafsir kitobining "Qay tarafda bo'lsangiz ham yuzingizni masjidul-haromga qarating" bobi ostida kelgan hadisdir. Hadis asarda 4499-raqam ostida keltirilgan. Hadis Muhammad ibn Abdulloh Ansoriydan, u Humayddan, u Anas ibn molikdan rivoyat qilib keltirgan.

Asardagi o'n yettinchi sulosiyyot hadisi "Majusiyni idishi va o'limtik" bobi ostida keltirilgan hadis. Hadis asarda 5497-raqamda keltirilgan. Bu hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn abu Ubayddan, u Salama ibn akva'dan qilgan rivoyati orqli yetim kelgan.

Asardagi o'n sakkizinchi sulosiyyoti hadisi "yeyiladigan va zaxira qilib olib qo'yiladigan qurbonlik go'shtlari" bobida kelgan, asarda 5569-raqamda keltirilgan hadisdir. Bu hadis Imom buxoriyga Abu Osimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan.

Asardagi o'n to'qqizinchi sulosiyyot hadisi "O'zini xato tufaylik o'ltirgan insonga diyya lozim emas"ligi borasida kelgan bob ostida kelgan, asarda 6891-raqam ostidagi hadis. Bu Hadis Imom Buxoriyga Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan qilgan rivoyati orqali kelgan. Asardagi yigirmanchi sulosiyyot hadisi "Tish tish evaziga" bobida kelgan, asardagi 9894-hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Ansoriydan, u Humayddan, u Anas ibn Molikdan qilgan rivoyati orqalim yetib kelgan⁶.

Asardagi yigirma birinchi sulosiyyot hadisi "Ikki marta bay'at bergan kishi" bobi ostida kelgan, asardagi 7208-hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Abu Osimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan qilgan rivoyati orqali kelgan.

. Asardagi yigirma ikkinchi sulosiyyot hadisi "Allohdanda g'ayurroq biror narsa yo'q" bobida kelgan, asardagi 7421-hadis. Bu hadis Imom Buxoriyga Xollad ibn Yahyodan, u Iso ibn Tahmondan, u Anas ibn Molikdan qilgan rivoyati orqali yetib kelgan.

Imom Buxoriyni "Sahih asaridagi sulosiyyot hadisleri besh sanad orqali kelgan. Birinchi sanad Makkiy ibn Ibrohimdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan asardagi o'n bitta sulosiyyot hadisini rivoyat qilgan⁷.

Ikkinchi sanad Abu Osim Zahhok in maxladdan, u Yazid ibn Abu Ubayddan, u Salama ibn Akva'dan asardagi oltita sulosiyyot hadisi rivoyat qilingan. Uchunchi sanad Muhammad ibn Abdulloh Ansoriydan, u Humayddan, u Anas ibn molikdan asardagi uchta sulosiyyot hadisi rivoyat qilingan. To'rtinchi sanad Isom ibn Xoliddan, u Hariz ibn Usmondan, u Abdulloh ibn Busrdan sardagi bitta sulosiyyot hadisi riqvoyat

⁶ Ushbu asarni 60-beti.

⁷ Ushbu asar.

qilingan. Beshinchi sanad Xollad ibn Yahyodan, u Iso ibn Tohmondan, u Anas ibn molikdan asardagi bitta sulosiyyot hadisi rivoyat qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibn Saloh Abu Amr Usmon ibn Abdurrohman. Ulumul hadis. – Bayrut: Doru-l-fikr, 2018. – B. 280.
2. Hofiz Ahmad ibn ali ibn hajar Asqaloniy. An-nukat ala kitabi Ibn Saloh va nukati-l-iroqiy. – J: 1. – Madina: Doru-l- mirosi-n-nabaviy, 2022. – B. 580.
3. Hofiz Ahmad ibn Ali ibn Hajar. Hadyu-s-soriy muqoddimati fathu-l-boriy. – Pokiston: Maktabatu-r-robboniyya, 2020. – B. 469.
4. Abu Iso Muhammad ibn Iso. Sunanu-t-Termiziy. – Dimashq: Muassasatu-r-risala nashirun. 2022. – B. 465.
5. Shayx Alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sohihu-l-Buxoriy. – Dimashq: Muassasatu-r-risala nashirun. 2021. – B. 1080.
6. Imom Ibn Abu-l-Izz. Sharhu-l-aqidati-t-Tahoviyya. – J: 1. – Bayrut: Doru-l-kutubu-l-ilmiyya, – 2018. – B. 360.
7. Abdulmalik ibn Abdurrahmon Sa'diy. Sharhu Aqoid nasafiyya. – Ummon: Doru-n-nuri-l-mubin, 2016. – B. 304.
8. Shayxu-l-islom Abu Muoz Toriq ibn Avzulloh ibn Muhammad. Aqidatu ahli-s- sunna va-l-jamoa. – Riyoz: Doru-l-vaton, 2000. – B. 410.
9. Shamsiddin Zahabiy. Tajridu asmai-s-sahoba. 2 jild. – Bayrut: Doru-l-ma'rifat, 1995.

KATARAKTA KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Djumayeva Mahfuza Kayumovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining

Tibbiy kimyo kafedrası assistenti

Dmahfuza51@gmail.com

Haydarova Hulkar Axtamjon qizi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining

Tibbiy kimyo kafedrası assistenti

Hulkarhaydarova97@gmail.com

Rajabova Gulchiroy Rustam qizi

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining

Biotibbiyot fakulteti Farmatsiya (turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi

gulchiroyrajabova011@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ko'z gavharining xiralashishi natijasida ko'rish qobiliyatining pasayishi, ko'rishning xiralashishiga qanday omillar ta'siri tufayli yuzaga kelishi, kataraktaning rivojlanishi, shikastlanishlar, organizmning genetikasiga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: katarakta, katarakta turlari, ranglari, diagnostikasi, tug'ma kataraktalar, kataraktaning ertaroq rivojlanishiga sababchi bo'luvchi manbalar, operatsiyani qachon qilish kerak.

Katarakta tiqilmalardan paydo bo'ladigan kasallik bo'lib, u o'qyoysimon tabaqa teshigida, oqsilsimon suyuqlik bilan muguzsimon tabaqaning orasida turib qoladigan chet suyuqlik iborat. Suyuqlik narsalarning qorasini ko'zga tushushiga qarshilik qiladi. Katarakta miqdorda va kayfiyatda turlicha bo'ladi. Kataraktaning turlicha kayfiyatda bo'lishiga uning suyuq-quyuqligi turlicha bo'ladi: ba'zisi suyuq va tiniq bo'lib, nurni va quyoshni bekitmaydi, ba'zilari esa bunga teskari ya'ni quyuq bo'lib, nurni va quyoshni bekitadi.

Kataraktaning turlari: katarakta bir necha turga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega:

1. **Yadro kataraktasi:** Bu tur ko'pincha qarilikda uchraydi va ko'z linzasining markaziy qismini qoplaydi. Odatda, ko'zning ichki qismlari qattiqlashadi va ranglarga ta'sir qiladi - bemor sariq yoki jigarrang tusda ko'ra boshlaydi.

2. **Kortikal katarakta:** Bu tur ko'z linzasining chetlaridan boshlab rivojlanadi va o'ziga xos oq chiziqlar hosil qiladi.

3.Orqa kapsular katarakta:ko'z linzasining orqa qismida shakllanadi va nisbatan tez rivojlanadi.Bu turdagi katarakta yorug'lik sezgirligini oshiradi va o'qish yoki kompyuter bilan ishlashni qiyinlashtiradi.

4.Tug'ma katarakta:ba'zi bolalarda katarakta tug'ma ravishda bo'lishi mumkin, bu ona qornida rivojlanish paytidagi muammolar yoki irsiy omillar natijasida yuzaga keladi.

5.Ikki tomonlama katarakta:bu turdagi katarakta diabet, ko'z jarahotlari yoki boshqa kasalliklar natijasida shakllanishi mumkin.ba'zida uzoq vaqt davomida steroid dorilar qabul qilgan bemorlarda ham rivojlanishi kuzatiladi.

*Katarakta*ga rang jihatdan ,kataraktaning havorangligi, oq marvarid rangli,kamroq ko'kimtir va feruza rangga moyilligi uni davolashni imkoni borligini bildiradi.Uning ganch rangli,yashil,och sariq yoki kulrang sariq,quyuq qora va sariq ranglilarini kesib olish mumkin emas.

Katarakta belgilari:katarakta simptomlari quyidagilardan iborat;

- Ko'rish o'tkirligining pasayishi
- Ko'z oldida yengil oq pardava qora dog'lar
- Tasvirning buzilishi
- Predmetlarning ko'payib ketishi
- Yorqin yorug'likka, ayniqsa yorqin quyoshga yoki avtomobilni tungi vaqtda boshqarishda,yuqori sezuvchanlik
- Uzoqni ko'ra olmaslikning paydo bo'lishi yoki ortishi, bunda ko'zoynaklarni tez-tez almashtirish talab etiladi.

Sabablari

Katarakta ko'z gavhariga ta'sir qilib, uni xiralashtiradi va ko'rish o'tkirligini pasaytiradi.Kataraktaning asosiy sabablari quyidagicha:

- Irsiyat
- Keksalik
- Endokrin bezlardagi yallig'lanish jarayoni
- Ko'z jarahotlari va kasalliklari
- Ultrabinafsha yoki nurli nurlanishning uzoq muddatli ta'siri

- Zaharlanish
- Antioksidantlar tanqisligi

Kataraktaning o'zi tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma kataraktalarda loyqalanish qaysi qismdaligiga qarab oldingi va orqa qutub kataraktasiga kartikal kotarakta qavatma qavat katarakta va to'liq kataraktalarga ajratiladi. Tug'ma kataraktada o'ziga xos belgilari bo'ladi;

1. Ikkala ko'zda bir vaqtda paydo bo'ladi
2. Qonsistensiyasi yumshoq bo'ladi
3. Loyqalanish avj olmay bir xilda turadi

Tug'ma kataraktalarda-ko'z gavharining tug'ma yallig'lanish kasalligi hisoblanadi. Tug'ma katarakta bolalarda ko'rish organining barcha tug'ma nuqsonlari yarmidan ko'pini tashil etadi.

Hozirgacha yozilganlar barchasi bu keksalik bilan birga keladigan katarakta haqida edi. Har bir inson organizmi turlicha bo'lgani uchun katarakta ham turlicha rivojlanadi. Kimdadir 50 yoshda va yana kimdadir oshda yana nechadir yoshda rivojlanadi.

Kataraktani ertaroq rivojlanishiga sabab bo'luvchi omillar mavjud: qandli diabet, steroidlar bilan davolanish, chekish, turli xil ko'z kasalliklari, ultratovush nurlarga ko'p qarash [misol uchun qora ko'zoynak taqmaslik], ko'zga jarohat olish, nasliy moyillik va boshqalar sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari chaqaloqlar ham katarakta bilan tug'ilishi mumkin, lekin hamma chaqaloqlar ham bunaqa tug'ilmaydi.

Kataraktani operatsiya qilish: shox pardadagi tirqishlar o'rniga uni kattaroq o'lchamda kesish [5-7cm] orqali bajariladi, kataraktaning ekstrakapsulyar ekstraktsiyasi deyiladi. Bu usullar zamonaviy oftalmologiyada eskirgan hisoblansada ayrim asoratli holatlarda afzalroq. Katarakta operatsiyasi yaxshi bo'lishi uchun juda yuqori va amalyot har kuni ko'plab bemorlarda bajarilishi kerak. Har qaysi jarrohlik amaliyoti asoratli bo'lganidek bu operatsiyada ham asorat bo'lishi mumkin. Asoratlar yengil ya'ni bir necha kun davom etishi, yoki og'irroq bir necha yil yoki ko'rish qobilyatining butunlay yo'qolishigacha borishi mumkin. Operatsiya muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Operatsiya muvaffaqiyatli bo'lsa bemor operatsiya zalidan ko'zi ochiq holda chiqib ketishi mumkin. Odatda ko'zga bakteriya tushmasligi uchun ko'zni sterillangan doka yoki shunga o'xshash mato bilan 12-18 soatga yopib qo'yiladi va ertasi kuni yechib tashlanadi. Operatsiya yakunlab bo'lganidan keyin ko'zga hech qanaqa ukol kerakmas. Bakteriya tushmasligi va ko'z yallig'lanmasligi uchun ko'zga bir necha kun dori tomizilib yuriladi.

Davolash usullari: katarakta dastlabki bosqichlarida ko'rish ko'zoynaklar yoki linzalar yordamida vaqtincha yaxshilanishi mumkin. Biroq katarakta rivojlanib brogan sari faqat jarrohlik amaliyoti orqali davolash mumkin.

Fakoemulsifikatsiya-bu usulda ko'z gavhari maxsus ultratovush to'lqinlari bilan xiralashtiriladi va keyin chiqarib tashlanadi.

Suniy gavhar o'rnatish: olib tashlangan ko'z gavhario'rniga sun'iy linza o'rnatiladi.

Oldini olish choralari: quyoshdan himoya qiluvchi ko'zoynaklar taqish-bu ko'zlarni UV nurlanishdan himoya qiladi; sog'lom turmush tarziga rioya qilish- sog'lom ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish, chekish va alkogoldan voz kechish katarakta xavfini kamaytiradi.

Davriy ko'z tekshiruvlaridan o'tish: ayniqsa, 40 yoshdan oshgach, muntazam ko'z tekshiruvlaridan o'tish kataraktani aniqlash va nazorat qilish imkonini beradi

Xulosa: katarakta yosh o'tishi bilan bog'liq keng tarqalgan ko'z kasalligi bo'lib, uni davolash uchun zamonaviy va samarali usullar mavjud. Kasallikning belgilari paydo bo'lishi bilan darhol shifokorga murojaat qilish kerak, chunki erta tashxis va davolash ko'rishni saqlab qolish imkonini oshiradi. Ko'z sog'ligiga e'tibor berish, zararli odatlardan voz kechish va muntazam tekshiruvlar katarakta xavfini kamaytirishga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

Hamidova M.N..Ko'z kasalliklari, 2006, Zar-qalam-197-bet;
M.Khairallah, R.Bourne, H.Limburg, S.R.Fluxman. Number of people blind or Visually Impaired by Cataract Worldwide and in World Regions, 1990 to 2010// Investigative Ophthalmology & Visual Science. -2015-10.-T.56, vip.11.-s.6762-6769.-ISSN 1552-5783.-doi:10. Tashkent: Zar-qalam-198-bet. Abu Ali Ibn Sino "tib qonunlari" kitobi 2-nashr 75-76-bet 1167/iov.15-17201. Arxivirovano 12 marta 2018-yil. M.N.Hamidova. Tuman kataraktalar, 2006,.

RAXIT KASALLIGI VA UNING OLDINI OLISH CHORALARI

Djumayeva Mahfuza Kayumovna

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining
Tibbiy kimyo kafedrası assistenti, dmahfuza51@gmail.com*

Haydarova Hulkar Axtamjon qizi

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining
Tibbiy kimyo kafedrası assistenti, hulkarhaydarova97@gmail.com*

Safokulova Sevinch Aminjonovna

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining
Biotibbiyot fakulteti Farmatsiya turlari bo'yicha yo'nalishi talabasi
sevinchsafokulova@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola, raxit kasalligi va uning oldini olish choralari haqida bo'lib, bu maqola orqali bolalarda uchraydigan kasallik haqida to'liqroq va foydali ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: raxit, D vitamin, fosfor, kalsiy, Genetik omillar, Ichak kasalliklari va ichak mikroflorasi buzilishi, Neyroendokrin raxit, Suyak deformatsiyalari

Raxit - bu bolalarda uchraydigan va suyaklarning yumshashiga olib keluvchi kasallik. Bu kasallik D vitamin tanqisligi tufayli yuzaga keladi va suyaklar normal normal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan kalsiy va fosforning so'rilishiga to'siqlik qiladi. Raxit odatda, bir yoshgacha bo'lgan bolalarda ko'proq uchraydi. Chunki, bu yoshda suyaklarning o'sishi va rivojlanishi eng faol bo'ladi. D vitamin kalsiy va fosfor yetishmovchiligi sababli:

Raxitning sabablari:

1. D vitamin yetishmovchiligi: bolalar ko'p quyosh nuri olmaydigan joylarda yashasa, organizmda D vitamin yetarli darajada ishlab chiqarilmasligi mumkin. D vitamin, kalsiy va fosforning to'g'ri so'rilishini ta'minlaydi. U organizmga quyosh nuri orqali yoki ovqatlar orqali kiradi. D vitamin yetishmovchiligi quyosh nuri yetarli bo'lmagan joylarda to'g'ri ovqatlanmaslik yoki ba'zi kasalliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin.

2. Noto'g'ri ovqatlanish. Kalsiy va fosfor iste'mol qilinmasligi yoki D vitamin bilan boyitilmagan oziq-ovqatlar bilan ta'minlanish. Ba'zi odamlar, ayniqsa vegetarianlar, D vitamin bilan boyitilgan oziq-ovqatlarni (sut, tuxum, baliq, sabzavotlar) iste'mol qilmasligi mumkin. Shu bilan birga, D vitamin ozuqaviy qo'shimchalar orqali ham olinishi kerak.

3. Genetik omillar: ayrim genetik kasalliklar (masalan, raxitga moyil bo'lgan genetic sindromlar) yoki metabolic kasalliklar D vitaminining tanadagi rolini buzishi mumkin. Bunday holatlarda raxitni oldini olish va davolash yanada murakkabroq bo'ladi.

4. Ichak kasalliklari va ichak mikroflorasi buzilishi: D vitamin organizmda ichak orqali so'riladi. Agar ichakda yallig'lanish yoki boshqa kasalliklar mavjud bo'lsa, D vitamin so'rilishida muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Raxitning turlari:

1.Oshqozon-ichak tizimi bilan bog'liq raxit: bu turdagi raxit ichakda o'zgarishlar va yallig'lanishlar bilan bo'g'liq bo'ladi. Bu esa D vitaminining so'rilishiga to'siqlik qiladi.

2.Neyroendokrin raxit: ba'zi genetic omillar yoki endokrin tizimdagi muammolar natijasida D vitamin tanaga yetarlicha so'riladi.

3.Kengaytirilgan raxit: bu asosan, keksalar orasida uchraydi, D vitamin yetishmovchiligidan yoki suyaklar strukturasining zaiflashuvi bilan bog'liq. Keksalar uchun, raxit ko'proq osteoporozga olib kelishi mumkin

Raxitning belgilari:

Suyak deformatsiyalari: oyoqlar va qo'llarning "X" yoki "O" shaklida egilish.

Suyaklarning yumshashi: bosh suyaklarining va tizzalarining deformatsiyalashishi.

Mushaklarning zaifligi: D vitamin yetishmasligi suyaklar bilan birga mushaklar ham zaiflashishiga sabab bo'ladi.

Tishlarning kech chiqishi: tishlarning vaqtida chiqmasligi yoki yomon rivojlanishi.

Umumiy zaiflik va charchoq: sog'lom o'sish va rivojlanish uchun zarur ozuqaviy moddalarning yetishmasligi boralarda charchoqni kuchaytiradi.

Raxitni diagnostika qilish

Raxitni tashxislash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Qon tahlili: D vitamin , kalsiy va fofor darajalarini aniqlash. Agar D vitamin darajasi past bo'lsa, raxit ehtimoli yuqori bo'ladi.

2. Rentgen tasvirga olish: suyaklarning deformatsiyasi va yumshashi mavjudligini tekshirish uchun rentgen tasvirlari olinadi.

3. Boshqa testlar: suyaklar va ichakni tekshirish uchun qo'shimcha tahlillar va testlar talab qilinishi mumkin.

Davolash va profilaktika

1. D vitamin qo'shimchalari: D vitamin darajasini normallashtirish uchun maxsus qo'shimchalar tavsiya etiladi. D vitamin, kalsiy va fosfor birgalikda

organizmda to'g'ri so'rilishi uchun muhimdir. D vitamin bilan boyitilgan oziq-ovqatlar (sut, baliq, tuxum, sabzavotlar) ni ratsionga kiritish kerak.

2. Quyosh nuri: D vitamin ishlab chiqarilishi uchun quyosh nuri zarur. Har kuni kamida 15-20 daqiqa quyoshda bo'lish foydalidir. Biroq, quyoshdan haddan ortiq foydalanishdan ehtiyot bo'lish zarur.

3. Suyakni mustahkamlash mashqlari: o'zi-o'zini qo'llab-quvatlash va mushaklarni kuchaytirish uchun jismoniy mashqlar bajarish kerak. Bu suyaklarning to'g'ri rivojlanishini ta'minlaydi.

4. Oziqlanishi: kalsiyga boy oziq-ovqatlar (sut, pishloq, yong'oqlar, yashil bargli sabzavotlar)ni iste'mol qilish, raxitning oldini oldini olishda va davolashda yordam beradi.

Raxitning oldini olish

1. D vitamin va kalsiyga boy ovqatlar iste'mol qilish.
2. Quyoshda ko'proq vaqt o'tkazish, ayniqsa bolalik va homiladorlik davrida.

3. Tabbiy kuzatuv va testlar yordamida D vitamin darajasini tekshirish.

Xulola qilib aytganda, raxit- D vitamin yetishmasligi sabablikelib chiqadigan suyaklarning yumshashi va deformatsiyasi bilan tavsiflanadigan kasallik. U asosan bolalarda uchraydi va suyaklarning normal rivojlanishiga xalaqit beradi. Raxitning asosiy sabablari- quyosh nuri yetishmovchiligi, noto'g'ri ovqatlanish va ichak kasalliklari. Kasallik belgilari orasida suyaklarning egilishi, tishlarning kech chiqishi va umumiy zaiflik mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:

1. D vitamini va suyak kasalliklari haqida ilmiy maqolalar va tibbiy qo'llanmalar:

Holick, M. F. (2006). "High prevalence of vitamin D inadequacy and implications for health." Mayo Clinic Proceedings, 81(3), 353-373.

Pettifor, J. M. (2004). "Nutritional rickets: deficiency of vitamin D, calcium, or both?" The American Journal of Clinical Nutrition, 80(6), 1725S-1729S.

2. Tibbiy darsliklar va qo'llanmalar: Nelson Textbook of Pediatrics: Bu darslik pediatriya sohasidagi eng nufuzli kitoblardan biri bo'lib, unda raxitning sabablari, tashxisi va davolash usullari batafsil yoritilgan.

Kumar and Clark's Clinical Medicine: Ushbu kitob klinik amaliyotda raxit kabi kasalliklarning tahlili va davolash yondashuvlarini tushuntiradi.

3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tavsiyalari va maqolalari:

WHO (2008). "Vitamin D and calcium supplementation to prevent fractures and rickets: a systematic review and meta-analysis." World Health Organization.

4. Milliy Sog'liqni Saqlash Instituti (NIH) va boshqa sog'liqni saqlash tashkilotlarining resurslari: National Institutes of Health (NIH). Vitamin D Fact Sheet for Health Professionals.

SONLI KETMA-KETLIKLAR

Usipova Gulsanam Abduhalim qizi
Andijon Davlat Universiteti matematika fakulteti
Matematika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Sonli ketma-ketlik, chekli va cheksiz ketma ketliklar, ketma-ketlikning umumiy hadi, Sonli ketma-ketlikning berilish usulari, sonli ketma-ketliklarning turlari, kamayuvchi o'suvchi ketma –ketliklar, o'smaydigan ketma-ketlik, momoton ketma-ketlik, yuqoridan chegaralangan sonli ketma –ketlikning, quyidan chegaralangan sonli ketma- ketlik, chegarakangan ketma-ketliklar.

Kalit so'zlar: chekli va cheksiz ketma –ketlik, umumiy had, o'suvchi, kamayuvchi, o'smaydigan, monoton, yuqoridan chegaralangan, quyidan chegaralangan, chegaralangan.

Sonli ketma-ketlikni misolar yordamida tushuntirsak bolaning tushunishi osonroq bo'ladi. Agar shunday fo'rmulani berib shu kabi ifodalar sonli ketma-ketlik bo'ladi deb tushuntirsak bolani yodidan tez chiqib ketadi shu sababli misolar orqali tasvirlab hayotiy misol keltirgan holda tushintirish lozim.

Masalan.

1. Boshlang'ich sinfdan yuqori sinfgacha bo'lgan bolalarning yoshlari ketma-ketlika misol bo'la oladi,

2. Biz bilgan geometrik progresiya ham birinchi hadi $a=1$ va mahraji $q=2$ bo'lsa bu sonli ketma-ketlikdan iborat bo'ladi.

1, 2, 4, 8, 16, 32,

3. Birinchi hadi $a=1$ mahraji $q=-1$ bo'lgan geometrik progresiya ham bunga misol bo'la oladi.

1, -1, 1, -1, 1, -1,

Agar barcha naturool sonlar to'plamida aniqlangan funksiya bo'lsa bu cheksiz sonli ketma-ketlik deyiladi.

Sonli ketma-ketlikni tashkil qiluvchi sonlarning har birini ketma-ketlikning hadlari deyiladi.

Sonli ketma-ketlikning umumiy hadi deb shu ketma-ketlikni umumiy fo'rula bilan tasvirlangan funksiyaga aytiladi.

Masalan:

2, 4, 6, 8, 10, bo'lsa uning umumiy hadi $x=2n$ kabi belgilanadi.

Agar x_n sonli ketma ketlik uchun

$$x_1 < x_2 < x_3 < \dots < x_n < \dots$$

Bo'lsa ya'ni barcha n lar uchun $x_{n+1} > x_n$ tenglik bajarilsa ,bunday ketma-ketlik o'suvchi bo'ladi.

Misol: Toq sonlardan tuzilgan 1,3,5,7,... ketma-ketlik o'suvchidir.

Isbot: $x_n = 2n - 1, x_{n+1} = 2n + 1$ $n=(1,2,3,...)$ bo'lganligi uchun .

$$x_{n+1} - x_n = (2n + 1) - (2n - 1) = 2n + 1 - 2n + 1 = 2 > 0$$

Denak: $x_{n+1} - x_n > 0$ bo'lib , ixtiyoriy n nomer uchun berikgan ketma-ketlik o'suvchi bo'ladi.

Agar x_n sonli ketma –ketlik uchun

$$x_1 > x_2 > x_3 > \dots > x_n > \dots$$

Bo'lsa , ya'ni barcha n lar uchun (biror n dan boshlab bo'lsa ham) $x_{n+1} > x_n$ tengsizlik bajarilsa, bunday ketma-ketlik kamayuvchi ketma-ketlik deyiladi.

Agar x_n sonli ketma-ketlik uchun

$$x_1 \leq x_2 \leq x_3 \leq \dots \leq x_n \leq x_{n+1} \leq \dots$$

Bo'lsa, ya'ni barcha n lar uchun $x_{n+1} \leq x_n$ tenglik bajarilsa , bunday ketma-ketlik o'smaydigan ketma -ketlik deyiladi.

O'suvchi, kamayuvchi,o'smaydigan kamaymaydigan ketma-ketliklar monoton ketma-ketliklar deyiladi.

Har bir ketma-ketlik monoton bo'lavermaydi,

Masalan:quyida keltirilgan ketma-ketlik monoton bo'lmagan ketma –ketlikdir.

1,-1,1,-1,...

1,3,1,3,1,3,...

2,1,4,3,...

Agar ixtiyoriy n no'merlar uchun $x_n \leq M$ tengsizlik bajeilsa, u holda ketma-ketlik yuqoridan (M bilan) chegaralangan deyiladi.

Masalan:-1,-2,-3,-4,..., ketma-ketlik yuqoridan chegaralangan deyiladi .

Agar ixtiyoriy n nomer uchun $x_n \geq m$ tengsialik bajarilsa , u holda ketma –ketlik quyidan chegaralangan deyiladi.

Masalan: 1,2,3,4,..., ketma-ketlik quyidan chegaralangan deyiladi

Agar ketma –ketlik quyidan ham yuqoridan ham chegaralangan bo'lsa , u holda chegaralangan ketma-ketlik deyiladi.

Masalan: $x_n = \frac{(-1)^n}{n}$ ketma-ketlik chegaralangan ketma-ketlikdir. Chunki ixtiyoriy n nomer uchun

$$|x_n| = \left| \frac{(-1)^n}{n} \right| = \frac{1}{n} \leq 1$$

Agar x_n ketma-ketlik uchun n nomerning ixtiyoriy qiymatlarida $|x_n| \leq M$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi M son mavjud bo'lmasa, u holda x_n ketma-ketlik chegaralanmagan ketma-ketlik deyiladi.

Xulosa. Sonli ketma-ketliklarni matematik analiz kursida o'rganib chiqanmiz bunda sonli ketma-ketliklarni o'sishi, kamayishini, chekliligi cheksizligini bilib oldik, umumiy hadi fo'rmulasin qanday chiqarish to'g'risida monoton ketma-ketliklar, monoton bo'lmagan ketma-ketliklarni bilib oldik, quyidan chegaralangan, yuqoridan chegaralangan, chegaralangan ketma-ketliklar haqida ma'lumot berildi. Bu tuzgan maqolamni maktab matematik analiz kursida qo'lanilsa yaxshi bo'ladi, shunday holatlarni kutib qolaman.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi Andijon Davlat universiteti (A. Axlimirzayev) "Maktabda matematik analiz elementlari"
2. Azlarov. T. Mansurov. X. "Matematik analiz" 1995
3. Xikmatov. A. X., Turdulayev. T. "Matematik analiz" 1990
4. www.ziyonet.uz

ЭКСТРЕМИСТИК ВА ТЕРРОРИСТИК ФАОЛИЯТ - ТОМ МАЪНОДА ЖАҲОЛАТДИР

Худоёрова Ойсоат Келдиёровна

*Тошкент тиббиёт академияси, педагогика
фанлари номзоди, доцент*

Сайитмуратов Нодиржон Боймурот ўғли

*Тиббий профилактика ва жамоат саломатлиги,
Экология атроф муҳит муҳофазаси ва
кимё факультети 402-А гуруҳ талабаси*

Нуриддинова Шаҳзодахон Шамсиддин қизи

*Педиатрия, стоматология, халқ табobati ва
тиббий педагогика факультети
“Педиатрия” йўналиши 102-Б гуруҳ талабаси*

Аннотация: Мақолада экстремизм ва терроризм том маънода бузғунчи ғояларга асосланган жаҳолат эканлиги назарий жиҳатдан асосланган. Шунингдек, экстремистик ва террористик фаолиятнинг моҳияти илмий асосда ўрганилган. Энг муҳими терроризмга қарши ҳамиша ҳушёр ва огоҳ бўлиш ҳамда курашиш йўллари кўрсатилган.

Калит сўзлар: экстремизм ва терроризм, маънавий таҳдидлар, жаҳолат, бузғунчи ғоялар, қўрқитиш, даҳшат солиш, мудҳиш бало келтирувчи, хавф солувчи, хунрезлик, қабих, сиёсий мақсадларга эришувчи.

Диний экстремизм ва терроризм маънавий таҳдидларнинг бир тури бўлиб, мамлакатдаги тинчлик ва осойишталикни издан чиқаришга интилувчи, мавжуд конституцион тузумни ағдариб ташлашга даъват этувчи тажовузкор сиёсий фаолиятдир.

Ҳар қандай экстремистик ва террористик фаолиятнинг моҳияти ўзгалар устидан ҳукмронликка ёки мавжуд сиёсий-мафкуравий, ижтимоий-иқтисодий тартиботга қарши зўравонлик, даҳшат солиш, жисмоний куч ишлатиш орқали ўзларининг ғаразли мақсадларига эришишдан иборатдир. Шунинг учун ҳам экстремизм ва терроризм бутун жаҳон афкор оммаси, прогрессив кучлари томонидан қораланмоқда. Терроризм том маънода жаҳолатдир. Бузғунчи ғояларга асосланган халқаро терроризм ва унинг ҳар қандай кўриниши кишилиқ жамиятининг ўтмиши, бугунида ҳам халқлар бошига оғир кулфатлар ёғдирмоқда. Халқаро терроризмнинг ҳар қандай кўриниши инсоният тақдирига,

унинг тараққиёти ва истикболига жиддий хавф солаётган таҳдиддир. Унга қарши курашда ҳеч бир инсон четда қолмаслиги лозим.

Терроризмга қарши кураш йўлларида бири Президентимиз кўрсатиб берганидек “Одамларимиз авваломбор, ёшларимизнинг иймон-эътиқодини мустаҳкамлаш, иродасини бақувват қилиш, уларни ўзининг мустақил фикрига эга бўлган баркамол инсонлар этиб тарбиялаш, уларнинг тафаккурида ўзлигини унутмаслик, ота-боболарнинг муқаддас қадриятларини асраб-авайлаш ва ҳурмат қилиш фазилатини қарор топтириш, уларнинг мен ўзбек фарзандиман, деб ғурур ва ифтихор билан яшашига эришишдир”.¹

Инсоният учун тинчлик-осойишталик тенгсиз неъматдир. Осуда ҳаёт, яратувчан меҳнат, фаровонлик ва эзгу мақсадларнинг рўёбга чиқиши айнан шу неъматга боғлиқ.

Аммо азалдан инсон ҳаётига раҳна солувчи офатлар ҳам мавжуд бўлиб, улардан бири эса диний ақидапарастлик ва терроризмдир. Бу балою-офат ўтган асрнинг сўнгги ўн йиллиги ва XXI асрга келиб, ўзининг жирканч қиёфасини намоён эта бошлади.

Айни пайтда диний экстремизм, ақидапарастлик ва терроризм дунё аҳлининг хавфсизлигига жиддий таҳдид солаётгани кўпчиликка сир эмас. Ёвуз ниятли диний экстремистик ва террорчи оқимларнинг тарафдорлари халқимизнинг тинч-тотув ҳаётига раҳна солиб, ёшларни йўлдан оздиришга ҳаракат қилмоқдалар. Уларнинг бундай хатти-ҳаракатларини қонун ҳам қаттиқ қоралайди.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Жиноят Кодексининг тегишли моддаларида диний экстремистик, бошқа тақиқланган ташкилотлар тузиш, уларга раҳбарлик қилиш, уларда иштирок этганлик учун жиноий жавобгарлик белгиланган.

Бироқ ёвуз кучга бириккан жангариларнинг конституциявий тузумга қарши хуружлари ҳамда қабих ва разил тўдаларнинг уринишлари бизни ўз танлаган йўлимиздан чалғита олмайди. Давлатимиз айни пайтда диний экстремизм ва терроризмга қарши кураш борасида изчил сиёсат юритиб келмоқда. Диний экстремизм, терроризм ва конституцион тузумга тажовуз қилиш билан боғлиқ оғир ва ўта оғир жиноятларнинг олдини олишга жиддий эътибор берилмоқда.

Бу борада тарғибот-ташвиқот ишлари, оммавий ахборот воситаларидаги чиқишлар, мактаб, маҳалла, ота-оналар, ўқитувчи ва ўқувчилар иштирокида суҳбат ва учрашувлар, “Диний экстремизм ва терроризм – инсоният душмани” мавзуида йиғилишлар, профилактик тадбирлар ўтказилмоқда.

Бироқ, инсонийлик қиёфасини бутунлай йўқотган, тинч аҳолига жабр-ситам, ўлим таҳликасини солиб туриш жирканч муддаосига айланган қора

кучлар дунёнинг қайсидир бурчагида ҳали ҳам бор экан, ҳамиша хушёр ва огоҳ бўлишимиз, терроризмга қарши ҳамма баб-баравар курашиши керак.

Ҳар вақт, ҳар жойда – хоҳ кўчада, хоҳ транспортда, хоҳ одамлар гавжум тўпланадиган ҳудудларда ўта хушёр бўлайлик, огоҳликни бир дам бўшаштирмайлик. Шундагина террор балосидан ҳоли бўламиз. Бунинг учун аввало, террорчи ким эканлигини онгли англаб етиш зарур.

Террорчи ким?

- террор-(лотинча terror) - қўрқитиш, даҳшат солиш.
- мудҳиш бало келтирувчи, хавф солувчи, хунрезликни содир этувчи.
- совуқ сўз эгаси, жангари.
- инсонларга чоғ қазувчи ғаламис, вайронагарчиликни юзага келтирувчи жиноятчи газанда.
- миллати йўқ, қочоқ кимса.
- жаҳолат уруғини сочувчи.
- тили ва қўли билан инсонларга зарар етказувчи.
- талабалар қалбини овлаб, жоҳил жангариларга айлантирувчи, қабих, сиёсий мақсадларга эришувчи.
- яхшилик, эзгулик, инсонпарварлик туйғуси йўқ, инсонларнинг яшаш ҳуқуқини оёқости қилаётган муттаҳам, қора ниятли, нотўғри ҳаракатли.
- инсониятга зарар келтирувчи зўравон, ниқоб остидаги ёвуз қўпоровчи, носоғлом кучлар.
- инсонларни қўрқитувчи, саросимага солувчи, руҳиятига таъсир этувчи, зулм қилувчи, қотил, нафратга лойиқ, тажовузкор, дилозор, ўзлигини йўқотган, қўрқоқ, жоҳил кишилар.
- юрт тупроғини булғовчи ва хунрезликларни амалга оширувчи, ер юзида ёвузлик қилувчи, одам ўлдириб қон тўкувчи, ноҳақ кимсалар.
- демократик жараёнларга салбий таъсир кўрсатувчи, жаҳолат уруғини сочувчи, ёвуз ғоялар билан заҳарловчилардир.

Маълумки, инсонларни имонли, эътиқодли, виждонли, ҳалол, пок, меҳроқибатли қилиш - мамлакатимиз сиёсатининг асоси ҳисобланади. Лекин инсоларни хусусан, ёшларни кимларгадир қарам бўлишини истайдиган маккор ва қўпоровчи кучлар, кимсалар мавжуд. Улар ёшларимизни ўз иғволари домига тортиш йўли билан ўз қора ниятларини амалга оширишга интиломқдалар. Бунга йўл қўйиб бўлмайди. Бунинг учун барча хушёр бўлиши зарур. Бунда ота-оналаримиз, улуғларимиз, маҳалла оқсоқолларимизнинг кўмаги беқиёс бўлади.

Тинч ва фаровон ҳаёт — ҳар бир инсоннинг олий мақсади. Ватанни

севган одамгина мукаммал имон соҳибидир. Шуни унутмайликки, дунёга донг таратган Исмоил Бухорий, Ҳаким Термизий, Аҳмад Фарғоний, Муҳаммад Хоразмий, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Амир Темур, Улуғбек, Алишер Навоий каби сиймоларнинг ворислари сифатида халқимизнинг маънавий камолоти, тинч ва фаровон ҳаёти учун жавобгармиз.

Маънавий ҳаётимизда уйғониш юз берди. Тарихни тикладик. Она тилимизни англадик. Улуғ боболаримиз руҳини шод этдик. Абдулла Қодирий, Чўлпон, Фитрат, Усмон Носир сингари халқ жигарбандларининг номи, иззат-икроми, ҳурмати ўз жойига қўйилди.

Удумларимиз, қадриятларимизга қайтдик. Юртимизга Наврўз кириб келди. Рамазон, Қурбон ҳайитларига етдик.

Ошкоралик, демократия йўлида дадил қадамлар қўйдик. Бир сўз билан айтганда, ўзлигимизни англадик. Аниқроқ қилиб айтсак, ўзлигимизга қайтдик.

Ўзбекистоннинг куч-қудрати манбаи — халқимизнинг умуминсоний қадриятларга содиқлигидир. Халқимиз адолат, тенглик, аҳил қўшничилик ва инсонпарварликнинг нозик куртакларини асрлар оша авайлаб-асраб келмоқда.

Инсонпарварлик — бу ўзбек халқи миллий руҳиятининг ажралмас фазилатидир. Шафқатсизлик ва зўравонлик унинг табиатига ётдир. Юксак маънавий бурчлар кеча ёки бугун ўйлаб топилган эмас. Улар инсониятнинг минг йиллик тарихи, ота-боболаримизнинг неча-неча авлодлари тажрибаси давомида юзага келган.

Ўзбекистон — келажаги буюк давлат. Бу — мустақил, демократик ҳуқуқий давлатдир. Бу — инсонпарварлик қоидаларига асосланган, миллати, дини, ижтимоий аҳволи, сиёсий эътиқодларидан қатъи назар, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаб берадиган давлатдир.

Халқимиз адолат, тенглик, аҳил қўшничилик ва инсонпарварликнинг нозик куртакларини асрлар оша авайлаб-асраб келмоқда. Ўзбекистонни янгилашнинг олий мақсади ана шу анъаналарни қайта тиклаш, уларга янги мазмун бағишлаш, заминимизда тинчлик ва демократия, фаровонлик, маданият, виждон эркинлиги ва ҳар бир кишини камол топтиришга эришиш учун зарур шарт-шароит яратишдир.

Инсон эътиқодсиз, имонсиз яшай олмайди. Чунки комил ва собит эътиқод жамият маънавий қиёфасини белгилайди.

Биз чексиз шукроналик билан айтамизки, она Ватанимиз Аллоҳнинг назари тушган ана шундай муқаддас диёрдир.

Юртнинг муқаддаслиги нима билан белгиланади?

Бутун умрини имон ва эътиқод, ватанпарварлик ва инсонпарварлик, поклик ва ҳалоллик, илм ва маърифат, адолат ва диёнат йўлида фидо этган зотларнинг мўътабар хоклари макон топган замингина муқаддасдир. Агар шундай инсонлар бўлмаса, улар даҳосининг нафаси сезилиб турмаса, ҳар қандай замин оддий тупроқ бўлиб қолаверади.

Халқимизнинг минг йиллик тарихини, бугунги маънавий ҳаётини, дину диёнатимизни мухтасар ифодалаб айтиш мумкинки, Аллоҳ бизнинг қалбимизда, юрагимизда.

Ҳар қандай пок ниятли инсон эрталаб туриб Аллоҳдан аввало бир нарса сўрайди: эй Худо, бизларга тинчлик-осойишталик ва омонликни, Ўзбекистонимизнинг омадини бер, деб илтижо қилади. Ҳалол яшайдиган, юртини севадиган одам албатта шундай эзгу тилак қилади. Айниқса инсонларнинг қилаётган эзгу ва саховатли ишларини эшитганда, "Савоб ишни ҳар ким қилиши керак, савоб ишни ҳар кун қилиш керак" деган даъват минг-минглаб юртдошларимизнинг қалбида акс-садо бераётганини кўрганда одам беихтиёр тўлқинланиб кетади.

Барчамизга яхши аёнки, эл-юрт манфаати йўлида қилинган савобли ишлар ҳеч қачон беиз кетмайди. Бундай ишлар Яратганимизга ҳам, халқимизга ҳам хуш келади.

Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев "Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз", - деб таъкидлайди¹.

1. Ш.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент. "Ўзбекистон". 2016. 14-бет.

Ёшларимизга шундай таълим-тарбия беришимиз керакки, улар нафақат маънавий меросимизни ўрганибгина қолмасдан, ўзларининг илмлари билан мамлакатни янада ривожлантиришлари жоиздир. Шу ўринда Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг "Ҳар қандай давлат сиёсатининг асосини ватанпарварлик тарбияси ташкил этади" деган сўзлари замирида чуқур маънолар мужассамдир. Ватанпарварликнинг ҳаракатлантирувчи кучи эса одамларнинг маънавий дунёси, интеллектуал салоҳияти билан ўлчанади.

Хулоса шуки, ота боболаримиздан бизга қолдирилган бой маънавий меросни авайлаб, уни замонавий илм-фан ютуқлари билан ижодий бойитиб, келажак авлоднинг тафаккури, дунёқарашини миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида шакллантириш энг муҳим заруратдир.

Ўзбекистон дунёвий давлатдир. Унинг таракқиётида диний ғоялар муҳим ўрин тутди. Диний қарашлар ҳалоллик, тинчлик, осойишталик, фаровонликни таъминлашга хизмат қилади. Ислом дини — бу ота-боболаримиз дини, у биз учун ҳам имон, ҳам ахлоқ, ҳам диёнат, ҳам маърифатдир. Диний қадриятлар одамларни илм-фанга, маънавият ва маърифатга даъват этганлиги жиҳатдан ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Барқарорлик тинчлик миллатлараро тотувлик халқимизнинг буюк ижтимоий-сиёсий қадриятларини ташкил этади. Фуқаролар ўртасидаги тинчлик миллатлараро тотувлик ва дўстлик уларни авайлаб сақлаш ва мустаҳкамлашга интилиш азалдан халқимизнинг ўзига хос фазилати бўлиб келган ва ҳозирги вақтда ҳам шундай бўлиб келмоқда. Халқлар ўртасида тинчлик тотувлик дўстлик ва ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ўрнатиш миллатимизнинг онгига, қонига чуқур сингиб кетган. Ўзбекистон жаҳонда тинчлик ва ҳавфсизликни сақлаш, тинчликсевар мамлакатлар билан ҳар томонлама ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйиш ҳамда таракқиётга эришишнинг ўзига хос йўлини танлаган. Шунинг учун ҳам унинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў ва эътибори тобора ортиб бормоқда. Барқарорлик, тинчлик, тотувлик булар давлатимизнинг янги биносини барпо қиладиган пойдевордир. Бу бизнинг эртанги порлоқ кунимизга олиб борадиган тўғри йўлдир. Ҳозирги ўта мураккаб ва зиддиятли жараёнда ҳукуматимиз томонидан узоқни кўзлаб олиб борилаётган инсонпарварлик сиёсати туфайли жамиятимизда осойишталик тинчлик ва тотувлик фуқароларнинг кундалик турмуш тарзига айланиб кетган. Бунинг билан биз миллатлараро муносабатларни такомиллаштириш соҳасида қилинаётган ҳаракатлардан яққол кўришимиз мумкин. Маълумки, инсоннинг бахт-саодати, келажак ҳаёти миллатлараро муносабатлар билан ўзвий боғлиқ. Диний ва дунёвий билимларни эгаллаган ёшларни тўғри йўлдан адаштириб бўлмайди. Шу сабабдан юртимизда инсониятни бағрикенглик, поклик, меҳр ва оқибатга чорловчи муқаддас динимизни асраб авайлашга айниқса, ёш авлодни халқимизнинг миллий ва диний қадриятларга бўлган ҳурматини ошириш, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Китоблар улуғликка элтувчи йўлдир. Бутун инсониятни зулмат, жаҳолат, залолатдан фақат илму маърифатгина ҳалос эта олиши барчага маълум. Илму маърифат китоб ўқиш, илм олиш билангина бўлади. Илм инсониятни турли ахлоқсизликлар, ёмон йўл ва амаллардан қайтаради.

Кўп китоб ўқиган, илмга чанқоқ бўлган инсоннинг тафаккур доираси ҳам бошқаларникидан ажралиб туради. У оламни, ҳаёт ҳақиқатини, яхши-ёмонни аниқ англайди. Қайси амали фойдали ва қайси иши нотўғри экани тушунади. Китобхон бўлган инсон нафақат ўзини, балки теварак-атрофдагиларни ҳам

китобнинг сирли олами томон чорлайди ва бунда китоб ўқишга бўлган хоҳиш ортиб бораверади.

Китоб ўқиш, илм олиш - бу қалбнинг озуқасидир..Шу жиҳатдан китобдан фойдаланиш уни янада кўпроқ мутолаа қилишга нима тўсқинлик қилса, уни албатта бартараф этишимиз керак. Нима бўлганда ҳам, бугун китоб ўқимасликка ҳеч қандай баҳона йўқ. Бунга фақат хоҳиш, истак бўлса бас. Китоб ва китобхонлик – инсон маънавияти кўзгуси. Халқимиз тилида китоб ўқиб билим ва муносиб тарбия олиш, касб-ҳунар ўрганишнинг аҳамиятига доир мақоллар жуда кўп. Жумладан, “Китобсиз ақл – қанотсиз қуш”, “Билим – ақл чироғи”, “Ўғзаллик – илму маърифатда”. Бундай ҳикматли нақлларни яна узоқ давом эттириш мумкин. Неча минг йиллардан буён инсонларга тўғри йўлни кўрсатиб келаётган, уларнинг билимли, тарбияли, касб-ҳунарли ва албатта бахтли бўлишининг муҳим омили – бу китобга дўст бўлиш, ва китоб ўқишни қанда қилмасликдир. Айниқса, ёшларнинг ҳаётида китобнинг алоҳида ўрни бор. Чунки яхши китоб инсонда Ватанга муҳаббат, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат туйғуларини юксалтириб, яхшилик ҳамда эзгуликка ундайди. Шу сабаб ҳар доим ёшларнинг тафаккур чанқоғини китоб орқали тўйинтириб боришимиз керак. Чунки, илм одамни маънавий юксакликка кўтаради, жамият равақининг асосий омили бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2016. 14-бет.
2. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. Тошкент-Ғафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи 2017.
3. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри.Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
4. Абдурауф Фитрат. Оила ёки бошқариш тартиблари. Тошкент “Маънавият” 1998.

“КИТОБ- ГЎЗАЛ ҲАЁТНИ ЯРАТУВЧИ МУРАББИЙДИР”**Худоёрова Ойсоат Келдиёровна***Тошкент тиббиёт академияси, педагогика
фанлари номзоди, доцент***Сайитмуратов Нодиржон Боймурот ўғли***Тиббий профилактика ва жамоат саломатлиги,
Экология атроф муҳит муҳофазаси ва
кимё факультети 402-А гуруҳ талабаси***Холдарова Хумора Хаким қизи***Тиббий профилактика ва жамоат саломатлиги,
Экология атроф муҳит муҳофазаси ва
кимё факультети Кимё йўналиши 201- А гуруҳ талабаси**“Китоб-беминнат устоз билим ва маънавий юксалишга
эришишнинг энг асосий манбаи”***Алишер Навоий**

Аннотация: Мақолада ёшларнинг китобга бўлган маънавий иммунитетини ошириш масалалари баён этилган бўлиб, уларнинг илмни чуқур эгаллашининг асосий йўллари ва йўналишлари ҳақида илмий тавсиялар берилган. Шунингдек, ҳар томонлама баркамол инсонни вояга етказиш ғоясига мос ҳолатда ёшларнинг мустақил эркин ижодий фикр юритишига доир муҳим қоидалар акс эттирилган.

Калит сўзлар: Китоб ва китобхонлик — билим манбаи, ғоявий-мафкуравий тарбия, китоб- маънавият кўзгуси, миллат, келажак, тараққиёт, бебаҳо бойлик, интеллектуал салоҳият, гўзал ҳаёт, юксак дунёқараш, Ватанпарварлик.

Китоб – инсоннинг эркин фикрлаши, дунёқарашининг кенгайиши, ақлан етук бўлиши, маънавиятининг шаклланишида асосий ўринни эгаллайди. Китоб ўқиган инсоннинг ақли чархланиб, маънавияти бойиб етуклик сари илдамлайверади. Гўзал ҳаётни яратувчи мураббий бу - китобдир. “Китобхонликда таътил бўлмайди” – бу ибора ёшларнинг шиорига айланиши керак. Дунёни фақат илм билан забт этиш мумкин. Илмнинг чуқур эгаллашнинг йўли битта, у ҳам бўлса – китоб ўқишдир. “Китоб — билим манбаи ва булоғидир. Зеро, инсон билим ва тарбияни ҳам китоб орқали олади. Китоб ўқиганда ёшларнинг дунёқарашини кенгайди, ҳаётга муносабати ўзгаради. Бунёдкорлик, яратувчанлик ва ақл-идрок, тафаккурнинг қаноти, қалбнинг чироғи ҳам китобдир. Китобнинг мўъжизавий саҳифалари ўқилганда кўнгил чексиз завққа

тўлади. Жамиятимизда китобхонлик қай даражада кенг оммалашган бўлса, зиёли аҳли шунчалик кўп бўлади. Китобни инсон тафаккурининг қанотларига ўхшатишган. Зеро, тафаккури, фикр доираси кенг, маърифатли кишилар жамиятнинг чинакам бойлигидир. Китоб ҳар қандай билим соҳасининг ажралмас қисми бўлиб, китобхонлик-инсон маънавиятининг кўзгусидир. Китоб-ёшларни ғоявий-мафкуравий тарбиялаш ва ижтимоий-сиёсий, илмий, эстетик қарашларини шакллантиришнинг асосий воситаси ҳисобланади. Айниқса, ёшларнинг бахту камоли, осойишта ва фаровон ҳаётида китобнинг алоҳида ўрни бор. Чунки яхши китоб инсоннинг Ватанга муҳаббат, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат туйғуларини юксалтириб, уларни яхшилик ҳамда эзгуликка ундайди. Ҳозирги кунда ёшларимизнинг китобхонлик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш ҳамда инсон маънавий оламини бойитишда китобнинг улкан таъсирга эга эканлиги мамлакатимиз президенти Ш.М. Мирзиёевнинг фикрида яққол намоён бўлади. “Мен шунга аминман – китобсиз тараққиётга, юксак маънавиятга эришиб бўлмайди. Китоб ўқимаган одамнинг ҳам, миллатнинг ҳам келажаги йўқ... ота-боболаримиздан қолган яхши анъаналарни давом эттириб, навоийхонлик, бобурхонлик, машрабхонлик кечалари ўтказсак, керак бўлса, бадий асарларни телевидение орқали ўқитишни йўлга қўйсак” 1. **Мирзиёев Ш.М. Мамлакатимизнинг жаҳоҳир хазинаси Унинг ўзи. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Т.: Ўзбекистон, 2017.-Б.114.**

Бугунги шиддатли ва мураккаб глобаллашув даврида юзага келаётган мафкуравий хатарлар ва таҳдидларга қарши курашда ёшларнинг китобхонлик маданиятини янада юксалтириш энг муҳим масаладир. Ватанимизнинг барқарор тараққиёти учун ёшларнинг мавжуд интеллектуал салоҳиятини кучайтиришга онгли ёндашувни шакллантириш, уларнинг шахсий масъулияти ва ташаббускорлигини жадаллаштириш катта аҳамиятга эгадир. Инсоннинг шахсий масъулияти, ташаббускорлик ҳамда фидоийлик фазилатлари эса Ватанни чин дилдан севишдан, ватанпарварликдан куч олади. Шу боисдан Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг “Ҳар қандай давлат сиёсатининг асосини ватанпарварлик тарбияси ташкил этади. Ватанпарварликнинг ҳаракатлантирувчи кучи эса одамларнинг маънавий дунёси, интеллектуал салоҳияти, китоб мутолааси уларнинг ҳаётида қанчалик муҳим ўрин тутиши билан ўлчанади” 2. **Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. Рисола Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент – 2017. 17-бет.**

Шунинг учун ҳам президентимиз китоб мутолаасини ривожлантириш масаласини давлат сиёсати даражасига кўтардилар. Улуғ аждодларимизнинг эзгу

ғоялари, ўғитлари, битиклари асосида таълим ва тарбия соҳасидаги туб ислохотларни юксак босқичга олиб чиқиш, юрт келажаги учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир бўлган янги авлодни вояга етказиш бўйича ишларни изчил давом эттириш лозимлиги доимо уқтириб келинмоқда. Зеро, китоб ва китобхонлик инсон учун қалб чироғи, тафаккур қаноти бўлиб хизмат қилади. Китоб руҳият озукаси, у билан дўстлашиш инсонни эзгуликка етаклайди. Китоб қалбга нур беради. Қалби гўзал инсоннинг кўзи равшан бўлиб, оламни ўз шахсий қарашлари билан кўради. Атроф-муҳитда бўлаётган воқеа-ҳодисаларга онгли ёндашади. Тўғри йўл билан бахтини топади. Доно халқимиз таъкидлаганидек, она табиатни офтоб иситса, инсон қалбини китоб ёритади ва нурлантиради. Дарҳақиқат, китоб ёшларнинг дунёқарашини бойитади, нутқини ўстиради, хотирани мустаҳкамлайди. Китоб маслаҳатчи. Садоқатли ҳамроҳ, энг яқин дўст ва бебаҳо бойликдир. Ўзбек оилаларида китобга муҳаббат, китобни асраб-авайлаш ва китобхонлик қадимий анъаналаримиздан биридир.

Ёшларнинг китобни севиб ўқиши учун уларнинг уйларида китоблари кўп бўлиши керак. Ёшларимиз болалигиданоқ китоб ўқишни одат қилсалар, кейинчалик китобга қизиқиши ошади. Психологик текширувлар шуни кўрсатадики, ёшларнинг сўз бойлигини оширилиши, китобга меҳри кучайиб, муомаласининг чиройли бўлишини уларнинг кўп китоб ўқиганлиги билан белгиланади. Баркамол авлодни вояга етказишда китобнинг тарбиявий аҳамияти беқиёс. “Ҳозирги пайтда ҳаммамизнинг олдимизда жуда муҳим аҳамиятга эга эга бўлган масала, яъни китобхонликни кенг ёйиш ва ёшларимизнинг китобга бўлган муҳаббатини, уларнинг маънавий иммунитетини янада оширишга қаратилган ишларимизни янги босқичга олиб чиқиш вазифаси турибди”. **3. Шавкат Мирзиёв Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак Тошкент- “Ўзбекистон”-2017 йил. 47-бет.**

Китобни кўп ўқиш орқали инсон тушунчалари кенгайиб бораверади. Зеро, тушунча, тафаккури, фикр доираси кенг маърифатли кишилар жамиятимизнинг чинакам бойлигидир. Шуни унутмаслик керак, ҳаётдаги айрим рўй берадиган нохушликларнинг илдизи эса маърифатсизлик, китоб ўқимасликдан келиб чиқади. Маънавий бойлик инсонда китоб ўқиш орқали намоён бўлади. Инсониятнинг ақлий ва фикрий дурдоналарини ўзида мужассамлантирган одоб ва ахлоқ манбаи бўлган китобларни севиб ўқиш сеvimли машғулот ҳисобланади. Инсоннинг ақлий салоҳиятини юксалишида китобнинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Китоб ўқиган инсон кенг дунёқараши, фикр-мулоҳаза юритиши, билим савияси, муомала маданияти билан алоҳида ажралиб туради. Юртимизда ёшларга кенг имкониятлар яратиб берилмоқда. Чунки, миллатимиз шаънини,

миллий ғуруримизни юксалтирувчи бу-ёшлар. Улар ўз мақсадлари сари интилиб, юксак маънавият соҳибига айланадилар. Тўқликка шўхлик эса ўзбек миллатининг ёшларига хос фазилат эмас. Қалбимиз гавҳари, хазинаси бўлган китоб энг бебаҳо бойлигимиз бўлсин. Шундагина фарзандлармиз теран фикрлайдиган, меҳрибон, Ватанига содиқ, инсофли, диёнатли инсонлар бўлиб камол топадилар.

Абдулла Авлоний инсон ақлий камолоти хусусида тўхталар экан, қуйидагиларни баён этади: “Илм дунёнинг иззати, оҳиратнинг шарофатидир. Илм инсон учун ғоят муқаддас бир фазилатдир, зероки, илм бизга ўз аҳволимизни ҳаракатимизни ойна каби кўрсатур, зеҳнимизни, фикримизни қилич каби ўткир қилур, савобни гуноҳдан, ҳалолни ҳаромдан, тозани мурдордан ажратиб берур, илмсиз одам мевасиз дарахт кабидир”. **4. (Абдулла Авлоний танланган асарлар 2 жилдлик, 2-жилд Тошкент “Маънавият”-1998.48 бет)**

Китоб ўқиш илм олишнинг бир бутунлигини таъминлайди. Илм – инсоннинг ўқиш, ўрганиш ва шахсий ҳаётидаги тажрибалар, кузатишлар натижасида шаклланган билим ва малакалар мажмуи. Инсон камолотида илм эгаллаш қобилияти, унинг улкан фазилатларидан бири ҳисобланади. Чунки, инсон билим билан шон-шарафга эришади – шуҳрат қозонади.

Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш орқали уларнинг чуқур билимларга эга бўлиши ва ижтимоий жараёнларнинг моҳиятини англаб етишига имконият яратилади. Энг муҳими илм-фан, техника, технология ҳамда ишлаб чиқариш соҳаларида қўлга киритилаётган ютуқлар билан таништириш асосида уларнинг ижодий, эркин, мустақил фикрлаш кўникмалари ҳосил қилинади. Ана шунда ақлли, билимли, ижодкор, қобилиятли, доно, камтар, инсонпарвар, адолатли, соғлом бўлган комил инсонни тарбиялашга эришиш мумкин бўлади.

Аксинча, ҳаётда рўй бериб турадиган айрим нохушликлар илдизи эса маърифатсизлик, китоб ўқимасликнинг аччиқ мевасидир. Бинобарин, китоб-ҳамиша илм-маърифат, одоб ва ахлоқ манбаи бўлиб келган. Китобнинг мўъжизавий саҳифалари ўқилганда кўнгил чексиз завққа тўлади. Талабаларнинг мутолаа қилган китоблари бўйича ўзаро беллашиб, фикр алмашиши, ўқиган китоблари асосида эссе, иншо ёзиши жуда фойдали ишдир. Бинобарин, китоб-ҳамиша илм-маърифат, одоб ва ахлоқ манбаи бўлиб келган. Бутунги кунда ёш авлодни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашда китобдан кўра қудратлироқ восита йўқ. Дунёда ҳар бир миллат ва халқнинг ўзлигини англаши ва асраши, шаънини улуғлашида қадриятларнинг ўрни беқиёс. Талабалардаги ижодий фаолиятнинг ҳар қандай куртаклари таълим-тарбия жараёнида ҳамда мустақил китоб ўқиш ва ўрганиш асосида камол топади. Таълим-тарбия жараёнида талабалардаги яширин истеъдодларни юзага чиқариш, улардаги ижодкорлик

қобилиятини ривожлантириш келажакда юксак салоҳиятли, ижтимоий фаол, ўткир зеҳнли, кашфиётчилик қобилиятини намоён эта оладиган рақобатбардош кадрларни вояга етказиш гарови бўлиб ҳисобланади. Ёшлар кўп китоб ўқиб, яхши фикр юритиши лозим. Китобларнинг мазмуни топиб, кадриятларни онгли равишда қабул қилиш ва уларнинг замирида катта ҳикмат борлигига ишониш муҳим аҳамиятга эга. **Бунёдкорлик, яратувчанлик ва ақл-идрок, тафаккурнинг қаноти, қалбнинг чироғи ҳам китобдир.** Дунёни фақат илм билан забт этиш мумкин. Илмнинг чуқур эгаллашнинг йўли битта, у ҳам бўлса – китоб ўқишдир. Зеро, инсон билим ва тарбияни китоб орқали олади. Бинобарин, инсон учун китоб-ҳамиша илм-маърифат, одоб ва ахлоқ ҳамда завқланиш манбаи бўлиб келган. Адабиётга қизиққан талаба турли иншолар, ҳикоялар, шеърлар машқ қилиб турса, кундалик дафтар тутса, бу жуда яхши иш ҳисобланади. Китоб ўқиш ҳеч қачон эскирмайдиган ва кони фойда машғулот. Китобларни дид билан танлаб ўқиш ҳамда ҳақиқий дурдона асарларни топиб ўқиш лозим.

Ёшларнинг келажакда гўзал ахлоқли ва чиройли тарбияли бўлишида ибратли фикр ва фаолиятларнинг ўрни ва таъсири беқиёсдир. Уларнинг ақлан ривожланиши учун турли китоблар, ривоят, ибратли ҳикоятлар, халқ эртаклари ва дostonлар, топишмоқлар, мақол ва маталлар, адабий, бадиий адабиётларни ўқиб бориши мақсадга мувофиқдир. Бундан ёшларнинг зеҳни ўсади, фикри кенгаяди, дунёқараши бойийди, хотираси кучаяди. Энг асосийси, ўқиган ва эшитганларидан ибратланиб, завқланиб, яхши одамларга эргашишга интилади, уларнинг хулқу одобидан баҳраманд бўлади.

Ёшларнинг зеҳнли, ақл-идрокли, фикрловчи бўлиб улғайиши учун уларнинг буюк алломаларимиз, улуғларимизнинг ҳаёт йўллари ва фазилатлари ҳақидаги ривоятларни, рамзий маънодаги яхшиликка, чиройли ахлоқ ва одобга чорловчи сўзларини онгли равишда ўзлаштириши муҳим аҳамиятга эга. Бу эса уларнинг ақл-идроки, маънавиятини юксалишига олиб келади.

Абу Наср Фаробийнинг таъбирича, Таълим ҳам, тарбия ҳам ёшларнинг ҳақиқий инсон бўлиб етишиши учун ниҳоятда зарурдир, дейилади. Ёшларнинг ақлий, ижодий қобилиятини ривожлантириш мақсадида шингил ҳикоя, эртак, шеърлар, Она Ватан ҳақида эсселар ёзиш ва суҳбатлар, савол-жавоблар ўтказиш ўзига хос ижобий таъсир кучига эгадир.

Савол: Инсон ўзида комиллик сифатларини таркиб топтириш учун қандай ишларни амалга ошириши зарур деб ҳисоблайсиз?

Жавоб: Биринчи навбатда, илмий билимларни эгалламоғи лозим. Бу борада Абу Наср Фаробийнинг “Фозил одамлар шахри” асари билан танишдим. Абу Наср Фаробий “ўқитиш” ва “тарбиялаш” тушунчаларига биринчи булиб таъриф берган олим саналади. У инсоннинг мукамал зот эканлиги, унда ақлнинг пайдо

бўлиши ва унинг қудратли куч эканлиги тўғрисидаги ғояларида: “Тил ва тушунча соҳиби бўлган тирик зот инсондан ортиқроқ мукамал бўлган тирик зот йўқдир” дейилади.

5.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.- Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.- Б. 144.

Берунийнинг қайд этишича, «инсоннинг баркамоллиги унинг амалий кузатишлари натижаси асосида шаклланган ҳолда ақлий фаолияти негизида юзага келади. Демак, инсон шу асосда ташқи оламни, борлиқни ўрганади, билимларни эгаллайди, ҳақиқатга яқинлашади. Ҳақиқат эса борлиқ тўғрисидаги тасаввурларнинг ҳаққонийлигини талаб этади.

Савол: Тарбияли ота-она фарзандларига доимо тўғри йўлни кўрсатадиган устоздир дейилади. Айнан шу хусусида ўз фикрингизни ифода этасизми?

Жавоб: Ота-она фарзандларига яхши тарбия бериб, муносиб раҳбарлик қила олсагина оилада тартиб интизом, меҳнат ва ором, ўзаро ҳурмат, одоб ва ахлоқ, аҳиллик, бирдамлик, тинчлик бўлади. Улар болаларига ёшлигиданоқ нима яхши, нима ёмонлигини ўргатиб, тўғри тарбия берадилар. Фарзандлар эса шу оиланинг ор-номуси учун курашиши, шаънига доғ туширмаслиги, ҳамма вақт оилага, Ватанига, дўстларига содиқ, содоқатли бўлиб қолиши зарур.

Соғлом инсон кучли, гўзал ҳам маърифатли бўлади. Маърифатли инсон кўп китоб ўқийди, тафаккури чархланади, ҳар қандай нарсани онгли англаб, мулоҳаза қиладиган бўлади. Тинимсиз фойдали илм ва гўзал ҳулқни эгаллаган инсон саодатга эришади. Ёшларнинг билим ва иқтидорини тўлиқ намоён бўлишида ота-онанинг ҳамда тарбиявий муҳитнинг таъсири кучлидир. Ота-она ҳамиша гўзал ахлоқли, ваъдага вафоли, адолатли бўлиши, сўз ва иш бирлигига амал қилган ҳолда фарзандлари билан чиройли, мазмунли суҳбатлар уюштириши, уларнинг ақлий ва руҳий ўсишига эътибор қаратиши, тарбиясида эса жуда зийрак бўлиши, фарзандининг ўзи эмас, иши хато эканлигини тушуниши ва тушунтира олиши лозим. Оилада фарзандларга сингдирилган тарбия уларда Ватанга, ота-онага содиқлик, фидойилик, меҳр-муҳаббат, ўзаро ҳурмат, соғлом дунёқараш, ҳулқ-атвор, одоб-ахлоқ каби юксак инсоний фазилатларни шакллантиради.

Ёшларнинг китобхонлик маданиятини юксалтиришда қуйидаги жиҳатларга жиддий эътибор бериш мақсадга мувофиқ бўлади:

1. Узлуксиз таълим тизимида китобни энг катта бойлик сифатида қадрлаб, китобхонлик, ғазалхонликлар ўтказишни самарали амалга оширишга эришиш.

2. Китоб совға қилиш анъанасини кенг жорий этиш орқали уни доимий одатга айлантириш.

3. Маънавият хазинаси ҳисобланган кутубхонадан кўпроқ фойдаланиш орқали ўзи ва ўзгалар ҳаётини бойитишга эришиш, жаҳон маданиятига муносиб ҳисса қўшган аجدодларимиз эришган ютуқлардан баҳраманд бўлиш.

4. Миллий адабиётимиз ва жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ижтимоий тармоқларга жойлаштириш ва уларни кенг тарғиб этишга алоҳида эътибор бериш.

5. Жамиятнинг интеллектуал, маънавий ва маданий эҳтиёжларига тўлиқ жавоб берадиган китоб бозорини янада кенгайтириш.

6. Ёшларни китоб мутолаасига жалб этишда ижтимоий рекламалардан самарали фойдаланиш.

7. Кутубхона ресурсларидан масофавий фойдаланишни яхши йўлга қўйиш, оммавий китобхонликни тизимли ташкил этиш, ҳар бир хонадон жавонларидаги мавжуд бадиий, илмий ўқув, энциклопедик, оммабоп китоблардан самарали фойдаланиш орқали ёшларнинг мутолаа маданиятини тарбиялаш.

Хулоса шуки, таълим-тарбия жараёнида миллий, маънавий ва диний қадриятлар уйғунлигида ёшлар қалбига эътиқод уруғини сочиш асосида қалби тоза, беғубор, илмли, дунёқараши кенг соғлом инсонни тарбиялаш вазифасини муваффақиятли амалга ошириш муҳим ҳисобланади. Китоблар улуглиққа элтувчи йўлдир. Бутун инсониятни зулмат, жаҳолат, залолатдан фақат илму маърифатгина халос эта олиши барчага маълум. Илму маърифат китоб ўқиш, илм олиш билангина бўлади. Илм инсониятни турли ахлоқсизликлар, ёмон йўл ва амаллардан қайтаради. Кўп китоб ўқиган, илмга чанқоқ бўлган инсоннинг тафаккур доираси ҳам бошқаларникидан ажралиб туради. У оламни, ҳаёт ҳақиқатини, яхши-ёмонни аниқ англайди. Қайси амали фойдали ва қайси иши нотўғри экани тушунади. Китобхон бўлган инсон нафақат ўзини, балки тевақат атрофдагиларни ҳам китобнинг сирли олами томон чорлайди ва бунда китоб ўқишга бўлган хоҳиш ортиб бораверади. Китоб ўқиш, илм олиш - бу қалбнинг озукасидир..Шу жиҳатдан китобдан фойдаланиш уни янада кўпроқ мутолаа қилишга нима тўсқинлик қилса, уни албатта бартараф этишимиз керак. Нима бўлганда ҳам, бугун китоб ўқимасликка ҳеч қандай баҳона йўқ. Бунга фақат хоҳиш, истак бўлса бас.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Мамлакатимизнинг жаҳоҳир хазинаси Унинг ўзи. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.-Т.: Ўзбекистон, 2017.-Б.114.

2. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. Рисола Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент – 2017. 17-бет.

3. Шавкат Мирзиёв Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак Тошкент- “Ўзбекистон”-2017 йил. 47-бет.

4. (Абдулла Авлоний танланган асарлар 2 жилдлик, 2-жилд Тошкент “Маънавият”-1998.48 бет)

5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.- Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.- Б. 144.

“ЗУЛФИЯХОНИМ – ТОНГ КУЙЧИСИ”

Худоёрова Ойсоат Келдиёровна

*Тошкент тиббиёт академияси, педагогика
фанлари номзоди, доцент*

Ўроқбекова Моҳина Шерзодбек қизи

*Педиатрия, стоматология, халқ табобати ва
тиббий педагогика факультети*

“Педиатрия” йўналиши 104-Б гуруҳ талабаси

Мирзайева Нилуфар Фарход қизи

*Педиатрия, стоматология, халқ табобати ва
тиббий педагогика факультети*

“Педиатрия” йўналиши 103-Б гуруҳ талабаси

Мендан бошланади уйда уйғониш,

Зеро, уйқу нима билмаган жонман,

Менга жуда мушкул яшайдан қониш,

Сафардан бир нафас тинмас карвонман.

Зулфия

Аннотация: Мақолада Зулфияхоним шеърларининг кўпроқ воқеабандлиги, тонг манзараси, унинг ҳар бир сўзида катта маҳорат, етуклик, ҳаётга яқинлик белгиси ниҳоятда ёқимли ва аниқ ифода этилган. Энг муҳими шоира Зулфияхоним шеърятининг ўзига хос энг яхши хусусиятлари ўрганилган.

Калит сўзлар: Дилга содиқлик, фидойилик, гўзаллик, ишонч, диёнат, ҳақиқат, поклик, ишқ, севинч, узлуксиз меҳнат. Тонг тимсоли ва тасвири, буюк бахт, ёруғ дунё, вафо, она табиат.

Севимли шоирамиз Зулфияхоним хусусида фикр юритиш жуда мароқлидир. Зулфия шеърятида таъсирли сўзлар инсонни ўзига ром этади. Унинг севги ва муҳаббатга муносабатида олам қадар маъно мужассам. Унда юрак ҳарорати, ўтли ишқ таровати, ҳақиқат, дилга содиқлик, севинч, фидойилик ва гўзаллик ўз ифодасини топган.

Шоира Зулфияхоним буюк ва пок тонг гўзалликларига ошиқ бўлиб, тонгни кадрлашга фидойий бўлди. Бу фазилат унга хакирдан қил суғургаидек осон ва ўз-ўзидан қўлга кирган эмас, албатта. Узлуксиз меҳнат, уриниш, изланишдан, тунлар уйғоқ ўтганидан, ёзиб-чизганидан, ўқиганидан,

ўрганганидан, отаётган тонгни кутганидан, тонгни суюб, куйлаганидан ҳосил бўлди.

Зулфияхоним шеърларида тонг тимсоли, тонг тасвири буюк эрк, буюк бахт, буюк давр, буюк ва ёруғ дунё тимсолидай жаранглаб кетганлиги ва ҳануз ўшандай жаранглаб турганлиги ҳеч кимга сир эмас, ҳаммаси фақат меҳнатдан, тинимсиз, узлуксиз меҳнатдан!

Зулфияхоним овози тиниб қолгани йўқ, балки янги жаранг, ўктамлик зиналарига кўтарила олди. Зулфияхоним шеърлятида вафо мотивлари билан бир қаторда ватанпарварлик, она табиатнинг моҳирона чизгилари, она тупроқ кўшиқлари, қардошлик кўшиқлари, оналик фахриялари, ватандошлик садолари ҳам энг ўзак мавзулардан. Шоиранинг талай шеърлари адабиётимизда воқеа даражасига кўтарилган шеърлардир. Зулфияхоним ўзбек шеърлятини жаҳон минбаридан жаранглатганлардан биридир.

Зулфияхоним шеърлари кўпроқ воқеабанд, манзарали, кўз олдингизда ҳаётнинг бир парчаси, бир бўлаги бўлиб ярқираб тургани турган. Унинг ҳар бир сўзида катта маҳорат белгиси, етуклик белгиси, ҳаётга яқинлик белгиси мавжуд. Аслик, яъни тақлиддан йироқлик ҳам шоира шеърлятининг яхши хусусиятидир.

Зулфияхоним ўз орзусига тўла етган кўклам ва бахт жарчиси, тонг куйчиси, юракларда чақмоқ чақиб, оловлантириш бахтига эришган омадёр қаламкашдир. Шоира бутун ҳаётини, билимини, вақтини, укувини — бутун ўзини ва ўзлигини шеърлятга бағишлаган, қисқача қилиб айтсак, шеърлят учун туғилган жондир.

БИЗ ТОНГНИ СЕВГАН-ЧУН

Тинчгина тонг отар. Чиқади қуёш,
Кўм-кўк майсаларда ялтирар шабнам.
Осмон ҳам тип-тиник, еллар мусаффо,
Эркин нафас олиб уйғонар эл ҳам.

**Биз тонгни севамиз — алвон рангида
Кураш қурбонларин яшайди хуни.**

**Қон бериб, жон бериб бутун жаҳонда
Дастлаб қаршилаган биз бўлдик уни.**

Биз тонгни севган-чун, уни қаршилаб
Ҳар кун зафар билан кўтарилар қад,
Шу тонг тиниқлигин сақлар муқаддас
Қудрат, севгимиздан яратилган сад.

**Бу чексиз севгида, қудратимизда
Шонли оталарнинг ҳиссаси улкан,**

Шунинг-чун тинч меҳнат шиори билан
Балқиб юксалади жонажон ўлкам.
Биз тонгни севган-чун, соф кўкимизга
Уфқдан ўтолмас зулмат дудлари,
Эркин тебранган майсалар дамин
Бўғолмас порохнинг заҳар ҳидлари.
Онадай ардоқлаб, боладай севиб
Сақлаймиз тупроқни, шарафни, донгни
Ўткир кўзимизни уфқдан узмай
Ҳар кун қаршилаймиз сафобахш тонгни.

Аёл борки олам мунаввар ёҳуд олам гўзаллиги Зулфияхонимда мужассам. Унинг ўрни беминнат, фаолияти ҳамма жойда улуғланади. Зулфияхоним том маънода маънавиятли, баркамол комил инсондир. Унинг оилада фарзандларига сингдирган тарбиясида ибрат ва намунали мактаб мавжуд. Унда Ватанга, ота онага содиқлик, фидойилик, меҳр-муҳаббат, ўзаро ҳурмат, соғлом дунёқараш, хулқ-атвор, одоб-ахлоқ каби юксак инсоний фазилатлар мужассамланган. Шу жиҳатдан ҳам Зулфияхоним оилада тарбиячи, мураббий аёл бўлган. Фарзандларига тўғри тарбия бериш, уларни она юртига, Ватанига фидойилик руҳида тарбиялашдек муҳим ишлар кўпроқ уларнинг зиммасида бўлиб, болаларини ёшлигиданоқ меҳнатсевар, илмга чанқоқ шахс сифатида тарбиялаганлар. Бунда Зулфияхонимнинг ўзгача янгича фикрлаш, тафаккур қилишини жуда яхши ҳис этиш мумкин. Дарҳақиқат, келажакни ўйлаган, нурли истиқболни кўзлаган Зулфияхоним доимо эъзозда. Унинг жамолидан таралган нур, гўзаллик ҳамиша оламини мунаввар этган. Юртимиз равнақиға сайқал берган. Бу дунёда Зулфияхонимдек аёллар, оналар борки, улар яхшилик, эзгулик, меҳр-оқибат, тирикликнинг устуни бўлаверадилар. Улар борки, хонадонимиз тинч-осоишта, саранжом-саришта, юртимизда файзу-барака ҳукмрондир. Зулфияхонимнинг ҳурмати, қадру-қиммати осмон қадар кенг ва бепаёндир. Биз ёшларнинг бахтимизни нақадар улуғ бўлиши аввало аёлларга боғлиқдир. Аёл доно бўлса оила тинч бўлади, оила тинч бўлса, жамиятимизда ҳам тинчлик, ҳамжихатлик, осойишталик ва барқарорлик ҳукм суради. Авлоди баркамол ўсган элнинг келажаги ёруғдир.

Зулфияхонимнинг энг яхши фазилатларидан бири унинг сабр-тоқатлилигидир. Шунинг учун ҳам уни гўзаллик тимсоли дейиш ҳам мумкин. Зулфияхонимни эъзозлаш, унга юксак эҳтиромлар кўрсатиш ўзбек халқиға хос хусусиятдир. Оқила ва гўзал Зулфияхоним ўзининг ғамхўрлиги, меҳрибонлиги, қалби дарёлиги билан оилада ва бутун жамиятдаги мувозанатни, поклик,

ҳалолик, самимият ва адолат муҳитини сақлаганлар. Ҳақиқатан ҳам аёл оламни гўзал, меҳрли ва адолатли қилиш учун яратилган. Аёлнинг меҳр тўла кўзларига, зеҳн солганимизда мунис кўзларида илохий нурни илғаймиз. Ана ўша ёғду ҳаётни ғолиб ва мафтункор этгучи қудратли гўзалликдир. Ана шу зиё фарзанд зуваласида жасорат, муҳаббат, она тупроққа садоқат, ҳалоллик, Ватан тақдирига масъуллик ҳисси бўлиб қарор топади.

Ана шу меҳр нурида Аёл ўз халқи, миллати умрини боқий этувчи даҳо фарзандларини камолга етказди. Илдизимизда қоядек бўлиб турган Аҳмад Фарғоний, имом Бухорий, Амир Темур, Алишер Навоий, Мирзо Улуғбек, Жалолиддин Мангубердилар зуваласида ўша нур бор. Довюррак Алпомиш, Гўрўғли Кунтуғмишлар ҳам Аёлнинг орзу-тилакларининг ўлмас рўёбидир. Дунёни лол қолдирган аждодлар шуъласи ҳамон йўлимизни ёритар экан, истиқболнинг, янги асрнинг буюкларини ҳам аёл камолга етказди.

Ибн Сино, Улуғбек, Жомий ва Саъдийни, Навоий ва Фирдавсийни, Бедил ва Хайёмни, Нодира ва Увайсийни дунёга келтирган аёл она бу муқаддас бир зотки, унинг билан олам мунаввар, унинг билан оила, ватан, хонадон ободдир. Аёл ўз дилбандига гўзал қўшиқлар, тоза ҳаёллар, ёрқин орзулар, келажак умидлари орқали ноёб фазилатларни сингдиради. Оилани оила қиладиган зот бу Аёлдир. Оқила, гўзал аёллар ўзларининг ғамхўрлиги, меҳрибонлиги қалби дарёлиги билан оиладаги, қолаверса, бутун жамиятдаги мувозанатни, поклик, ҳалоллик, самимият ва адолат муҳитини сақлаб турадилар. Барчамиз учун азиз мўътабар бўлган аёл зоти ҳақида сўз юритар эканмиз, бизни дунёга келтирган ва оқ сут бериб вояга етказган аёл-она сиймосини доимо улуғлаб, ардоқлаб яшаймиз. Аёлни эъзозлаш, аёлга эҳтиром кўрсатиш халқимизга хос олижаноб қадрият ҳисобланади. Шу жиҳатдан қалбимиз, юрагимиздаги жамики эзгу фазилатлар учун азиз ва меҳрибон аёлларнинг хизматларини ҳеч нарса билан қиёслаб, баҳолаб бўлмайди. Аёлларнинг меҳр-муҳаббат, вафо ва садоқати, фидойилиги сабабли ҳаётимиз чароғон, ҳамиша яхшилик ва эзгуликка интилган ўзбек аёли гўзаллик тимсолидир. Ўзбек аёлининг хусусан, Зулфиянинг шаклу шамойили сийрати, маънавият оламида ибो-ҳаё, андиша, сабр ва маътонат сифатида намоён бўлади. Зулфия тимсолидаги аёлларнинг фарзандлари, доно, ақлли бўлиб вояга етадилар. Биз жаҳон тарихида ўз номи, ўрни билан машҳур бўлган жуда кўп аёллар; Тўмарис, Сарой Мулкхоним, Нодирбегим, Гулбаданбегим, Зебунисобегим, Жаҳон отин Увайсий, Анбар отин, Зулфия, Саида каби шоира-ю фозилаларимиздан фахрланамиз. Зулфияхонимнинг мазмунли ҳаёти ва ижодидан баҳраманд бўлиб, яратиш ва бунёдкорлик ишлари билан шуғулланиш барча ёшларнинг муқаддас бурчидир. Бу борада жуда катта, улкан ва фойдали ишларни режалаштириш ва уларни муваффақиятли амалга

ошириш борасида тинимсиз меҳнат қилиш, ўқиш талаб этиладики, натижада Зулфияхонимнинг миллий меросига нисбатан ихлосимиз ошади.

Ёшларнинг ўзи туғилиб ўсган ва камол топган жой, замин, ўлка, санъатига бўлган меҳр-муҳаббати, муносабатларини жонли фикрлар билан ифода этиши уларнинг ижтимоий ва маънавий-ахлоқий хислатлари, фазилатларини юксак даражада намоён бўлишидадир. Ўзбекистоннинг мустақил давлат сифатида мустаҳкамланиши, аҳолисининг иқтисодий, маънавий, маданий тараққиёти ҳамда фаровон ҳаётга эришиш йўлида тинмай меҳнат қилиши, изланиши уларнинг фидойилигидан дарак беради. Айнан шу фидойилик, ёшларнинг ватанга бўлган садоқат ва муҳаббатидан бошланади.

Хулоса шуки, ёшлар келажак фарзандлари сифатида яхши ўқиши ва аъло хулқи, ҳар жиҳатдан баркамол инсон бўлиши учун мустақил ижодий фаолият кўрсатиши керак бўлади. Ёшларнинг онгли равишда таълим олиши уларнинг ўрганаётган материални фаол билиши ва ўзлаштиришига кенг йўл очади. Ёшлар кўпроқ мустақил ишлаганлари сари улар ҳар бир нарсани синчиклаб кузатишга, улар ҳақида тўғри хулосалар чиқаришга ўрганадилар. Зулфия ижодини пухта ўзлаштириш учун юксак савияда фаолият кўрсатиш, мунтазам равишда оммавий ахборот воситалари маълумотлари, материалларидан хабардор бўлиб, ўзининг илмий-амалий тажрибасини такомиллаштириб бориш талаба учун жуда фойдали фаолият ҳисобланади. Бунинг натижасида ёшлар фаолиятида ижобий ўзгаришлар, мустақил ижодий изланиш ва ишлаш малакалари ҳосил бўлади. Дарҳақиқат ҳозирги кунда республикамизнинг барча таълим муассасаларида ёшларнинг юксак маънавийлиги, мустақил ва эркин фикрлаш кўникмасига эга бўлишлари, замонавий илм-фан ютуқларини пухта ўзлаштиришлари учун барча шарт-шароитлар яратилган. Ҳозирги кундаги асосий вазифа яратилган кенг имкониятлардан унумли фойдаланиб, Зулфияхоним издошлари сифатида бадиий-эстетик жиҳатдан ёшлар ижодий тафаккурини ривожлантириш муҳим масала сифатида намоён бўлади. Шунингдек, замонавий ахборот коммуникация воситалари, илғор педагогик технологияларни амалиётга қўллаш орқали ёшларда катта ҳажмдаги маълумотларни қабул қилиш, қайта ишлаш, мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантириш талаб этилади. Энг муҳими ёшларнинг ақлий-интеллектуал, ижодий қобилиятларини ривожлантириш ва ривожланган демократик давлатлар даражасида, юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб берувчи юқори малакали мутахассис бўлиб етишишини таъминлашда ижод ва ижодкорлик масалаларига жиддий эътибор бериш, айнан Зулфияхоним ижодини пухта ўзлаштириш муҳим аҳамиятга эгадир.

Адабиётлар рўйхати:

1. Зулфия ҳаёти ва ижоди. Тузувчи Х.Сулаймонова “Ўқитувчи” – Тошкент – 1980.32 бет.
2. Зулфия “Баҳор келди сени сўроқлаб” Зулфия таваллудининг 100 йиллигига бағишланади. Янги аср авлоди Тошкент.2019. 178 бет.

THE ROLE OF COGNITIVE SEMANTICS AND ITS USEFUL ADVANTAGES IN LEARNING ENGLISH LANGUAGE

Narimanova J.Y

jamola.narimanova@mail.ru

English teacher and supervisor at Uzbekistan State

World Languages University,

Irkinova Iroda: *Student at Uzbekistan State*

World Languages University, Tashkent City, Uzbekistan

Abstract: Cognitive semantics is a field that examines how language is influenced by human cognition, emphasizing the connection between language and thought. This article explores the significance of cognitive semantics in learning English, detailing its advantages and drawbacks. By understanding how meaning is constructed through cognitive processes, learners can improve their language acquisition strategies.

Key Words: Cognitive semantics, English language learning, cognitive linguistics, language acquisition, metaphor.

Cognitive semantics is an integral part of cognitive linguistics, which studies the relationship between language and the mind. It posits that language is not merely a system of symbols; rather, it is deeply rooted in human cognition and influenced by our experiences. This perspective is particularly beneficial for learners of the English language, as it provides insights into how meaning is constructed and understood. In a globalized world, where English serves as a lingua franca, grasping these concepts can significantly enhance language learning.

As a main part of the article, we can inform cognitive semantics. Cognitive semantics focuses on how language reflects our cognitive processes and experiences. Unlike traditional semantics, which often treats meaning as static, cognitive semantics views it as dynamic and context-dependent [1]. For instance, the word "home" can evoke different meanings based on an individual's experiences—comfort, safety, or even nostalgia.

Cognitive semantics helps learners understand nuanced meanings and metaphors in English. For example, the phrase "time is money" illustrates how time is conceptualized in economic terms, allowing learners to grasp abstract concepts through familiar experiences [2].

By linking new vocabulary to personal experiences, cognitive semantics enhances retention. When learners associate the word "bark" with both a tree's outer layer and

the sound a dog makes, they create a richer mental framework, making it easier to recall the word in different contexts [3].

Cognitive semantics promotes learning within real-life contexts. For instance, understanding idiomatic expressions like "kick the bucket" requires contextual knowledge. This approach allows learners to see language as a tool for communication, fostering fluency [4].

Cognitive semantics encourages learners to explore the cultural contexts of language. Understanding phrases like "the American Dream" or "British stiff upper lip" involves recognizing cultural values and social norms, which enhances intercultural communication skills (5).

The focus on deep meaning can overwhelm beginners. For instance, exploring multiple meanings of common words may lead to confusion rather than clarity, making initial language acquisition challenging [6].

Cognitive semantics relies on individual experiences, leading to varied interpretations. For example, the metaphor "a flood of emotions" might evoke different images for different learners, potentially causing misunderstandings in communication (7).

While cognitive semantics emphasizes meaning, it may neglect the structural elements of language, such as grammar and syntax. A learner focused solely on meaning might struggle with sentence construction and formal writing [8].

Basically, Cognitive semantics is part of the cognitive linguistics movement, which focuses on the connection between language and cognition. Cognitive linguistics emphasizes the role of meaning, conceptual processes, and embodied experience. Cognitive semantics is part of the cognitive linguistics movement. Semantics is the study of linguistic meaning. Cognitive semantics holds that language is part of a more general human cognitive ability, and can therefore only describe the world as people conceive of it] It is implicit that different linguistic communities conceive of simple things and processes in the world differently (different cultures), not necessarily some difference between a person's conceptual world and the real world.

The main tenets of cognitive semantics are:

1. That grammar manifests a conception of the world held in a culture;
2. That knowledge of language is acquired and contextual;
3. That the ability to use language draws upon general cognitive resources and not a special language module.

Cognitive semantics has introduced innovations like prototype theory, conceptual metaphors, and frame semantics, and it is the linguistic paradigm/framework that since the 1980s has generated the most studies in lexical semantics. As part of the field of cognitive linguistics, the cognitive semantics approach rejects the traditional separation

of linguistics into phonology, morphology, syntax, pragmatics, etc. Instead, it divides semantics into meaning-construction and knowledge representation. Therefore, cognitive semantics studies much of the area traditionally devoted to pragmatics as well as semantics.

In conclusion, cognitive semantics presents a valuable framework for learning the English language, emphasizing the interplay between language, thought, and experience. It enhances comprehension, vocabulary acquisition, and cultural awareness.

However, educators must be mindful of potential drawbacks, such as cognitive overload and variability in interpretation. A balanced approach that integrates cognitive semantics with traditional language teaching methods can lead to more effective language learning outcomes.

References:

1. Evans, V., & Green, M. (2006). **Cognitive Linguistics: An Introduction**. Edinburgh: Edinburgh University Press.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). **Metaphors We Live By**. Chicago: University of Chicago Press.
3. Langacker, R. W. (1991). **Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar**. Berlin: Mouton de Gruyter.
4. Johnson, M. (1987). **The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason**. Chicago: University of Chicago Press.
5. Kramsch, C. (1993). **Context and Culture in Language Teaching**. Oxford: Oxford University Press.
6. Robinson, P. (2001). *Cognition and Second Language Instruction*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Thibault, P. J. (2004). **Cognitive Semiotics: A New Approach to Meaning in Language**. In **Cognitive Linguistics: Basic Readings** (pp. 267-284). Berlin: Mouton de Gruyter.
8. Ortega, L. (2009). **Understanding Second Language Acquisition**. London: Hodder Education.

METHODS OF STATE SUPPORT FOR THE USE OF INNOVATIVE ACTIVITIES IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR

Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich

*Assistant of the Department of Banking of the
Samarkand Institute of Economics and Service*

Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li,

*student of the Faculty of Economics of the
Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract: The paper discusses some approaches to state support of innovative activity formation in the service sphere. It underlines that innovation is, first of all, crucial at the company level in a view of enhancing competitiveness and efficiency. Among the basic mechanisms, the following can be underlined: financial incentives, tax benefits, public-private partnership, and establishment of regulatory frameworks friendly to innovation. The paper deals with international experience and its application within the frameworks of different economies, discussing policy design given different market conditions. Further, it points out some challenges in the implementation of state support measures-resource constraints, complexities in regulatory functions, and possible ways of surmounting them. Conclusions are drawn on the development of an efficient innovation ecosystem in services that might provide sources for sustainable economic growth.

Keywords: state support, innovation, service sector, innovative activities, public-private partnership, financial incentives, regulatory frameworks, economic development, the implementation of policy.

belgilanadi. Prezidentimizning quyidagi berilgan fikrlari maqolamizning kirish qismida berib o'tishni joiz topdik: "Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak. Boshqaruv boshqariladigan obyektidagi jarayonlarning aniq maqsadga qaratilganligini va uyushganligini ta'minlashi lozim. Boshqaruv o'zining bu vazifasini bilishi kerak bo'lgan narsaning qiyofasini (maqsadlar va ularga erishish rejalarini) shakllantirish; ijrochilar o'rtasida vazifalar va vakolatlarni taqsimlash (rasmiy tuzilmani yaratish va saqlab turish); ijrochilarning samarali mehnatdan manfaatdorligini ta'minlovchi sharoit yaratish (rag'batlantirish); jamoada umumiy kadriyatlar va qulay munosabatlarni shakllantirish (norasmiy tuzilma yaratish va saqlab turish); ishning borishini nazorat qilish kabi va boshqa maxsus boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiradi.

Ta'lim mazmuni, ta'lim tashkilotlari tartibini va ta'lim sifatini boshqarishni alohida faoliyat sifatida belgilash mumkin. Bunda uning subyekti boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali pedagoglar, ota-onalar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning birgalikdagi faoliyatining uyushqoqligini hamda ta'lim maqsadlari va rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Ta'limni boshqarish metodlari — bu ta'lim jarayonlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va samaradorligini ta'minlash uchun ishlatiladigan usullar va vositalar yig'indisidir. Ushbu metodlar boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan. Quyida ta'limni boshqarishda qo'llaniladigan asosiy metodlar keltiriladi:

Tashkiliy-boshqaruv metodlari qonunga, xuquq-tartibotga, lavozimi bo'yicha o'zidan yuqoriroq bo'lgan xodimga bo'ysunishga, ya'ni hokimiyat motivatsiyasiga asoslanadi.

Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi.



Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir

ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi – matabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma'nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi. onini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nan barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta'lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish ehtiyoji sezilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Narimbaeva L.K Maktabgacha ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №9(88) 2021 www.iupr.ru 944-945b
3. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” ” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi Toshkent-“O‘zbekiston” -2016, 11-bet, 20-bet.
4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-488 bet.

YOSH PEDAGOGLARNING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA DUCH KELADIGAN ASOSIY QIYINCHILIKLARI VA ULARNI YENGISH YO'LLARI

Jumayeva Ozoda Mirzayevna
Buxoro viloyati Qorako'l tumani
42-son DMTT direktori

Annatsiya: ushbu maqolada yosh pedagoglarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida duch keladigan asosiy qiyinchiliklari va ularni yengish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: в данной статье представлена информация об основных трудностях, с которыми сталкиваются молодые воспитатели дошкольных образовательных организаций, и путях их преодоления.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, yosh pedagoglar, ta'lim sifati, qiyinchilik, yechim, tajriba, Motivatsiya.

Ключевые слова: дошкольное образование, молодые педагоги, качество образования, задача, решение, опыт, Мотивация.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oldiga - yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Bu esa hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi – maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma'nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila

oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlariga bilan uyg'un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi.



MTT pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan ustozlarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim-tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak.

Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim sifatini oshirishda, ta'lim jarayonini to'liq axborotlashtirish kuzda tutilmoqda.

➤ Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar malakasini oshirishga quyidagicha yondashish tendentsiyalari kuzatilmoqda: sifatli o'quv jarayonini tashkil qilishda pedagog kompetentsiyasini rivojlantirish;

➤ ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi

➤ turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda pedagogning layoqatini oshirish;

➤ ta'lim-tarbiya sifatining mahsulasi – natijani qo'lga kiritish va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh pedagoglar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tajriba yetishmasligi

Qiyinchilik: Yosh pedagoglar ko'pincha amaliy tajribaning yetishmasligi tufayli turli vaziyatlarni boshqarishda qiynalishadi. Bolalar bilan muloqot qilish, ularning

ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash yoki guruhni boshqarishda o'zini ishonchsiz his qilish hollari uchraydi.

Yechim:

- Tajribali ustozlar bilan mentorlik dasturlarini tashkil qilish.
- Pedagoglarni o'quv-amaliy seminar va treninglarga jalb qilish.
- Shaxsiy rivojlanishga qaratilgan resurslar (kitoblar, kurslar, vebinarlar)ni taklif etish.

2. Bolalarning turli ehtiyojlarini qondirish

Qiyinchilik: Bolalarning individual ehtiyojlarini qondirish yosh pedagoglar uchun murakkab vazifa bo'lishi mumkin. Har bir bola har xil tarbiya va rivojlanish darajasiga ega bo'ladi.

Yechim:

- Differensial yondashuvni o'rganish va qo'llash.
- Psixologlar bilan maslahatlashib ishlash.
- Har bir bola uchun alohida rivojlanish rejasi tuzish.

3. Ota-onalar bilan muloqot qilishdagi muammolar

Qiyinchilik: Ota-onalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmasining yetishmasligi pedagogning ishi samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi hollarda ota-onalarning haddan tashqari talabchanligi yoki qiziqmasligi ham qiyinchilik tug'diradi.

Yechim:

- Ota-onalar uchun davriy uchrashuvlar va seminarlar tashkil qilish.
- Ochiq muloqot madaniyatini shakllantirish.
- Muloqot uchun zamonaviy vositalardan (messengerlar, e-pochta) foydalanish.

4. Mehnat yuklamasining yuqoriligi

Qiyinchilik: Darslarni rejalashtirish, hisobotlar tayyorlash va boshqa ma'muriy vazifalar pedagoglar uchun ortiqcha yuk bo'lishi mumkin.

Yechim:

- Darslarni rejalashtirishni soddalashtiruvchi shablon va platformalarni joriy qilish.

- Pedagoglarning yuklamasini qayta ko'rib chiqish.
- Jamoaviy ishlashni yo'lga qo'yish.

5. Motivatsiyaning pasayishi

Qiyinchilik: Tajriba orttirish jarayonidagi qiyinchiliklar pedagogning motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Bu esa uning faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Yechim:

- Yosh pedagoglar uchun rag'batlantiruvchi dasturlarni joriy etish.
- Ularning yutuqlarini muntazam ravishda e'tirof etish va nishonlash.
- Psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yish.

6. Bolalarning noxush xatti-harakatlari bilan ishlash

Qiyinchilik: Tartibni saqlash yoki bolalarning nizoli xatti-harakatlarini boshqarish yosh pedagoglar uchun stress manbai bo'lishi mumkin.

Yechim:

- Pedagoglarni bolalar xatti-harakatlarini boshqarish usullari bo'yicha o'qitish.
- Stressni kamaytirish usullari (masalan, mindfulness texnikasi)ni o'rgatish.
- Bolalarning xulq-atvori bilan ishlash uchun tizimli yondashuvni ishlab chiqish.

Xulosa: Yosh pedagoglar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli qiyinchiliklarga duch kelishadi, jumladan, tajriba yetishmasligi, bolalarning individual ehtiyojlarini qondirish, ota-onalar bilan muloqot, mehnat yuklamasining yuqoriligi, motivatsiyaning pasayishi va noxush xatti-harakatlar bilan ishlash. Ushbu muammolarni yengish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- **Mentorlik va qo'llab-quvvatlash:** Tajribali pedagoglar yordamida yosh kadrlarni o'qitish va yo'naltirish.
- **Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari:** Seminar, trening va amaliy mashg'ulotlar orqali bilim va ko'nikmalarni oshirish.
- **Jamoaviy yondashuv:** Ota-onalar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash.
- **Rag'batlantirish va motivatsiya:** Yosh pedagoglarning mehnatini qadrlash va ularni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish.

➤ **Stressni boshqarish:** Pedagoglarga psixologik yordam ko'rsatish va stressni kamaytiruvchi texnikalarni o'rgatish.

Shuningdek, ta'lim tizimida pedagoglar uchun qulay muhit yaratish, ularga zarur resurslar bilan ta'minlash va yuqorida keltirilgan yondashuvlarni amalda qo'llash orqali yosh pedagoglarning samaradorligi va kasbiy o'sishiga erishish mumkin. Shu yo'l bilan maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga katta hissa qo'shiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. –Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: O'qituvchi, 1998.-43-bet.

INNOVASION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TURLARI VA USULLARI

N.A.Xasanova

TATU "AKTSI" kafedrasi dotsenti

Annatatsiya: ushbu maqolada innovasion strategiya va innovasion bashorat qilish ham innovasion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim omililari haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье инновационная стратегия и инновационное прогнозирование также упоминаются как важные факторы государственной поддержки инновационных процессов.

Kalit so'zlar: Innovasion strategiya, innovasion bashorat

Ключевые слова: Инновационная стратегия, инновационный прогноз.

Innovasion strategiya - innovasion faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'lib, davlat xalqaro ilmiy-texnik va innovasion hamkorlikni rag'batlantiradi, innovasiyalarning xalqaro jihatlarini tartibga soladi va quyidagi vositalardan foydalanadi:

- Moliya, narx, pul muomalasi, tarkibiy qayta qurish siyosati va hokazolar sohasidagi davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik bashoratlari;
- davlat boshqaruvi, umumiy iqtisodiy va bozor regulyatorlari;
- xududiy va mintaqaviy dasturlar, iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish uchun modellar;
- davlat buyurtmalari va zamonaviy shartnoma tizimlari;
- Davlat korxonalari, shuningdek mulkchilikning boshqa turlarining indikativ mexanizmlari va tartibga soluvchi organlari;
- Regulyatorlar va tuzilmalarni integrasiya qilish mexanizmi.
- Innovasion siyosatning asosiy vazifasi - iqtisodiy sohadagi ilmiy va texnologik rivojlanishning davlat ustuvorliklarini amalga oshirish uchun qulay innovasion muhit yaratishdan iborat. Innovasion siyosatning milliy darajadagi tarkibiga kiradigan tadbirlar quyidagilardan iborat:
 - Davlat ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirish jarayonida yaratilgan ilmiy-texnik innovasiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovasion dasturlarni (loyihalarni) boshlash;
 - davlat sektoridan va davlat ilmiy-texnika institutlaridan yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish sektoriga o'tkazish;

- innovasion bozor va uning infratuzilmasini yaratish (moliyaviy va axborot xizmatlari va h.k.);

- innovasion faoliyatni muvofiqlashtirish;

- Innovasion jarayonlarning barcha bosqichlarida hamkorlikni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash.

- Davlat organlari innovasiyalarni takomillashtirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish takliflarini shakllantiradi va muvofiqlashtiradi. Ushbu muammoni hal qilishning asosiy mexanizmlari quyidagilardir:

- tadqiqot va ishlab chiqarish infratuzilmasini, jumladan etakchi universitetlarning tadqiqot bazasini rivojlantirish;

- turli xil tashkiliy modellarda tadqiqot markazlarini (laboratoriyalarni) yaratish va rivojlantirish;

- Amaliy tadqiqotlar doirasida, shu jumladan, texnologik maydonchalar doirasida ilmiy-texnik zaxiralarni yaratish bo'yicha ishlarni kengaytirish va muvofiqlashtirish;

- fundamental fanni rivojlantirish, jumladan, uning universitet sektori va davlat fanlari akademiyalarini qo'llab-quvvatlash;

- Fanni moliyalashtirish va fanni tashkil qilish uchun yangi vositalarni ishlab chiqish, grantlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish;

- iqtisodiyotning real sektoridagi kompaniyalarni ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish sektori (universitetlarning ilmiy bo'linmalari, davlat ilmiy akademiyalari va boshqa ilmiy tashkilotlar tadqiqot tashkilotlari) bilan o'zaro aloqalarini kengaytirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish.

Ushbu vazifani hal etish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishga quyidagilar kiradi:

- Tadqiqot va ishlab chiqarish sohasidagi barcha turdagi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishni o'z ichiga olgan ilmiy va ishlab chiqarish sohasining infratuzilmasini rivojlantirishni moliyalashtirish va birgalikda moliyalashtirish;

- tadqiqot universitetlarini rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimi, oliy o'quv yurtlarining innovasion infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida etakchi universitetlarning tadqiqot bazasini rivojlantirish;

- xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish;

- tadqiqot yo'nalishlarining keng doirasi bo'yicha moliyalashtirish va hamkorlikni moliyalashtirishni tashkil etish;

- tijorat bosqichida xalqaro tadqiqotlar loyihalarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.


- Ushbu faoliyatni amalga oshirishning muhim tamoyillari quyidagilardir:
- ustuvor yo‘nalishdagi resurslarni jamlash, tadqiqot va ta’lim jarayonlarini integrasiyalash, ish sifatiga bo‘lgan talabni oshirish;
- grantlarni o‘zlashtirish, xalqaro tajriba va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilmiy tanlovni kengaytirish va ishlarning takrorlanishini bartaraf etishdan iborat.

Shuni aloxida aytib o‘tish kerakki, davlat innovasion siyosatining strategik ustuvor yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturida aks ettiriladi. Asosiy strategiyalar - fan va innovasiyalarni rivojlantirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish, aviasiya sanoatini rivojlantirish strategiyasi, mudofaa-sanoat kompleksini rivojlantirish strategiyasi hisoblanadi. Ushbu strategiyani amalga oshirishda innovasion dasturlar, innovasion loyihalar va innovasion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va loyihalari amal qiladi.

Innovasion bashorat - innovasion faoliyatning asosiy parametrlarini (uning yo‘nalishlari, turlari, ob'ektlari, oqibatlari va boshqalar) oldindan bilishdir.

Innovasion bashoratlar O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bashoratining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular asosiy innovasiyalarni o‘zlashtirish va tarqatish, yangi ilmiy-intensiv mahsulotlar va texnologiyalarni amaliy qo‘llashning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ssenariylarini qurmoqda. Bunda innovasiyalarni rivojlantirish vazirligini vazifalari muhim hisoblanadi.

Innovasion rivojlanish bashoratlarini ishlab chiqishdan maqsad - uzoq muddatli istiqbolda innovasion texnologiyalarni joriy etish orqali o‘rganilayotgan ob'ekt yoki jarayonning raqobatdosh ustunliklarini oshirish uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat. Amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish yoki boshqarish samaradorligini oshirishga olib keladigan innovasion texnologik jarayon, mahsulot yoki boshqaruv texnologiyasi degan ma'noni anglatadi. Innovasion texnologiyalarni joriy etish natijasida loyihalashtirilgan ob'ekt, jarayon yoki hodisaning texnik va iqtisodiy xususiyatlari yaxshilanadi. Shuningdek, ishlab chiqarish resurslarini tejash, mehnat unumdorligini oshirish, ya'ni, mahsulot yoki xizmatning birligi uchun xarajatlar yaxshilanmoqda. Shu sababli, innovasion rivojlanishni bashorat qilish jarayonida (so‘zning tor ma'noda prognozi) biz innovasion texnologiyalar rivojlanishini prognozlashni va ularning o‘rganilayotgan jarayon, hodisa yoki ob'ekt samaradorligiga ta'sirini tushunamiz.



1-rasm. Innovation rivojlanish bosqichlari

Innovation rivojlanishni bashorat qilish to'liq innovation siklning ya'ni, ilmiy tadqiqotlardan innovation rivojlanish, innovation mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va marketingni tijoratlashtirishgacha barcha bosqichlarini doimiy bashorat qilish tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Innovation rivojlanishni bashorat qilishda ular innovatsiya natijalaridan ya'ni, sifat jihatidan yangi mahsulot yaratish uchun nazariy asoslar va texnologiyalardan, shuningdek to'liq innovation siklning barcha bosqichlarini qamrab oladigan uzluksiz innovation jarayonni qurish va amalga oshirishdan foydalanadilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahrorov F., Nurmatov N.: Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar.
2. Mamatov A.A., Jo'rayev T.T., Erkayev A.N.: Innovatsion iqtisodiyot.
3. Ergashxo'jayeva Sh.J.: Innovatsion marketing.
4. Gimush R.I., Matmurodov F.M.: Innovatsion menejment.
5. Taniyev A.: Innovatsion iqtisodiyot.
6. Abdusattarova X.M.: Innovatsiya strategiyasi.

NUTQ VA ADABIY ME'YOR TUSHUNCHALARI

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi
Shahobiddinova Risolatoy Abdurahmon qizi
Ilmiy maslahatchisi: Xomidova M.O

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilida nutq va adabiy me'yor tushunchalarni xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy bo'lgan bir qolipga keltirish tilshunoslikning muhim vazifasi hisoblanadi. Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyotning o'rni ham alohida.

Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan ifodalarda berishga intiladilar. O'zbek tili nutqiy chegaralari va adabiy me'yorlariga mazkur maqolada e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Individual, umuminsoniy, notiqlik.

Annotation: This article is dedicated to studying the features of the concepts of speech and literary norms in the Uzbek language. Standardizing language units and bringing them into a common form for everyone is an important task of linguistics. The role of literary works in the standardization of language units into a literary form is also significant. In the creative process, poets and writers strive to express their thoughts and feelings in a way that is distinct from other creators. This article focuses on the boundaries of Uzbek language speech and literary norms.

Keywords: Individual, universal, oratory.

Аннотация: Эта статья посвящена изучению особенностей понятий речи и литературных норм в узбекском языке. Стандартизация языковых единиц и приведение их в общую форму для всех является важной задачей лингвистики. Роль художественной литературы в стандартизации языковых единиц в литературной форме также значительна. В процессе творчества поэты и писатели стремятся выразить свои мысли и чувства так, чтобы они отличались от выражений других творцов. В данной статье уделено внимание границам речевых и литературных норм узбекского языка.

Ключевые слова: Индивидуальное, универсальное, ораторское искусство.

Til elementlari me'yorlash:

Til elementlarini me'yorlashtirish jarayonda eskilik yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermaydi. Ma'lum muddat ular teng darajada parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

1. Leksik-semantik me'yor(so'z qo'llash)

Bu sohada so'zlarning bir yoki bir nechta ma'noga ega ekanligini va ular bir-biri bilan qanday leksik aloqador turishi tekshiradi.

2. Talaffuz me'yorlari(orfoepik)

Muayyan bir milliy tilning talaffuz me'yordamida mos holda bir xil talaffuzini ta'minlovchi qoidalar tizimi va ularga rioya qilish.

3. Aksentologik(urg'u me'yorlari)

Bunda so'z va gaplarda urg'uni to'g'ri qo'clash me'yori tushiniladi.

4. So'z yasaliş me'yorlari

So'zlarning to'g'ri yasalişhi va to'g'ri asos va qo'shimchadan iborat ekanligini tekshiradigan sohada tutushiniladi.

5. Imloviy me'yorlar(orfografik)

O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. Gaplarning va so'ularning qismlari fika vositalari yordamida to'g'ri yozilişhi

6. Grafik(yozuv)me'yorlari

Bu soha 2 jihatda tushiniladi: Alifbo va imlo qoidalariga muvofiq yozilişhi.

Nutq vazifasi uning haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1. Vazifasi: Individuallararo – kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq – monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbatida sifatida chiqadi.

2. Vazifasi: Ichki individual – bu yerda nutq ko'plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq-tiniq anglash darajasiga ko'targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3. Vazifasi: Umuminsoniy – bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda u grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Notqlik san'ati.

Aniq nutq uchta komponentning yaxshi muvofiqlashtirilgan ishini nazarda tutadi: talafuz, ovoz, nafas olish. Nutqni to'g'ri shakllantirish jamoat oldida nutq so'zlashda, ish uchrashuvlari va muzokaralar paytida yordam beradi. Axir bunday nutqning asosiy sifati ishonitirishdir

Notqlik – bu monologik nutqning bir turi bo'lib, ma'ruzachi ishonitirish maqsadida katta auditoriyaga murojaat qilgan vaziyatda ishlatilgan. Ovoz insonni baholashda eng muhim element hisoblanadi. Agar insonning gapirish uslubi bizga yoqsa, u bilan muloqot qilish biz uchun yoqimli bo'ladi va biz uni tinglashdan xursand bo'lamiz.

Chiroyli va malakali nutq muvaffaqiyat kaliti. Birinchi va eng muhim qoida – o'qishdir.

Ma'ruzachi odamlarga notiq nutqi bilan murojaat qiladi – nafaqat tinglovchiga ma'lumot etkazish, balki qiziqish (ishontirish) yoki biron bir harakat (induktsiya) shaklida javob olish. Bunday nutq har doim hayajonli harakterga ega. Buning uchun ma'ruzachi o'z nutqining mavzusidan ilhomlanib, unga o'z tinglovchilari uchun zarur va foydali deb hisoblagan narsalarni kiritishi kerak.

Nutq madaniyati:

Nutq madaniyati, nutq odobi — 1.Og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati.

2.Tilshunoslikni til madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi nashriyoti "O'zbek tili me'yorlari" kitobidan
2. S. Sultonsaidovanning "O'zbek tili stilistikasi"kitobidan
3. <https://azkurs.org/ozbek-adabiy-tilining-meyorlari-v2.html>
4. O'zbekistan Respublikasi fanlar akademiyasi nashriyoti "Punktuatsiya" kitobidan

TURIZM VA VOLONTYORLIK

Kamalova Malika Umidjanovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Turizm” fakulteti, 2-kurs talabasi
E-mail:kamalovamalika36@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz sayohatni muhtojlarga yordam berish bilan birlashtirishga imkon beruvchi ko'ngillilar dasturlari haqida ma'lumotni o'rganamiz. Biz ko'ngillilikning har xil turlarini o'rganamiz, ular orasida atrof-muhitni muhofaza qilish, o'qitish, ko'ngilli tibbiyot mutaxassislari kerak bo'lganda, uy-joylarni tiklash yoki qurishga qaratilgan, shuningdek, aholining zaif qatlamlari: bolalar, qariyalar, nogironlar bilan ishlashlari mumkin bo'lgan ko'ngillilar dasturi, qochqinlarga yordam berish va ularga jamiyatga moslashish yoki yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam berish. Qisqasi, ko'ngillilik jamoada ishlash, etakchilik va til ko'nikmalari kabi yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va sizga odamlarning ahvolini yaxshilashga yordam berish orqali jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi. yashaydi, tabiatni asraydi va infratuzilmani rivojlantiradi. Bundan tashqari, ko'ngillilar dasturlari ko'pincha bepul turar joy va ovqatlanishni ta'minlaydi, sayohatni yanada arzonlashtiradi va qiziqarli qo'shma loyihalarga aylanishi mumkin bo'lgan foydali shaxsiy aloqalarni o'rnatish imkoniyatini ochadi.

Kalit so'zlar: turlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, dastur, yashash sharoitlari, bepul ovqatlanish

TOURISM AND VOLUNTEERING

Kamalova Malika Umidjanovna
Student of Tashkent State University,
2nd year, faculty of “Tourism”
E-mail:kamalovamalika36@gmail.com

Abstract: In this article, we will explore information about volunteer programs that allow you to combine travel with helping those in need. We will study different types of volunteering, which include projects on environmental protection, teaching, volunteer medical specialists where they are needed, which are aimed at restoring or building housing, as well as a volunteer program where they can work with vulnerable groups of the population: children, the elderly, people with disabilities, refugees, and help them adapt to society or improve their living conditions. In a short, volunteering helps develop new skills such as teamwork, leadership, and language skills, and gives

you the opportunity to make a positive impact on society by helping to improve people's lives, preserve nature, and develop infrastructure. In addition, volunteer programs often provide free accommodation and meals, making travel more affordable and opening up the opportunity to make useful personal connections that can develop into interesting joint projects.

Keywords: types, environmental protection, program, living conditions, free meals

"Volunteering abroad has come a long way from the days of missionaries and career breakers via gap years and "voluntourists""

Kirish:

Ko'ngilli turizm yoki "ko'ngilli turizm" sayohatning afzalliklarini jamoalar va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish, odamlarni bir-biriga yaqinlashtirish istagi bilan birlashtirish usuli sifatida yaratilgan. U ibtidoiy shaklda ming yillar davomida mavjud. Misr, Yunoniston va Rim kabi qadimiy sivilizatsiyalarda boshqalarga, ayniqsa kambag'al va kasallarga yordam berish axloqiy burch yoki diniy sadoqat harakati sifatida ko'rilgan.

Ko'ngilli turizm atrof-muhitning yomonlashuvi, qashshoqlik va zaiflik kabi ko'plab muammolar borligi sababli, sayyoh passiv sayyoh bo'lishdan ko'ra, sayohat paytida o'z hissasini qo'shish yo'llarini izlaydi. Bundan tashqari, ko'ngilli turizm madaniy almashinuvni rivojlantiradi, sayohatchilarga mahalliy jamoalar bilan chuqurroq aloqa qilish va ularning muammolari va turmush tarzini yaxshiroq tushunish uchun imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, u odamlarni umumiy maqsadlar uchun chegaralar osha birga ishlashga undash orqali global birdamlikni targ'ib qiladi. Ommaviy turizmning salbiy ekologik va madaniy ta'sirlari haqidagi xavotirlar ortib borayotganligi sababli, ko'ngilli turizm yanada barqaror va mas'uliyatli bo'lishni maqsad qilgan muqobilni taqdim etadi. U ko'pincha ekologik muhofaza, jamiyatni rivojlantirish yoki ta'limni qo'llab-quvvatlash shaklida boradigan joylarni qaytarishga qaratilgan.

Tegishli metodologik va nazariy yondashuvlardan tashqari, ilmiy platformaga asoslangan ko'ngilli turizmi bo'yicha tadqiqot dasturi, albatta, o'z parametrlariga ega bo'lishi kerak. Ushbu chegaralar saxovatli tarzda chizilgan va dunyoning barcha mintaqalarida mahalliydan globalgacha ko'ngilli turizmni rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlari orqali rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu kun tartibi ijtimoiy ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lsa-da, u ijtimoiy fanlar ichida ham, undan tashqarida ham intizom sohalari bilan bog'lanishga intiladi. Tadqiqot parametrlarini kengaytirish va

o'rnatish orqali ko'ngillilik va turizmning kesishishini yanada chuqurroq o'rganish, yanada to'liqroq tushunish va yanada mohirlik bilan boshqarish mumkinligiga umid qilamiz. Ko'ngilli sayyohlik tadqiqotlari uchun umumiy asos yaratishga qaratilgan ushbu urinishlar ilm-fan platformasi bosqichini yanada jadallashtirishga yordam beradi.

Anig'ini aytdigan bo'lsak, ko'ngilli turizm sektori, bozorda ko'plab yangi tashkilotlarning paydo bo'lishiga guvoh bo'ldi. Ko'plab ko'ngillilik imkoniyatlari xayriya tashkilotlari bilan bog'liq bo'lsa-da, bu sohadagi o'sishning bir qismi daromad keltiruvchi kompaniyalar tomonidan amalga oshirilmoqda, ba'zilar ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadi, boshqalari esa faqat tijorat maqsadida faoliyat yuritadi. Taklif etilayotgan loyihalar juda xilma-xil: ijtimoiy, jamiyatni muhofaza qilish, ekologiya, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini qamrab oladi. Bozor allaqachon turli guruhlar va auditoriyalarga, jumladan shaxslar, oilalar, talaba guruhlari (xususan, bo'sh yil o'tkazayotgan talabalar), martaba tanaffusidagi shaxslar va korporativ mijozlarga yo'naltirilgan dasturlar bilan segmentlarga bo'lingan. Narxlar tuzilmalari tobora kengayib, turlicha takliflar mavjud: ba'zi tashkilotlar bepul loyihalarni taklif qilmoqda (garchi sayohat xarajatlarini o'zingiz to'lashingiz kerak bo'lsa ham); chegirmali loyihalar; va arzon narxlardagi loyihalar, boshqa tashkilotlar esa faqat narxni belgilash bilan shug'ullanadi. Bozorning bunday o'sishi va segmentatsiyasi turli resurslar, veb-saytlar va nashrlarning paydo bo'lishiga olib keladi, ular doimiy ravishda yangilanib turadi va asosan tavsiflovchi bo'lib, mavjud ko'plab ko'ngilli turizm loyihalari haqida ma'lumotlar taqdim etadi.

Muhokama va natija: Bizda ko'ngillilikning bir necha turlari mavjud va bunday dasturlar sizga dunyoning turli burchaklarida dam olishni haqiqiy yordam bilan birlashtirishga imkon beradi, xoh u mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash, tabiatni muhofaza qilish yoki tarixiy yodgorliklarni tiklashga yordam beradi. Ko'ngillilar dasturlari qisqa muddatli yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin, bu ishtirokchilarga madaniyat va odamlar bilan muloqot qilish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi:

Ekologiya sohasida ko'ngillilik, atrof-muhitni saqlash va tabiatni himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatni anglatadi. Bu ko'ngillilar ekologik loyihalarda ishtirok etib, tabiiy resurslarni tejash (gaz, ko'mir va...), biologik xilma-xillikni saqlash, ifloslanishni kamaytirish (duch kelgan joyga axlat tashamaslik) va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun turli tashabbuslarda ishtirok etadilar. Ekologik ko'ngillilikka daraxt ekish (Ob havoni tozalaydigan daraxtlarni ko'paytirish), axlatni to'plash, yovvoyi hayvonlarni himoya qilish, energiya va suvni tejashni targ'ib qilish kabi faoliyatlar kiradi. Bu turdagi ko'ngillilik, tabiatni himoya qilish bilan birga, jamoatni ekologik ongini oshirishga yordam beradi va atrof-muhitni barqaror saqlashga hissa qo'shadi. Va mana shu loyihalarni butun dunyo bo'ylab organik fermalarda

ko'ngillilar dasturlari orqali amalga oshirish mumkin hisoblanadi. Misol uchun, The Green Belt Movement (Keniya) ekologik tashabbus, Nobel mukofoti sovrindori Wangari Maathai tomonidan 1977 yilda boshlangan. Tashkilot Keniya va boshqa Afrika mamlakatlarida ko'ngillilarni daraxt ekish va tabiatni himoya qilishga jalb qiladi. Ko'ngillilar, qurg'oqchilik va erning degradatsiyasiga qarshi kurashish, yashil maydonlarni tiklash va ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida yuz minglab daraxtlar ekishdi.

Ta'lim ko'ngilliligi shaxslar tomonidan ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ixtiyoriy faoliyatni anglatadi. Ko'ngillilar o'quvchilarga bilim berish, qo'llab-quvvatlash, darslar o'tkazish, va boshqa ta'lim faoliyatlariga yordam berish orqali jamiyatda ta'limni yaxshilashga hissa qo'shadilar. Masalan, hozirda rivojlanib kelayotgan chet el tillarini (ingliz tili, nemis tili, xitoy tili..) oldin tadqiqot tarizida (qiziqtirish uchun) keyin esa bepul darslar orqali oylik challenglarni o'tkazish kabi qo'llab-quvvatlash darslarini kambag'al yoki imkoni cheklangan hududlardagi bolalar uchun amalga oshirish lozim. Misol qilib keltirib "Tandem" (Global Language Exchange Platform) olishimiz mumkin. Bu til o'rganish platformasi bo'lib, unda ko'ngillilar boshqa tilni o'rganayotgan insonlarga yordam beradi. Ko'ngillilar, o'zlarining ona tilini o'rganayotgan kishilar bilan onlayn muloqot qilishadi va ularning til o'rganish jarayoniga yordam berishadi.

Tibbiy ko'ngillilik, sog'liqni saqlash sohasida amalga oshiriladigan ixtiyoriy faoliyatni anglatadi. Bu ko'ngillilar, tibbiy yordam ko'rsatish, sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash yoki kasalliklarning oldini olishga qaratilgan turli loyihalarda ishtirok etadilar. Tibbiy ko'ngillilar, tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, tibbiy materiallarni tarqatish yoki sog'liqni saqlash bo'yicha ma'lumotlarni targ'ib qilish orqali jamiyatda sog'liqni yaxshilashga hissa qo'shadi. Masalan, psixologik yordam kerak bo'ladigan: stress, travma yoki boshqa ruhiy muammolar bilan kurashayotgan odamlarni qo'llab-quvvatlash uchun psixologik yordam ko'rsatadilar. Yoki, "Operation Smile" loyihasi: bu dunyo bo'ylab bolalarga yuzda, labda va tangada tug'ma deformatsiyalarni davolash bo'yicha xizmat ko'rsatadigan tibbiy ko'ngillilar tashkilotidir. Ko'ngillilar, asosan shifokorlar, jarrohlar, tibbiy yordamchi xodimlar va hamshiralar, butun dunyo bo'ylab turli hil tibbiyot bilan bog'liq insonlar bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ishda ko'ngillilik, jamiyatda ijtimoiy yordam, qo'llab-quvvatlash va himoya qilishni maqsad qilgan ixtiyoriy faoliyatni anglatadi. Ijtimoiy ishda ko'ngillilar, turli ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam berish, imkoni cheklangan shaxslar yoki jamoalar uchun resurslar yaratish, va ijtimoiy adolatni ta'minlashga hissa qo'shishadi.

Masalan, Yaponiya davlatida bir ajoyib restoran mavjud "Dawn avatar robot cafe" deb nomlanadi. Dawn Avatar Robot Cafe kontseptsiyasi 2020-yilda ANA

